aniqlash mumkin. Ijtimoiy sharoitlar qonunga qarshi axloqning sodir bo'lishida ma'lum bir rol o'ynaydi. Ularga dastavval ko'p darajali jamoatchilik jarayonlari taalluqlidir. Bu, masalan, zaif hokimlik va qonunchilikning mukammal emasligi, ijtimoiy kataklizmalar va hayotning past darajasi. R.Mertonga asosan, ba'zi odamlar delinkent axloqdan voz kecha olmaydilar, chunki hozirgi jamiyatda har qanday baho bilan daromadga, ehtiyoj va muvaffaqiyatga intilish kuchlidir. Jamiyat farovonligidan u yoki bu darajada "chetga surib tashlangan" odamlarga qonuniy yo'l bilan istagan maqsadlariga erishish og'ir. Aniq shaxsning jamiyatga qarshi axloqidagi ijtimoiy sabab jamiyatning yorliq o'sishga moyilligi bo'lishi ham mumkin. Qator hollarda mustahkam jamiyatga qarshi axloq illatli doira tamoyili bo'yicha shakllanadi: dastlabki, tasodifan sodir etilgan jinoyat - jazo - zo'ravonlik munosabatlar tajribasi (qamoqxonalarda eng yuqori darajada taqdim etilgan) - "jinoyatchi" yorliqi oqibatida ijtimoiy moslashuvdagi keyingi qiyinchiliklar - ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar yig'indisi va ikkilamchi delinkventlik - anchagina og'ir jinoyat. P.Kutyer ko'rsatishicha, ko'pgina qonunga bo'ysunuvchi odamlar tajovuzkor-kriminal impulsiga egadirlar, aniq harakatlarda amalga oshirmaydilar, biroq boshqa odamlarga proektsiyalanadi, masalan, qonunbuzarlikni sodir etuvchilarga. Ushbu proektiv jarayonlar natijasida qonunbuzarlik o'ta qattiq baholanishi va nohaq jazolanishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, delinkventlikning kuchayishiga olib keladi. Shunday qilib, jamiyatning o'zi qanchalik paradoksal bo'lmasin, oqlanmagan harakatlar va o'ta jiddiy jazolar vositasida o'zi qutulishni istagan jinoyatchilarni tarbiyalaydi. Davlat zo'ravonlikka kurash e'lon qilib, o'zi uni aybdorga nisbatan ishlatadi (ko'pincha katta miqdorda). Bugungi kunda dunyoning 86 davlatining qonunchiligi o'lim jazosi qaqidagi moddaga ega.

Umuman olganda, odamlarga o'zaro munosabatlarning zo'ravon styeryeotipi zo'rlab tiqishtiriladi. Hukumat vakillari delinkvent shaxslarni o'z kuchlarini bunday shaxslar o'z qurbonlariga nisbatan qanday munosabatda bo'lgan bo'lsalar, shunday tarzda namoyon qilgan holda ta'qib qiladi. Delinkvent shaxs harakatlanib o'ziga va atrofdagilarga zarar yetkazuvchi illatli doira yuzaga keladi. Determinatsiya va jinoiy axloqda ijtimoiy vaziyatning alohida roli qaqida totalitar

tuzum sharoitidagi odamlar axloqi ustidan kuzatish guvoqlik beradi. P.Kutyer Germaniya SSdagi ommaviy qotillar qatoridagi shaxslarning (kontsentratsion lagergacha va undan keyin) nasliyligi va rivojlanishini o'rgangan Diks tadqiqotlarining natijasini keltiradi. Eseschilarning jinoiy axloqi garchi ularning turli shaxsiy xafagarchilik bilan birga borsa-da, faqat ijtimoiy qonuniy sharoitlarda namoyish etilgan - kontslagerdagi o'qish va ishda. Natsistlik tartibi va undan keyin o'rgatilgan shaxslar, qoidadagiday, jinoyat sodir etmaganlar. Delinkvent axloqning bunyodga kelishida muhim ro'lni mikroijtimoiy vaziyat o'ynaydi. Uning shakllanishiga, masalan, quyidagilar ko'maklashadi: asotsial va antiijtimoiy muhit (ota-onalarning piyonistaligi, asotsial va antiijtimoiy oila yoki kompaniya); nazoratsizlik; ko'p bolali va to'liq bo'lmagan oila; oila ichidagi nizolar; ahamiyatli boshqalar bilan surunkali janjallar. V.N.Kudravtsev jinoyatchini hatto erta yoshida yuzaga keluvchi o'z muhitidan begonalashish holatini ko'rsatadi. Xullas,10 foiz tajovuzkor jinoyatchilar onalari ularni bolalikda sevmagan deb hisoblaydilar ("me'yoriy" tanlovda faqat 0,73 foiz).

Adabiy ma'lumotlarni yiqib, delinkventlikni chaqiruvchi quyidagi mikroijtimoiy omillarni sanab o'tish mumkin:

- bolalarning nozik g'amxo'rlik va ota-onalari tomonidan mehribonligiga ehtiyoji frustratsiyasi (masalan, o'ta qattiqqo'l ota yoki yetarlicha g'amxo'r bo'lmagan ona), o'z navbatida, bolada erta jarohatli kechinmalarni uyg'otadi;
- oilada jismoniy yoki psixologik shafqatsizlik yoki kuch kulti (masalan, jazoning haddan tashqari yoki doimiy qo'llanilishi);
- ma'naviy ongning me'yoriy rivojlanishini qiyinlashtiruvchi ota ta'sirining yetishmasligi (masalan, uning yo'qligi);
- jarohatli sharoitlarni qayd qilish bilan o'tkir jarohat (kasallik, ota-onaning o'limi, zo'ravonlik, ajrashish);
- bolani uning xohishlarini bajarishda erkalatish; ota-onalarning yetarli bo'lmagan talabchanligi, ularning o'sib boruvchi talablarni qo'yishga yoki ularning bajarilishiga erishishga noqodirligi;

- bolani o'ta raqbatlantirish - ota-onaga, aka-uka va opa-singilga juda ham jadal erta sevgili munosabat.
- ota-onalar tomonidan bolaga nisbatan talablarning kelishmaganligi oqibatida unda axloqning aniq tushunchasi paydo bo'lmaydi;
- ota-onalar (vasiylar) ning almashinuvi;
- ota-onalar o'rtasidagi surunkali aniq ko'zga ko'ringan nizolar (ayniqsa, qachon shafqatsiz ota onani do'pposlagan vaziyat xavfli);
- ota-onalarning istalmagan shaxsiy xislatlari (masalan, talabchan bo'lmagan ota va erkalatuvchi onaning uyg'unligi);
- bolaning o'rganish orqali oilada yoki guruhda delinkvent qadriyatlarni (ochiq yoki yashirin) o'zlashtirishi.

Qoidadagiday, dastlabki onlarda bola frustratsiyani kechirayotib, og'riqni his qiladi, tushunish va yumshatish bo'lmaganida bu ixlosi qaytish va yovuzlikka o'tadi. Tajovuz ota-onalar e'tiborini tortadi, bu esa o'z-o'zidag bola uchun muhim. Bundan tashqari, tajovuzdan foydalanib, bola ko'pincha atrofdagilarni boshqarib, o'z maqsadiga erishadi. Sekin-asta tajovuz va qoidalarni buzish sistematik tarzda istalgan natijani olish usuli sifatida foydalaniladi. Delinkvent axloq mustahkamlanadi. M.Ratter va D.Gidler «Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi: tendentsiya va istiqbollari» tadqiqotida oilada erta bolalik rivojlanishining xislatlari va individ bo'ysunishining keyingi darajasi o'rtasidagi aniq aloqani ko'rsatadilar, biroq ta'kidlaydilar, oilaning bunday ta'siri mexanizmlari avvalgiday noaniq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ular ijtimoiy o'zgarishlar va jinoyatchilikning o'sishi o'rtasidagi korrelyatsiyani bu aloqa mexanizmlariga tegishli bilimlarning yetishmasligini qayta ta'kidlaydi. Voyaga yetmaganlar misolida tadqiqotchilar shunday xulosaga keldilar, jinoiy axloq uchun ko'plab sabablar mavjud. Bular tengdoshlar guruhi, ijtimoiy nazorat va ijtimoiy o'rganish, biologik va vaziyatli omillar bo'lishi mumkin. Ularning nuqtai nazarlari bo'yicha profilaktikaning yagona tushuntirishi yoki yagona strategiyani izlash bema'nilikdir. Qonunga qarshi axloqning individual determinantlari psixologik tahlil uchun alohida qiziqishdan iboratdir. O'z navbatida, individual xususiyatlar jinsiy farq bilan ahamiyatli tarzda

belgilanadi. Masalan, yaxshi ma'lumki, qonunbuzar axloq ko'proq erkak jinsi uchun xarakterlidir. Ayollar jinoyatchiligining o'sishiga qaramay uning nisbiy ko'rsatkichlari erkaklarnikidan past, masalan, Rossiyada 1998 yilda ayollar jinoyatchiligi qayd qilingan umumiy holatning 15 foizini tashkil etadi. Ayollar yoki erkaklarga xos bo'lgan jinoyatlar haqida gapirish mumkin. Bolalarni o'ldirish, fohishabozlik, magazinda o'g'rilik qilish kabi deliktlarni ko'pincha ayollar sodir etadilar. Erkaklar ko'pincha avtomobilni olib qochadilar, bosqinchilik qiladilar, o'g'rilik qiladilar, tan jarohati yetkazadilar, o'ldiradi. Tipik erkakcha jinoyat ham mavjudki, u zo'rlashdir. Yosh omili ontogenezning turli bosqichlarida o'ziga xos axloqni belgilaydi. qonunbuzarlikning yosh tezligi dinamikasi quyidagi obrazda ko'zga tashlanadi: ko'pchilik jinoyatchilarning yoshi 25 bilan 35 orasida kolebletsya; jinoyat miqdori hech so'zsiz 14 dan 29 yoshgacha o'sadi; eng ko'p hollarda jinoyat sodir etish 29 yoshga to'qri keladi; 29 dan 40 yoshgacha sekin-asta pasayish kuzatiladi; 40 dan keyin jinoyat qilish siraklashadi.

Shubhasiz, antiijtimoiy axloq (masalan, tajovuzkor dan farqli ravishda) haqida, ma'lum bir yoshga yetgandan keyingina gapirish mumkin bizning nazarimizda, 6-8 yoshdan avval emas. qoidadagiday, kichkina bola o'z axloqini, uni nazorat qilish va ijtimoiy me'yorlarga nisbatan yetarlicha anglashi mumkin emas. Faqat maktabdagina bola ilk bor va aqiqatan printsiptal ijtimoiy talablar bilan to'qnashadi hamda maktab yoshidan boshlab boladan axloqning asosiy qoidalariga qat'iy amal qilishni kutish mumkin. Turli yoshda delinkvent axloqning "sifatli" xususiyatlarining ko'rinishiga o'rin bor. Ontogenezning ilk bosqichida ijtimoiy axloqning buzilishi bolaning psixik rivojlanishidagi muammolarni yoki avloddan-avlodga o'tuvchi xarakterga ega bo'lgan asabiy reaksiyani o'zida aks ettiradi. Masalan, bolaning besh yoshida o'g'rilik qilishi giperfaollik, e'tibor va muhabbatga tabiiy ehtiyoj, yaqin odamini yoqotish reaksiyasi, intellektual rivojlanishdagi to'xtalish, zaruriy ozuqa va buyumlarni olish inkonsizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Maktabga chiqish lahzasidan vaziyat printsiptal tarzda o'zgaradi - bolada ulg'aygan psixik imkoniyatlari sharoitida shaxsning jadal

ijtimoiylashuvi bosqichi boshlanadi. Shu vaqtdan boshlab bolaning ma'lum bir harakatlarini haqiqatan qonunbuzarlikka yaqin sifatda ko'rib chiqish mumkin.

Kichik maktab yoshida (6-11 yosh) delinkvent axloq quyidagi shakllarda ko'rinishi mumkin: mayda bezorilik, maktab qoidalari va intizomni buzish, dars qoldirish, uydan qochib ketish, yolg'onchilik va o'g'rilik.

Mamlakatlar dagi ijtimoiy-iqtisodiy krizis delinkvent axloqning, shu jumladan, yosh bolalar guruhlarida ham o'sishiga ko'maklashganini ta'kidlash lozim. Aholi bir qismining qashshoqlashuvi, jamoatchilik tarbiya institutlarining parchalanishi, jamiyat ko'rsatmalarining o'zgarishi - bularning barchasi qarovsiz turdagi asotsial bola shahar ko'chalarining odatiy qahramoniga aylanishiga olib keldi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ko'cha bezoriliklari (o'g'rilik, telefon avtomatlari yaqinidagi qalloblik, ta'magirlik) daydilik, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bilan uyg'unlashadi. Albatta, bunday hollarda bolalarning og'ishgan axloqi qonunan o' smirlar va katta yoshdagilarning delinkvent axloqiga o'tadi.

O'smir yoshida (12—17 yosh)gi qonunbuzarlik harakatlari anchagina anglangan va ixtiyoriy hisoblanadi. Ushbu yosh uchun “odatiy” buzilishlar - o'g'il bolalarda - o'g'rilik va bezorilik, qizlarda - o'g'rilik va fohishabozlik bilan bir qatorda yangi shakllar ham keng tarqaldi - giyohvand moddalar va qurol bilan savdo-sotiq qilish, rekyet, qo'shmachilik, muttahamlik, biznesmen va xorij fuqarolariga tashlanish. 1998 yili 190 mingga yaqin voyaga yetmagan jinoyatchilar (qonunni buzuvchilarning umumiy sonini 10 foizi) ro'yxatga olingandi [14]. Statistik ma'lumotlarga qaraganda o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi guruh bo'lib amalga oshirilgan. Guruhda jazodan qo'rquv pasayadi, tajovuz va shafqatsizlik keskin kuchayadi, o'ziga va sodir bo'layotganlarga nisbatan tanqid susayadi. Guruhli qonunbuzarlik axloqining birmuncha yuqori ko'rsatkich namunasi futbol matchidan keyin yoshlar ko'pchilikni tashkil etuvchi ishqivozlarning “sayri” hisoblanadi.

V.N.Kudravtsev [12] hisoblaydiki, jinoiy karyera, qoidadagidek, yomon o'qish va maktabdan begonalashishdan (unga salbiy-dushmanlarcha munosabat)

boshlanadi. Keyin oilaviy muammolar va tarbiyaning “nopedagogik” usuli fonida oiladan begonalashish sodir bo'ladi. Keyingi qadam esa jinoiy guruhga kirish va jinoyat sodir qilish o'ladi. Bu yo'lni bosib o'tishga o'rtacha 2 yil talab qilinadi. Mavjud bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda 60 foiz professional jinoyatchilar (o'g'rilar va moshennikov) bu yo'lga o'n olti yoshlarida qadam qo'yganlar. Determinatsiya bo'yicha o'smir huquqbuzarlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchi guruhni ularning harakatlarga hissiy reaksiyasini noto'qri yo'naltiruvchi qator sabablar oqibatida rivojlanmay qolgan oliy tuyg'ular (uning xabari, majburiyat tuyg'usi, mas'uliyat, yaqinlariga ko'ngil qo'yish) yoki yaxshilik yoki yovuzlik haqidagi tasavvurlarga ega o'smirlar tashkil etadi.

Ikkinchi guruhga gipertrofik yosh reaksiyasi bo'lgan o'smirlarni kiritish mumkin, bu ularning oppozitsion va antiijtimoiy axloq xarakteriga o'tishini ko'rsatadi (boshqa yoqimli sharoitlarda).

Uchinchi guruhni delinkvent axloqni bevosita o'z atrofida qilargilarga turqun yuzaga chiqaruvchilar va kim uchun bunday axloq odatdagi me'yoriy (o'z o'zining salbiy obrazi, o'z-o'zining nazorati yo'qligi, sust rivojlangan vijdon, odamlarga ehtiyojijiy munosabat bilan) hisoblanganlar tashkil etadi.

To'rtinchi guruhga psixik va asabiy xafagarchiligi bo'lgan o'smirlar taalluqlidir (ular da delinkvent axloq bilan birgalikda og'riqli simptomlar yoki intellektual rivojlanmaganlik belgilari ishtirok etadi).

Nihoyat, o'smirlarning ongli ravishda delinkvent axloqni tanlovchi (psixik xafagarchilik bilan azoblanmaydigan yetarlicha o'z-o'zini nazorat qilishga ega va o'z tanlovining oqibatlarini tushunuvchi) beshinchi guruhi ajratiladi.

Birmuncha noxush prognostik belgilar (kelgusida antijamoatchilik axloqini shakllanishi planida) deb quyidagilarni hisoblash mumkin: vijdon va aybdorlik tuyg'usining yo'qligi, patologik aldamchilik, odamlarga ehtiyojijiy munosabat, beparvolik, irkitlik, aniq ko'rinib turgan psixopatologiya.

Jinsiy va yoshdan tashqari, konstitutsional omil ajratiladi. Tadqiqotchilar konstitutsional xususiyatlar shaxs rivojlanishini antiijtimoiy tomonga yo'naltirishi

mumkin, deb ta'kidlaydilar. Masalan, bolaning ishtiyoqi shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, u ochlik holatiga qiyinchilik bilan chidaydi, buning ta'siri ostida u og'rilikka qo'l urishi mumkin. Yoki ehtimol, kichik bolalarda yaqin munosabatlar o'rnatish qobiliyatida aniq ko'rinib turgan individual farq mavjud [2, 54-b.].

Psixopatologiyaning (har qanday yoshda) shaxs delinkvent axloqiga ta'siri qaqidagi masala munozarali bo'lib qolmoqda. «Psixik og'ishlar va antijamoatchilik axloq munosabatlarining muammosi - psixiatriyada eng murakkab va chalkashlaridan biridir», - deya ta'kidlaydi V.Korolyev. Delinkvent axloq bilan uyg'unlashuvchi anomaliyalarning birmuncha tarqalgani sifatida quyidagilarni aytadilar: psixopatiya, piyonistalik; asabiy xafagarchilik; bosh suyagi-miya jaroqatlar va bosh miyaning organik kasalliklarining qoldiq ko'rinishlari; intellektual yetishmovchilik.

Psixik anomaliyaga ega bo'lgan odamlar intellektual yoki hissiy-ixtiyoriy patologiya oqibatida o'z harakatlarini anglash va nazorat qilishning past layoqatini namoyon etadilar. Ayni damda tibbiy me'yordan og'ishishni garchi ular qator hollarda uyg'unlashsa-da, jinoiy harakatlarni chaqiruvchi aniq sabablar deb hisoblab bo'lmaydi.

Psixik xafagarchilikning muayyan sharoitlar bilan uyg'unlashuvida odamning o'z jinoyati uchun qonun oldida javob bera oladigan ahamiyatli tarzda pasaytiruvchi, ya'ni o'z harakatlarini anglash va ularni nazorat qilishga qodir patologik bo'lsaning yuzaga kelishini kutish mumkin.

Ko'pgina mualliflar ham kam dalillangan, ko'pincha atrofdagilar uchun kutilmagan shafqatsiz qotillikni aynan patologik axloqning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqadilar. Yu.B.Mojginskiy ko'rsatishicha, psixik xafagarchilik belgisiz o'smirlar tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash jinoyatlar qo'lida ikkita patologik tendentsiya kuzatiladi: bo'lsaning buzilishi (ruhiy azoblanish holati, distimiya) va shaxs krizisi (psixopatik rivojlanish). Ushbu buzilishlar shaksiz aniq ijtimoiy-psixologik kontekst bilan uyg'unlashadi. Ular orasida muallif nizoli vaziyatlar, uzoq muddatli stress (oilada cho'zilib ketgan janjal), o'smir

guruhlarining ta'siri (guruhli qadriyatlar va qoidalar), to'laonli emaslik kompleksi, ahamiyatsiz bo'lgan tashqi xavfni nomlaydi.

X.Remshmidt o'smirlar delinkvent axloqining etiologiyasida boshqa psixik kasalliklar belgisiz yengil hissiy zararlar; qo'rquv, sog'inch yoki axloqning zo'ravonlik usuli bilan manifestlanadigan aniq ko'rinib turgan hissiy buzilishlarni ajratadi.

Qator hollarda kayfiyatning buzilishi mayl patologiyasi bilan uyg'unlashadi, masalan, kuydirish (piromaniya) yoki o'g'rilik (kleptomaniya) ga davriy yengib bo'lmas qiziqish bo'lgan patologik axloq. Shu qatorda qiziqishlar buzilishiga qochish va daydilikka moyillik taalluqlidir. Umuman olganda buzilgan qiziqishlar sindromi quyidagilar bilan xarakterlanadi: impulsivlik, turg'unlik, shaxs uchun begonalik va yengib bo'lmaslik. X.Remshmidt, ruhiy azoblanish holatidagi delinkventlarni yoritib, "qiziqish va tajovuzning kuchayishi" hamda "qiziqishning mutlaq yo'qolishi" holatining almashinishi haqida gapiradi.

Keltirilgan ma'lumotlar bo'lsaiv ixtisosi shaxsning antiijtimoiy axloq bilan bog'langan va o'z navbatida, ichki hamda tashqi omillar yig'indisiga bo'ysunuvchi birmuncha ahamiyatli xislatlaridan biri hisoblanishi qaqida gapirishga imkon beradi.

Shunday qilib, axloq determinatsiyasi bo'yicha delinkvent shaxsning bir necha asosiy guruhlarini ajratish mumkin:

Vaziyatli qonunbuzar (ko'pincha vaziyat taqozosi bilan qo'zg'atilgan qonunga qarshi harakatlar);

Submadaniyatli qonunbuzar (antiijtimoiy qadriyatlar guruhlari bilan o'xshash bo'lgan buzuvchi);

Asabiy qonunbuzar (intrapsexik nizo va xavotir natijasida chiquvchi asotsial harakatlar);

"Organik" qonunbuzar (impulsivlik, intellektual yetishmovchilik va bo'lsaivlik ustunligi bilan miya jarohati oqibatida sodir etiladigan qonunga qarshi harakatlar);



Psixotik qonunbuzar (og'ir psixik buzilish - psixoz, ongning xiralashishi natijasida sodir etiladigan deliktlar);

Antijimoiy shaxs (shaxsiy chiziqlarining maxsus uyg'unligida yuzaga kelgan antijamoatchilik harakatlari: dushmanlik, oliy tuyg'ularning rivojlanmaganligi, yaqinlikka qodir bo'lmaslik).

### **Qonunga qarshi motivatsiya**

Yuqorida ko'rib chiqilgan ichki va tashqi sharoitlar delinkvent axloqning shakllanishiga imkon beradi. Ayni damda, qonunbuzarlikni yoritib, ko'pchilik mualliflar delinkvent axloqning paydo bo'lishida shaxsan ijtimoiy yo'nalganligining hal qiluvchi roli aqidagi xulosaga yonbosadilar. Gap qonunga qarshi axloqning bevosita sababi bo'lib chiquvchi maxsus motivatsiya haqida boradi. V.N.Kudravtsev shaxsning antijamoatchilik orientatsiyasi to'g'risida so'zlaydi. Boshqa mualliflar o'xshash atamalardan foydalanadilar: shaxsning kriminogenli deformatsiyasi, antijamoatchilik ko'rsatmalari, antijimoiy yo'nalganlik, qonunga qarshi motivatsiya. Ushbu atamalar shaxsning birmuncha turg'un va ustun bo'lgan sabablar - ichki ishonch istagi, ehtiyoj, ko'rsatmalar, qadriyatlar, manfaatlar va .... e'tiqod tizimini belgilaydi.

Qonunga qarshi motivatsiya ifodalanishning turli manba, shakl va darajasiga ega bo'lishi mumkin. V.V.Lunyeyev qonunga qarshi harakatlarning quyidagi yetakchi motivatsiyalarini ko'rib chiqadi: g'arazli-ta'magir, zo'ravon-egoistik, anarxistik-individualistik, yengil tabiat mas'uliyatsizlik, qo'rqqoq jur'atsizlik. A.I.Dolgova o'smirlar misolida shaxs deformatsiyasining zo'ravon va g'arazli tiplarini ajratadi. Zo'ravonlik tipida o'z-o'zini tasdiqlashga intilish, o'zini kuchli, haqiqatgo'y, har doim yordamga tayyor mehribon natura deb tasavvur etish xohishi mavjud. Biroq haqiqatgo'ylik haqidagi tasavvur bunday shaxslarda noto'g'ri, ish mohiyati bo'yicha ularning axloqi jinoyatchining axloqi hisoblanadi. Ular uchun guruhli egoizm, norasmiy guruhlarga zich bog'langanlik, shafqatsizlik, kuchga ibodat qilish, o'z axloqining to'g'riligiga ishonch tipikdir. G'arazli tip uchun guruhli emas, individual egoizm xarakterli. Uning vakillarida qadriyatli orientatsiya ancha nuqsonli, ular o'z harakatlarining qonunga qarshi xarakterini

to'la anglydilar. Bunday o'smirlarni sirlilik, axloqsizlik, g'arazli ko'rsatmalarning mavjudligi, anchagina chuqur ijtimoiy qarovsizlikni farqlaydi. Amaliyotning kattagina qismida ko'rsatilgan tiplarning kombinatsiyasi bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. Qonunga qarshi motivatsiya aniq shaxs motivlaridan ustunlik qiluvchi mustahkam tizim sifatida bevosita uning huquqiy ongi bilan bog'liq. huquqiy ong quyidagilarni ko'zda tutadi: 1) qonunlarni bilish va ularni tushunish; 2) qoidalarni shaxsiga ahamiyatli kabi qabul qilish, ularning foydaliligi va haqqoniyligiga ishonish; 3) qonun va qoidalarga muvofiq tayyorlik, malaka va odatlarni harakatlantirish. Shubhasiz, me'yoriy ijtimoiy rivojlanish madaniy (shu jumladan, huquqiy) me'yorlarni individual qadriyatlarga aylanish jarayonini ko'zda tutadi. Shaxsiy mazmun tizimi orqali singan huquqiy me'yorlar ixtiyoriy boshqaruv bilan uyg'unlashib, shaxsning qonunga bo'ysunish kabi sifatini ta'minlaydi. N.F.Kuznetsova katta odamlarning qonunga bo'ysunishining motivatsiyasini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazdi (1984). So'ralganlar orasida 52,3 foizi qonun va tartibning foydaliligiga o'z ishonchlarini; 27,4 foizi - qonunga amal qilish odatini ta'kidladilar. Yakka javoblar (4 tadan 1,5 foizgacha) - boshqalar namunasining ta'siri, atrofdagilarning ishonchini yo'qotish qo'rquvi, shaxsiy hisob-kitob, muhokamadan qochish istagi. Faqat 0,9 % respondentlar qonunga bo'ysunishning sababi sifatida jazodan qo'rqish ekanini ta'kidlaganlar. Yoshlarda jazodan qo'rqish hiyla ifodalangan: 7 foiz so'ralganlar shu sababni aytganlar. Biroq umuman olganda jazodan qo'rqish jinoyat sodir etishga qarshilik qilmaydi. Tadqiqotlar ma'lumotlari bo'yicha 2 mingta maxkumlardan faqat 4 foiz respondentlargina jinoyat sodir etayotib uning ortidagi jazo haqida o'ylanganlar. Ushbu tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinoyatchilarda qonunga bo'ysunish me'yoriy odamlarnikiga qaraganda 5-9 marta past. Shunday qilib, qoidalarni bajarish yoki uni buzishning motivatsiyalari turli- tuman bo'lishi mumkin ekan. Qonunga qarshi harakatlarni qo'zqatuvchi alohida sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin: tezda lazzat olishga intilish, o'z-o'zini tasdiqlashga, qulaylikka yoki yuqori ijtimoiy mavqega intilish, oppozitsion axloq (buzishga ichki intilish, taqiqlar), axloqiy stereotiplar (kriminal muhitda bo'lish tajribasi), tajovuz va sadistiklikka moyillik,

ijtimoiy stereotiplar va an'analarga ergashish, guruhga mansublikni his qilish va uni ma'qullashga ehtiyoj, zerikish, xatar va o'tkir hissiyotlarga intilish, frustratsiya, majburiy himoya zarurati, altruizm (boshqa odamlar yoki yuqori maqsadlar evaziga qonunbuzarlik). Rejissyor Lyuk Bessonning "Leon" (1996) filmida delinkvent axloqning ikkita motivatsion chiziqlarni qarama-qarshi qo'yadi. Birinchi chiziq - "tozalovchi", vijdonli kallakesar, boshidanoq tanlash imkoniyatidan maxrum bo'lgan Leon obrazida gavalantirilgan. Italiyadan kelgan savodsiz emigrant Leon (Jan Reno) Amerikaga hech bir kasb va yashash uchun mablag'siz keladi. "Marhamatli qariya" Toni Leonga killerlik ishini topib berib, undan foydalanganicha "yordamlashadi". Leon yashashni istash va hayotni sevisht nima ekanini bilmaydi. U shunchaki yolg'iz o'zi bu shafqatsiz hayotda yashaydi. U o'z ishini "faqat ayollar va bolalar emas" qat'iy tamoyilga rioya qilgan holda vijdonan bajaradi. Uning hayotida oilasini yo'qotgan Matilda ismli qizning tasodifan paydo bo'lishi Leonda insoniy mohiyatni - xayrixohlik, g'amxo'rlik, muhabbatni uyg'otadi. Leon o'zining yagona sevgisini himoya qilganicha asl qotillar bilan kurashda halok bo'ladi. Ikkinchi chiziq qahramon Garri Oldman - giyohvand moddalar bilan kurash bo'yicha bo'limni boshqaruvchi psixopat-politsiyachi bilan taqdim etilgan. Hokimiyatni beruvchi o'tkir shaxsiy sifatlariga ega bo'lib, ular dan nozik jinoyatlarni sodir etishda foydalanadi. Bu, shubhasiz, delinkvent shaxsning yagona qonuni - qonunsizlikdir. Ko'p narsaga ega bo'lib, u faqat bitta narsadan - boshqa odamning yuzida o'lim qo'rquvining mushohadasidir. Adbatta, delinkvent axloq bilan to'qnashib, biz dastavval uning ortida yashiringan sabablarni tadqiq etmog'imiz zarur. O'ngsiz motivatsiyani ochuvchi psixoanalitik tadqiqotlarda delinkventlik ichki nizo va oddiy himoya natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Antiijtimoiy axloq holatida delinkventlikning quyidagi o'ngsiz sabablari harakatlanishi mumkin.

-tezkor qoniqishni talab qiluvchi istak;

-kuchsiz g'azab, umidsizlik - razryadka izlovchi tajovuzni boshdan kechirish;

- o'ch olishni talab qiluvchi xafalik;

- haqiqatni tiklashga sabab bo'luvchi hasad;

- ishonchsizlik va masofani saqlashga intilish;
- Ulug'vorlik va qudratlilik fantaziyasi.

Shaxsiy dinamika A. Axorn nuqtai nazaridan delinkventlikning ikkita asosiy tipning mavjudligini ko'rsatadi: Antiijtimoiy axloq bilan chegaradosh asabiy holat; qachonki shaxs ichki nizo holati da bo'ladi va uning qaysidir qismi aybdorlik tuyg'usini uyg'otib, delinkvent axloqni ta'qiqlaydi. Aybdorlik tuyg'usi ustunligida delinkvent o'zini g'alati tutadi, masalan, o'g'irlangan shapkada yuradi yoki o'g'rilikdan foyda olmaydi. U aniq fosh bo'lishni istaydi va ko'pincha shunday bo'ladi ham. Uning tushiga daxshatlar kirib chiqadi. U jazodan keyin yengillikni his qiladi. Qator hollarda jinoyatchilarda aybdorlik hissi jinoyat sodir etishdan oldin paydo bo'ladi. Bunda delinkventlik super-Ego bosimidan yengillashish olish istagi tufayli vujudga keladi; Asabiylik b elgilarisiz antiijtimoiy axloq. Bu qolda nizo “tashqariga chiqarilgan” – bu libid istaklarning erta frustratsiyasi sababli atrofdagilar bilan ochiq nizo. Biroq jazoga ixtiyorsiz ehtiyoj va qoniqish tamoyilining ustunligi bosqichidagi qayd qilingan har ikki vaziyatda ham ifodalangan.

### **Anti-ijtimoiy shaxs**

Aniq shaxsda ustunlik qiluvchi va birmuncha tez-tez ko'zga tashlanuvchi sabablar shaxsning umumiy yo'nalganligini belgilaydi. Xorijiy psixologik a tibbiy adabiyotlarda katta odamlardagi (18 yoshdan boshlab) delinkvent axloqni ifodalash uchun quyidagi atamalar keng qo'llaniladi: “antiijtimoiy”, “sotsiopatik”, “psixopatik” shaxs. Ushbu tushunchalar biz uchun odatiy bo'lgan - “kriminal shaxs”, “xarakterologik psixopat” tushunchalari bilan bir xil emas - tibbiy tashhis sifatida ham yuzaga chiqmaydi. Sotsiopatik (antiijtimoiy) shaxs o'zida shaxs ishlashining chuqur psixologik mexanizmlari orqali yortilidigan psixologik tipni aks ettiradi. Sotsiopatik dinamikani o'rganishga asosiy hissa psixotaqlichi tomonidan qo'shildi. Og'ir o'smirlarga bag'ishlangan o'z ishlari bilan mashhur Avgust Axorn (1876—1949) dyelinkvyentlikni “noto'qri ma'no byerishni kyeltirib chiqaruvchi psixik kuchlar o'zaro ta'sirining natijasi, dinamik ko'rinish” sifatida ta'riflaydi.

Ushbu buzilish dastavval Ego va super-Ego o'rtasidagi o'zaro munosabatning buzilishi bilan bog'liq. Super-Ego (tanqidiy Instantsiya sifatida) shakllanmagan bo'lishi, boshqa hollarda esa u ota qattiq - jazo beruvchi bo'lishi mumkin. Nihoyat, Ego-idyeal (supyer-Egoning qismi sifatida) antiijtimoiy o'xshashlikdan iborat bo'lishi mumkin.

N.Mak-Vilyamye sotsiopatik shaxsni boshqalar ustidan qokimlikni qis qilishning anio' khrinib turgan ehtiyoji orqali yoritad. Bu odamlarga ta'sir ko'rsatish, ularni manipulyatsiya qilish, ularning ustidan "ko'tarilish" ga intilish sifatida namoyon boladi. Ko'pchilik mualliflar ushbu xarakter insoniy ko'ngil qo'yishga noqodirlik asosi bilan bog'liq deya ta'kidlaydilar. Bunda ijtimoiy moslashuv darajasi turlicha bo'lishi mumkin. A.Axorn aniq va latent delinkventlik tushunchasini kiritdi. Agar birinchi holda antiijtimoiy harakatlarga o'rin bo'lsa, ikkinchisida - bu holat mavjud, biroq tashqaridan ko'zga tashlanmaydi. Shaxsning antiijtimoiy tashkilotchiligi bo'lgan odam albatta jinoyat sodir etmaydi, ammo uning hayoti umuman olganda o'ziga xos motivatsiya bilan belgilanadi. Bir qancha hurmatli kasb vakillari, shubhasiz, boshqalarga qaraganda yuqori darajada o'z individualliklarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirgan holda bosim va nazoratga (pedagoglar, sudyalalar, xirurglar) moyillikni namoyon etadilar. Qonunni buzish yo'lida turgan shaxslar ushbu psixologik tashhis nuqtai nazaridan yetarlicha aniq ifodalanishi mumkin. Eng qiziq fakt shundan iboratki, agar sotsiopatik shaxs qamoq yoki o'z-o'zini barbod etishdan omon qolsa, u o'rta yoshida (qirq yoshlarda) "yonib ketish" tendentsiyasiga ega bo'ladi, ko'pincha "namunal fuqaro" Darajasigacha erishadi. Psixotahlilchi delinkventlarni o'z ichki nizolarini hal qilsh holatidagilar sifatida ko'rib chiqadi. Antiijtimoiy odamlar reallikdan uziladilar va ichki haqiqatdan qutuladilar, qonun bilan ta'qiqlangan va davlat barham beradigan ta'qiqlangan harakatlarni qo'llaydilar. Sotsiopatik odamlarning asosiy psixologik himoyasi vsemoguhiy nazorat hisoblanadi. Ular, shuningdyek, proyektiv o'xshashlik, ko' plab nozik dissotsiativ jarayonlar va tashqaridan o'yinni tugatishdan foydalanadilar. Mak-Vilyam ko'rsatishicha, bosim o'tkazishga ehtiyoj, ayniqsa, ahamiyatga ega. U uyatni himoyalaydi (ayniqsa, qo'pol psixopatlarida) yoki jinsiy

perversiya izlashdan (xuddi shunday asosida kriminallik yotadigan) chalg'itadi. Delinkvent axloqda ko'pincha shaxsiy salbiy sifatlarni jamiyatga proyeksiyasidan foydalaniladi. Bunda jamiyat haqiqatda boridan ko'ra illyuziyali tarzda yomon bo'lib ko'rinadi, huquqni himoyalovchi organlar vakillari esa eng salbiy tavsifnomalar bilan "ment" gacha tushiriladi. Sotsiopatlarida mashxur yetkazishning yo'qligi nafaqat super-Egoning nuqsoni haqida, balki boshqa odamlarga odatiy o'zaro mehribonlikning yetishmasligi haqida ham xabar beradi. Antijtimoiy shaxslar uchun boshqa odamlarning qadriyatlari ularning foydaliligigacha qisqartiriladi, ko'pincha bu keyingilarning yaqqol yoki ixtiyorsiz roziligi bilan «zatrehino» ga to'qnashishida aniqlanadi. Sotsiopatik odamlar agar esa eshituvchida kuch va taassurot uyg'otsa, o'zlarining g'alabalari, nayrang yoki yolqonlari bilan maqtanadilar. qonun xizmatchilarini jinoyatchilarning qotillikni osongina tan olishlari va ularning fikricha, zaiflik belgisi sifatida baholanuvchi kichik harakatlarni yashirgan holda u haqida daxshatli tafsilotlarigacha sokin so'zlab berishlari hayratga solishdan to'xtamaydi. Delinkventlar o'z axloqlari tufayli noqulaylikdan azoblanmasliklari fakti ularga ijtimoiy va psixoterapevtik ta'sirni murakkablashtiruvchi asosiy sabablardan birini tashkil etadi. Shunday qilib, sotsiopatik shaxsning o'z-o'zini boshqarishidagi asosiy mexanizmlar ichki zo'riqish va salbiy tuyg'ularning tashqaridan o'yinni tugatish hisoblanadi. Bunda shunday odamlarda harakatga lahzalik uyg'onish tug'iladi. Ular, shuningdek, o'z shaxsiy impulslari ustidan nazorat orqali o'z-o'zini hurmatlashni ko'tarishga ega emaslar. Sotsiopatlarni ko'pincha yetarlicha xavotirga tushmaydiganlar sifatida ko'rib chiqadilar. N.Mak-Vilyamy bu holatni lahzalik tashqaridan o'yinni tugatishning "zaif" tuyg'ularni tan olishdan bosh tortish bilan uyg'unligi deb tushuntiradi. Bu shuni anglatadiki, agar sotsiopat xavotirni his qilsa-da, u buni shunchalik tez o'yinni tugatadi, atrofdagilar hatto sezishga ham ulgurmaydilar. Antijtimoiy yo'nalganlikning shakllanish mexanizmlari mutlaqo tushunarsiz. Go'daklarning tug'ilishidanoq temperament bo'yicha farqlanishi isbotlangan. Bu holda sotsiopatning konstitutsional zamini bo'lib, masalan katta bazal tajovuz yoki asab tizimining pasaygan reaktivligi (qo'zg'alishning ancha yuqori ostonasi)

chiqishi mumkin. qaqiqatan, o'zini bardam va yaxshi sezishi uchun sotsiopat keskin, ancha vstraxivayuyhem tajribaga muqtoj. Bunday odamlarning doimiy ravishda o'tkir hissiyotlarga intilishi, ularning pedagogik ta'sirni anglash va ijtimoiy-maqbul axloqqa o'rganishga bo'lgan past qobiliyati, ularning boshqa odamlar uchun oddiy bo'lgan narsalar - musiqa, tabiat, yaxshi ishdan qoniqish olishga imkonsizliklarini alohida konstitutsiya tushuntirishi mumkin. Tuqma gipyerfaol, talabchan yoki parishonxotir bolaga otalik figurasining ishtirok odatdagidan kora ko'proq aqamiyatli. Ota-onasinikidan ko'proq enyergiyaga ega bo'lgan bola boshqa odamlarning ehtiyojini inobatga olmaslik, atrofdagilar xulq ini uddaburro boshqargan qolda nimani istasa shuni qilishni o'zlashtirishi mumkin. Bunday bolalarga nisbatan ota-onalar tomonidan quyidagilar xarakterlidir: noturg'unlik, intizom, erkalatishning yo'qligi, hissiy tushunmaslik, ekspluatatsiya va ba'zida shafqatsizlik. Antiijtimoiy odamlar bolaligi ko'pincha nazoratsizlik, xafv-xatarga to'lalilik va xaos (qattiqqo'l intizom va o'ta meqribonlikning xaotik qorishuvchi; zaif ona va tutaquvchan sadist ota; oilada piyonistalik va giyohvandlik; oilaviy ajralishlar) bilan farqlanadi. Bunday noturg'un va xavf soluvchi sharoitlarda bola rivojlanishning zaruriy lahzasida himoyalanganlik tuyg'usini olmaydi, bu esa uning qolgan hayotini o'zining buyukligini tasdiqlashni izlash uchun sarflashga itaradi. Antiijtimoiy shaxslar oilasi uchun umuman olganda tushunish va o'z tuyg'ulari (aleksitimiya ko'rinishi) ni gapirish xos emas. Bizning ko'pchiligimiz o'z shaxsimizni ifodalash uchun so'zdan foydalansak, sotsiopatik shaxslar ularni manipulyatsiya uchun qo'llaydilar. Ota-onalar bolaning hissiy ehtiyojlariga javob qaytarishga qodir emaslar. Ular pedagoglar yoki kimdir ularning bolalari axloqini cheklasa, vaziyatga e'tiroz bilan reaksiya qilib, o'sha shaxslarga nisbatan beixtiyor bo'ysunmaslik va nafratni namoyon etadilar. Umuman olganda ota- onalar bolaga kuchni namoyish qilishga chuqur kirishib ketganlar, sotsiopat esa o'z ota-onasining muhabbati va g'ururini boshdan kechirish orqali me'yoriy yo'l bilan o'z-o'zini hurmatlashga erishishda jiddiy qiyinchiliklarga ega bo'ladi. Birmuncha destruktiv, kriminal psixopatlar tarixida oilaningizchil, muhabbatli, muhofazalovchi ta'sirini topish deyarli mumkin emas.

Z.Freyd ko'rsatishicha: «E'tiborning eng muhim va eng dastlabki manbasi sevgining ishonchliligi hisoblanadi». Antiiijtimoiy individ, ehtimol, shunchaki me'yoriy darajada mehribonlik va o'zaro muhabbatni hech qachon his qilmagan. U o'ziga g'amxo'rlik qiluvchi bilan o'xshash bo'lmagan. Buning o'rniga yovvoyi kabi his qilinadigan “begona self-ob'yekt bilan” ehtimol o'xshash bo'lgandir. Shaxsning o'z antiiijtimoiy buzilishi dastavval super-Egoning og'ir patologiyasi bilan xarakterlanadi. Bu aybdorlik va afsuslanishni his qilishga qodir bo'lmaslik; hissiy ko'ngil qo'yish (hatto hayvonlar) ga qobiliyatsizlik; odamlarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan munosabat; yolg'onchilik va nosamimiylik; mulohazalar sustligi va hayotiy tajribadan o'rganishga noqodirlik; hayotiy rejaga rioya qilishga qobiliyatsizlik. Bir holatda bunday axloq faol- tajovuzkor (yovuz-sadistik), boshqalarida - passiv-parazitlik (ekspluatatsiya qiluvchi) shakliga ega bo'lishi mumkin. Agar shaxsan antiiijtimoiy buzilish aniqlanmasa, yomon sifatli nartsissizm deb nomlanishiga o'rin bor. U shaxsning tipik nartsissik buzilishida (buyuklik, Menning afzalligi), xarakterologik ildizli tajovuzda (boshqalarga sadistik yoki o'ziga yo'naltirilgan tajovuz) paranoidal tendentsiya va o'zining haqligiga ishonchda namoyon bo'ladi. Antiiijtimoiy shaxsdan farqli ravishda yovuz sifatli nartsissizmda mehribonlik va boshqa odamlar ishtiroki potentsiali yoki aybdorlik tuyg'usi saqlanadi. Bunday odamlar boshqalardagi axloqiy e'tiqodni tushunadilar, o'z o'tmishlariga real munosabatga egadirlar va kelajakni rejalashtira oladilar. Keyinroq, antiiijtimoiy axloq (asosan passiv-parazitik tip) shaxsning uzoq muddatli chuqur ko'ngil qo'yishga layoqatsizlik bilan shunchaki nartsissik buzilishi tuzilmasida uchrashi mumkin. U jinsiy addikiya shaklida, mas'uliyatsizlik; boshqalarni hissiy yoki moliyaviy ekspluatatsiya qilishda korinishi mumkin. Shaxsning asabiy buzilishi holatida antiiijtimoiy axloq ongsiz aybdorlik tuyg'usida sodir bo'ladi, ko'pincha bu shaxsiy drama sifatida ko'rinishi mumkin. Masalan, odam ishxonada fosh bo'lib, bo'shatilishidan qo'rqqanidan mayda predmetlarni o'g'irlyadi.

Antiiijtimoiy axloqni simptomatik asabiylikning qismi sifatida o'smir isyonkorligining, psixik nizolarning antiiijtimoiy axloqqa o'tkazishni



yengillashtiruvchi atrofdagilarning ta'siri ostida moslashuvning buzilishi shaklida ko'rib chiqish mumkin.

Antijamoatchilik axloq muammosi nafaqat abstrakt ijtimoiy ko'rinish sifatida mavjud. Kundalik hayot har birimizning oldimizga sodda bo'lmagan vazifalarni qo'yadi: kriminogensharoitning ta'siriga tushmaslik, qo'rquvdan qochish, o'zi va o'z oilasini himoya qilish, bolalarda qonunga bo'ysunuvchanlikni tarbiyalash, odamlarga (qonunni buzish yo'lida turgan) jamiyatga qaytishda yordamlashish. qo'yilgan vazifalar davlat va uning fuqarolari tomonidan ulkan kuchni talab qiladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida jinoyatchilik muammosini hal qilish shaxsning og'ishgan xulqi kabi qonunga qarshi axloqni jiddiy ilmiy fikrlash bilan zich bog'liqdir.

#### **Nazorat savollari va vazifalar**

1. Shaxsning qonunga zid axloqi bilan bog'liq asosiy tushunchalarni ochib bering.
2. Delinkvent axloq va qonunbuzarlar tipining asosiy shakllarini sanab bering.
3. Delinkvent axloqning ichki va tashki sharoitlarini sanang.

### **7-Mavzu: Tobe axloq**

#### **Reja:**

1. Shaxs tobe axloqining tavsifnomasi.
2. Shaxs Tobe axloqining omillari.
3. Tobe axloqning tavsifnomasi.
4. Shaxs muxtoj axloqining omillari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *addiktiv, gambling, marginal axloq, Kontseptual modullar, Submadaniyat.*

### **Shaxs tobe axloqining tavsifnomasi.**

Tobelik atamasi ostida keng ma'noda "kingadir yoki lazzat olish yoxud moslashish maqsadida nimagadir suyanishga intilish" tushuniladi. Shartli ravishda me'yoriy va ota bog'lanib qolgan tobelik haqida gapirish mumkin. Barcha odamlar havo, suv, ovqat kabi hayotiy muhim ob'yektlarga "me'yoriy" tobelikni his qiladilar. Ko'pchilik odamlar ota-onalari, do'stlari, turmush o'rtoqlariga sog'lom bog'lanib qolishni sezadilar. Ba'zi hollarda tobelikka me'yoriy munosabatning buzilishi kuzatiladi. Masalan, shaxsning autik, shizoid, antiijtimoiy buzilishi boshqa odamlarga fojiali tarzda yetarlicha ko'ngil qo'ymaslik oqibatida yuzaga keladi. Tobelikka moyillikning yuqori darajasi, aksincha, muammoli simbiotik munosabat yoki tobe axloqni tug'diradi. Kelgusida "bog'lanib qolish" atamasidan foydalanganda biz nimagadir o'ta bog'lanib qolishni nazarda tutamiz. Shunday qilib, tobe axloq, shaxs tomonidan nimanidir yoki kimnidir suiiste'mol qilish bilan zich bog'liq bo'lganiday, uning ehtiyojlarini buzilishi bilan bog'liq. Maxsus adabiyotlarda ko'rib chiqilayotgan reallikning yana bir nomi qo'llanadi - addiktiv axloq. Ingliz tilidan tarjima qilganda addiction - moyillik, halokatli odat. Agar bu tushunchaning tarixiy ildiziga murojaat qilsak, unda lotincha addictus - qarzi tufayli bog'langan shaxs (qarzi uchun qullikka hukm qilingan). Boshqacha aytganda, bu odam qandaydir yengib bo'lmas hukmronlikdan chuqur qullik bog'lanib qolishga tushgan. "Addiktiv axloq" atamasining ba'zi afzalligi uning baynalminal transkriptsiyada, shuningdek, "addikta" yoki "addiktiv shaxs" kabi o'xshash odamlar bilan shaxsning o'xshashlik imkoniyatidadir. Bog'lanib qolgan (addiktiv) axloq shaxs og'ishgan axloqining turi sifatida, o'z navbatida, addiksiya ob'yekti bo'yicha ayniqsa, differentsiyalanadigan ko'plab turchalarga ega. Nazariy jihatdan (ma'lum bir sharoitlarda) bu har qanday ob'yekt yoki faollik shakllari bo'lishi mumkin - kimyoviy moddalar, pul, ish, o'yinlar, jismoniy mashqlar yoki jinsiy aloqa. Real hayotda tobelikning shunday ob'ekt tarqalgan: 1) psixofaol (qonuniy va noqonuniy giyohvand) moddalar; 2) spirtli ichimliklar (ko'pchilik tasniflarda birinchi guruhchaga taalluqli); 3) taom; 4) o'yinlar; 5) jinsiy aloqa; 6) din va diniy ibodatlar.

Sanab o'tilgan ob'ektlarga muvofiq tobe axloqning quyidagi shakllari ajratiladi:

- kimyoviy bog'liqlik (chekish, toksikomaniya, giyohga muxtojlik, dorilarga muxtojlik, ichkilikka bog'liqlik);
- ovqatlanish axloqining buzilishi (ko'p yeyish, ochlik, taomdan voz kechish);
- gembling - o'yinga tobelik (kompyuterga bog'lanib qolish, azart o'yinlar);
- jinsiy addiksiyalar (zoofiliya, fetishizm, pigmalionizm, transv'estizm, eksbitsionizm, vuayyerizm, nekrofilia, sadomazoxizm (glossariyga qarang));
- diniy destruktiv axloq (diniy fanatlik, sektaga tortilish).

hayot o'zgarishi bo'yicha odamlarda tobe axloqning yangi shakllari paydo bo'ladi, masalan, bugungi kunda kompyuterga bog'liqlik juda tez tarqalmoqda. Ayni shu damda ba'zi shakllar og'ishganlik yorliqini yo'qotmoqda. Bizning nazarimizda, zamonaviy ijtimoiy vaziyatda gomoseksuallikni og'ishganlikka tegishli deyish kerak emas, garchi, shubhasiz, u marginal axloq darajasida qoladi (me'yorning oxirgi chegarasini egallovchi va odamlarda qabul qilmaslikni uyg'otgan). Tobe axloqqa faollikning real zarar keltirmaydigan kundalik shaklini, masalan, kofe ichish yoki shirinlik yeyish odatini qo'shib qo'yishdan saqlanish lozim. Modomiki, biz faqat og'ishgan xulq shakllarini ko'rib chiqarkanmiz, axloqning og'ishganlikning barcha umumiy belgilariga javob berishini diqqat bilan kuzatish maqsadga muvofiqdir (1-bo'limga qarang). 1) Masalan, istalgan jinsiy axloq me'yor chegarasida joylashadi, agar u: 1) o'zaro kelishuvga asoslansa; 2) voyaga yetmagan bolalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lmasa; 3) tirik odamga yo'naltirilgan; 4) og'ishganlikning umumiy belgilariga javob bermaydi. Unda jinsiy axloqning barcha turlari o'qda joylashishi mumkin: Qonun bilan ta'qiqlangan jinoiy jinsiy harakatlar (jinsiy zo'ravonlik, fohishabozlik, bolalardan foydalanish, yomon yo'lga kirish); Jinsiy deviatziya (hayvonlar bilan jinsiy aloqa, sadomazoxizm, fetish- seks va h.k.); Marginal axloq

(promiskuitet, nudizm, gomoseksualizm); umumqabul qilingan jinsiy axloq (katta odamlarning o'zaro xohish bo'yicha geterojinsiy axloqi). Demak, muqtoj (addiktiv) axloq - bu nimanidir iste'mol qilish yoki kimnidir o'z-o'zini boshqarish yoki moslashuv maqsadida bog'lanuvchi shaxs og'ishgan xulqining shakllaridan biri.

Addiktiv axloq og'irligining darajasi turlicha - amaliy me'yoriy axloqdan aniq ko'rinib turgan somatik va psixik patologiya bilan birga boruvchi biologik bog'lanib qolishning og'ir shakligacha bo'lishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda ba'zi mualliflar bog'lanib qolish darajasiga yetmaydigan va fatal xavf tug'dirmaydigan, masalan, ko'p ovqat yeyish yoki chekish kabi addiktiv axloq va shunchaki zararli odatlarni farqlaydilar. O'z navbatida, addiktiv axloqning alohida turchalari turli-tuman ko'rinishlar kontinuumini aks ettiradi. Masalan, mutaxassislarning tan olishicha, piyonistalik (ichkilikka boqlanib qolishning klinik shakli) monolit hisoblanmaydi, qaqiqatan ham "piyonistalar" qaqida gapirilsa to'qriroq bo'ladi. Shaxsning bog'lanib qolish ob'yektini tanlashi qisman uning inson organizmiga o'ziga xos ta'siri bilan aniqlanadi. qoidadagiday, odamlar addiksiyaning u yoki bu ob'yektiga individual moyillik bo'yicha farqlanadilar. Ichkilikning alohida ommaviyligi uning keng ta'sir spektriga ega ekanligidir - u birday muvaffaqiyat bilan qo'zg'atish, qizishish, bo'shashish, yalliq'lanish kasalliklarini davolash, o'ziga ishonch va erkinligi uchun foydalaniladi. Tobe axloqning turlicha shakllari uyq'unlashish yoki bir biriga o'tish tendentsiyasiga ega, bu esa uning ishlashidagi mexanizmlarning umumlashganini isbotlaydi.

Masalan, ko'p yillik stajga ega bo'lgan kashanda sigaryetadan voz kechgach, doimiy ravishda ovqatlanishga istakni his qilishi mumkin. Geroinga muhtoj bo'lib qolgan odam ancha yengil giyohvandlar yoki ichkilikni iste'mol qilish yordamida remissiyani qo'llab-quvvatlashga intiladi. Albatta, tashqi farq bo'lib ko'rinishiga qaramay, axloqning ko'rib chiqilayotgan shakllari printsipial o'xshash psixologik mexanizmlarga ega. Shu bilan bog'liq qolda addiktiv axloqning umumi belgilari ajratiladi.

Dastavval shaxsning muhtoj axloqi uning turg'un psixojismoniy holatning o'zgarishiga intilishida namoyon bo'ladi. Ushbu mayl inson tomonidan impulsiv-

kategoriyali, yengib bo'lmas, to'yinmaydigan sifatda boshdan kechirilgandi. Tashqaridan bu go'yoki o'z o'zi bilan kurash, ko'pincha esa - o'z-o'zini nazorat qilishni yo'qotish bo'lib ko'rinadi. Addiktiv axloq to'satdan paydo bo'lmaydi, u o'zida addiksiya (tobe bo'lib qolish) ning uzluksiz shakllanish va rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Addiksiya boshlanish (ko'pincha beozor), individual oqim (tobe bo'lib qolishning kuchayishi bilan) va natijaga ega. Axloq motivatsiyasi bog'lanib qolishning turli bosqichlarida turlichadir. Masalan, giyohvand moddalarga tobe bo'lib qolishning shakllanish jarayoni quyidagi bosqichlarga ega bo'lishi mumkin:

1. Dastlab yoshlar submadaniyati ta'siri ostida epizodik iste'mol, ijobiy hissiyotlar va saqlangan nazorat fonida giyohvand moddalar bilan tanishuv sodir bo'ladi.

2. Sekin-asta nisbiy saqlangan nazorat bilan iste'molning turg'un individual ritmi shakllanadi. Bu bosqich ko'pincha qachonki ob'yekt haqiqatan uzoq davom etmaydigan muddatga psixojismoniy holatni yaxshilashga yordam bersa, psixologik bog'liqlik bosqichi deb ataladi. Syekin-asta giyohvand moddalarning kattaroq dozalariga o'rganish sodir bo'ladi, shu bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy-psixologik muammolar yiq'iladi va axloqning moslashmagan stereotipi kuchayadi.

3. Keyingi bosqich uchun eng yuqori darajani iste'mol qilganda ritmning tezlashishi xarakterlidir, bekor qilish sindromi va nazoratning tola yo'qotilishi, intoksikatsiya belgisi bilan jismoniy boq'lanib qolish belgilari paydo bo'ladi. Giyohvand moddalar lazzat olib kelishdan to'xtaydi, u azob va oq'riqlardan qutulish uchun iste'mol qilinadi. Bularning barchasi shaxsning qopol o'zgarishi (psixik buzilishgacha) va aniq ko'rinib turgan ijtimoiy moslashmaganlik bilan birga boradi. Ancha kech bosqichlarda giyohvand moddalarni iste'mol qilishda dozasi kamaytiriladi, iste'mol qilish endi holatni tiklashga olib kelmaydi.

4. Natijada - ijtimoiy yolqizlanish va fojia (dozani oshirish; suitsid; OITS; hayot bilan birga bo'lolmaydigan kasallik).

Bosqichning davomlilikigi va oqib o'tish xarakteri ob'yektning xususiyatiga (masalan, giyohvand moddalar ko' rinishida) va addiktning individual xislati

(masalan, yosh, ijtimoiy aloqalar, intellekt, sublimatsiyaga qobiliyat) ga bog'liq. Muxtoj axloqning yana bir xarakterli xususiyati uning siklliligi hisoblanadi. Bitta sikl fazasini sanaymiz:

- addiktiv axloqqa ichki tayyorlikning mavjudligi;
- istak va zo'riqishning kuchayishi;
- addiksiya ob'yektini kutish va faol izlash;
- ob'yektni olish va o'ziga xos kechinmalarga erishish;
- bo'shashish;
- remissiya fazasi (nisbiy sokinlik).

Keyin sikl individual chastota va ifodalanganligi bilan takrorlanadi. Masalan, dlya odnogo addiktning bittasi uchun sikl bir oy, boshqasi uchun - bir kun davom etishi mumkin. Axloq kasallik yoki o'limga olib kelishi shart emas (masalan, piyonistalik yoki giyohvandlik hollaridagi kabi), biroq qonunan shaxsiy o'zgarishlar va ijtimoiy moslashmaganlikni uyq'otadi. S.P.Korolenko va T.A.Donskiy addiksiyaning shakllanishi bilan birga boruvchi ukazo'vayut tipik ijtimoiy-psixologik o'zgarishlarni ko'rsatadi. Addiktiv ko'rsatmaning shakllanishiga- hayotga addiktiv munosabatni uyq'otuvchi kognitiv, hissiy va axloqiy xususiyatlarning yiq'indisi birinchi darajali ahamiyatga ega. Addiktiv ko'rsatma addiksiya ob'yektiga yuqori baholi hissiy munosabatning (masalan, sigareta, giyohvand moddalarning doimiy zaxirasi bo'lishi haqidagi xavotir) paydo bo'lishida ifodalanadi. Ob'yekt toq'risidagi fikrlar va suhbatlar ustunlik qilishni boshlaydi. Ratsionalizatsiyalash myexanizmi kuchayadi - addiksiyani intellektual oqlash ("hamma chekadi", "stressni ichkiliksiz yengib bolmaydi", "kim ichsa, uni kasallik yengmaydi"). Bunda magik tafakkur (o'z buyukligi yoki giyohvand moddalarning qudratliligi qaqidagi fantaziyalar ko'rinishida) va "istak bo'yicha tafakkur" dyeb nomlanuvchi shakllanadi, buning oqibatida addiktiv axloq va addiktiv muhitning salbiy natijalariga tanqid pasayadi ("hammasi joyida"; "men o'zimni nazorat qila olaman"; "barcha giyohvandlar - yaxshi odamlar"). Parallel tarzda "boshqa" hamma narsaga, shu jumladan, addiktga tibbiy- ijtimoiy yordam ko'rsatishga harakat qiladigan mutaxassislarga ham ishonchsizlik rivojlanadi ("ular

Suitsidal axloq turlarini tasniflashdagi farq ko'rib chiqilayotgan ryeallikning turli-tuman shakllarini aks ettiradi. A.G.Ambruchuv ajratadi: o'z-o'zini o'ldirish - qaqiqiy suitsidlar, o'z-o'zini o'ldirishga urinish esa - tugallanmagan suitsiddir. Brukbenk suitsid haqida maqsadli o'z-o'zini o'ldirish kabi, parasuitsid haqida esa o'lim oqibatisiz maqsadli o'z-o'ziga zarar yetkazishday gapiradi. A.Ye.Lichko fikriga ko'ra, o'smirlardagi suitsidal axloq namoyishkorona, bo'lsaiv va haqiqiy bo'ladi. Ye. Shir quyidagicha farqlaydi: qasddan qilingan suitsidal axloq, yengib bo'lmas, ambivalentli, impulsiv va namoyishkorona E. Dyurkgeym o'z-o'zini o'ldirishni shaxsning ijtimoiy xususiyatlariga bog'liq holda k'elishmovchilik turlarga bo'ldi. «Anomik» o'z-o'zini o'ldirish shaxs va uning atrofidagi muhit o'rtasida og'ir natijasida sodir bo'ladi. «Fatalistik» o'z-o'zini o'ldirish shaxsiy tragediyalar g'olarida o'ringa ega, masalan, yaqinlarining o'limi, ishga layoqatlilikni yo'qotish, baxtsiz sevgi. «Altruistik» o'z-o'zini o'ldirish boshqa odamlar yoki yuqori maqsadlar uchun sodir etiladi. Nihoyat, «egoistik» o'z-o'zini o'ldirish notinch vaziyatlar - nizolar, nomaqbul talablardan ketish hisoblanadi.

V.A.Tixonenko o'lish istagining darajasini inobatga olgan qolda suitsidal urinishlarni axloqning bir necha bog'liq turlari bilan to'ldirdi. Birinchidan, o'lish maqsadini namoyish qiluvchi o'z maqsadiga ega bo'lgan namoyishkorona-shantajli suitsidal axloqni ajratadi. Ikkinchidan, muallif faqat u yoki bu organni zararlash bilan cheklanuvchi va o'lim haqidagi tasavvurlarga umuman yo'naltirilmagan o'z-o'zini zararlari yoki a'zolarga zarar yetkazish haqida gapiradi. Uchinchidan, bunday axloq shunchaki baxtsiz hodisaning natijasi bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, suitsidal axloq tashhisi o'limni istash darajasini aniq baholashga asoslanmog'i zarur. Masalan, yelkaoldini piska bilan o'zi kesishini quyidagi holatlarga kiritish mumkin:

a) agar oxirgi maqsad qon yo'qotishdan o'lish bo'lsa, haqiqiy suitsidal urinish qatoriga;

b) agar maqsad atrofdagilarga o'lish maqsadini namoyish qilish bo'lgan bo'lsa, namoyishkorona-shantajli suiqasd razryadiga;

v) agar maqsad jismoniy og'riqni his qilish yoki giyohiy kayf holatini qon yo'qotish bilan kuchaytirish istagi bilan cheklansa, o'z-o'ziga zarar yetkazish;

g) agar, masalan, o'z-o'zini kesish bema'ni fikr bo'yicha "qondan shaytonni quvib chiqarish" maqsadini qo'ygan bo'lsa baxtsiz hodisaga. Har bir hodisaning navbatdagi noyobligiga qaramay o'z-o'zini o'ldirish qator umumiy tavsifnomaga ega. Suitsidal axloq, qoidadagiday, hayotiy vaziyatlar va yetakchi ehtiyojlar frustratsiyasining stressogenli xarakteri bilan birga boradi. Suitsident uchun quyidagilar xarakterli: azobga dosh bera olmaslik, vaziyatdan chiqishni izlash, vaziyatning umidsizligi va shaxsiy zaiflikni boshdan kechirish, shaxsning suitsidga ambivalent munosabati, anglangan ryeallikni noto'g'ri talqin qilish - muammoda qotib qolganlik, "tonnel ko'rishi". Bularning barchasi tanlovni "suitsid"ga qochib borishgacha toraytiradi. Bunda suitsidal axloq, qoidadagiday, hayotning umumiy stili va shaxsiy ko'rsatmalarga mos keladi.

### **Suitsidal axloqning yosh xususiyatlari**

Yosh suitsidal axloq xususiyatlariga ahamiyatli tarzda ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hayotning yoshlik yoki qarilikning boshlanishi kabi krizis davri baland suitsidal tayyorgarlik bilan xarakterlanadi. Bola yoshidagi suitsidal axloq vaziyatli-shaxsiy reaksiya xarakterini oladi, ya'ni o'lish istagining o'zi bilan emas, balki stressli vaziyatlar yoki jazodan qochishga urinish bilan bog'liq. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, 13 yoshgacha bo'lgan bolalardagi suitsidal axloq -kam uchraydigan ko'rinish, va faqat 14-15 yoshga yetgandagina suitsidal faollik keskin o'sadi, 16-19 yoshda eng yuqori darajaga yetadi. A.G.Ambrumova tadqiqotlarining ma'lumoti bo'yicha suitsidal axloqli 770 bola va o'smir bola

tekshirilganda, ularning eng yoshi 7 yoshda bo'lgan. Ko'pchiligini qizlar tashkil etgan (80,8 %). qizlarda zaharlanish, o'g'il bolalarda esa yo'g'on tomirlarni qirqish va o'z-o'zini osish bo'lgan. Ko'pchilik mualliflarning hisoblashicha, boladagi o'lim kontsepsiyasi faqat 11-14 yoshga yetganidagina babbarobar yaqinlashadi, shundan keyin bola o'limning realligi va qaytarib bo'lmasligini chindan anglaydi. Kichik bola yashash va o'lish o'rtasidagi farqni yaxshi tushunmaganidan o'limdan ko'ra yaxshiroq fantaziya qiladi. Va faqat o'smir yoshiga yaqinlashgach garchi o'zi uchun kam ehtimolli bo'lib ko'rinsa, rad etsa-da, o'limni real ko'rinish sifatida anglaydi. Albatta, “suitsid” va “suitsidal axloq” atamasi qat'iy ma'noda ilk yoshdagilar uchun kam muvofiq keladi. Bolalar o'z axloqi uchun tushuntiradigan sabablar jiddiy emas va bir lahzalik bo'lib tuyulishi mumkin. Bolalar uchun umuman olganda ta'sirchanlik, ishonuvchanlik, o'z axloqiga past tanqid, kayfiyatning o'zgarishi, impulsivlik, yorqin his qilish va boshdan kechirish layoqati xarakterlidir. Bola yoshida o'z-o'zini o'ldirish qazab, qo'rquv, o'zi yoki boshqalarni jazolash bilan uyg'onadi. Ko'pincha suitsidal axloq boshqa axloqiy muammolar bilan, masalan, maktabga qatnamaslik yoki nizolar bilan uyg'unlashadi.

Suitsidal axloqning tug'ilishiga, shuningdek, xavotirli va ruhiy azoblanish holati ham ko'maklashadi. Bolalarda ruhiy azoblanish holatining belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin: qayg'u, bolalarga xos bo'lmagan kuchsizlik, uyqu va ishtahaning buzilishi, og'irlikning pasayishi va somatik arzlilar, omadsizlikdan qo'rqish va o'qishga qiziqishning susayishi, to'laqonli emaslik va inkor etilganlik tuyg'usi, o'z-o'zini o'ta tanqid qilish, odamovilik, xavotirlilik, tajovuzkorlik va frustratsiyaga past chidamlilik. Biz o'smir yoshida suitsidal axloqning birmuncha boshqacha kartinasini kuzatamiz. O'smirlar orasida o'z-o'zini o'ldirishga urinish bolalarga qaraganda ahamiyatli tarzda ko'p uchraydi, shu bilan birga ularning kamchiligina o'z maqsadlariga erishadilar. Tugallangan suitsidlarning soni barcha suitsidal harakatlarning 1 foizidan oshmaydi. Bu yoshda suitsidal axloq namoyishkorona, shu jumladan, shantaj xarakteriga ega. A.Ye.Lichkoning ta'kidlashicha, faqat 10 foiz o'smirlardagina o'z-o'zini o'ldirishning haqiqiy istagi

mavjud, qolgan 90 foizida - bu yordam haqidagi qichqiriqdir. BN.A1ma.zov 14-18 yoshdagi o'zini atayin kesgan o'smirlar guruhini tekshirib, belgiladiki, faqat 4 foizigina o'z-o'zini kesayotgan lahzasida suitsidal mazmundagi fikrga ega bo'lgan. Ko'pgina ekstsesslar tengdoshlari bilan urushib qolganidan keyin, shuningdek, "birodarlashuv" an'anasi yoki sodir etilgan. A.Ye.Lichko, A.A.Aleksandrov, 14-18 yoshdagi o'smirlar guruhida tekshiruv o'tkazib, 49 foizida suitsidal harakat o'tkir bo'lsaiv reaksiya fonida sodir etilgan degan xulosaga keldilar. O'smirlar guruhida, shuningdek, psixik buzilishlar roli, masalan, ruhiy azoblanish holati birmuncha o'sgan. Ruhiy azoblanishning "bolalik" belgisiga zerikish va charchash tuyg'usi, mayda narsalarga diqqatni jamlash, isyon va bo'ysunmaslikka moyillik, ichkilik va giyohlarni suiiste'mol qilish qo'shiladi. Umuman olganda o'smirlarning suitsidal axloqiga tengdoshlari va ota- onalari bilan shaxslararo munosabatlarning ahamiyatli ta'siri haqida gapirish mumkin. L.Ya.Jezlovaning fikriga kora, pubertat yosh oldidan "oilaviy", pubertat yoshida esa "jinsiy" va "muqabatli" muammolar ustunlik qiladi. Boshqa, afsuski, nisbatan kam o'rganilgan o'ta muqim omil - o'smir submadaniyaning ta'siridir. OAV ning 1999 yilda «Ivanushki interneshnl» yoshlarning pop-guruhining sardori Igorya Sorinning o'z-o'zini o'ldirganligi haqidagi xabariga javoban bir necha o'smir qizlar o'zlarining sevimli shaxslaridan namuna olib, unga ergashganlar. 14 yoshdan keyin suitsidal axloq qizlarda qam, o'qil bolalarda ham taxminan bir xil namoyon bo'ladi. O'smir yoshida suitsidal axloq ko'pincha jinsiy- shaxsiy munosabatlar, masalan, baxtsiz muhabbat bilan bog'liq bo'ladi. Yoshlar guruhi ruhiy azoblanish holatiga duchor bo'ladi. Ruhiy azoblanish holatining darajasi ko'pincha suitsidal xavfning jiddiyligining ko'rsatkichidir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tugallangan o'z-o'zini o'ldirishning birmuncha miqdori 40 dan 65 yoshgacha oraliqda sodir etiladi. o'z-o'zini o'ldirish darajasi erkaklar orasida yuqori. Yetuk yoshning tipik stressorlari ajrashish vaziyati, yaqin odamini yo'qotish, ishdan bo'shash, moliyaviy krizis, oiladagi o'lim hisoblanadi. Keksa yosh yolg'izlik, professional faoliyatning yakunlanishi, imkoniyatlarning yo'qolishi, oila va do'stlardan ayrilish va h.k. kabi jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolar bilan to'qnashadi. Keksa odamlardagi ruhiy



azoblanish holati charchaganlik, fatallik va umidsizlik bilan xarakterlanadi. Umidsizlik o'lishning mustaqkam istagida namoyon bo'ladi. Keksa yosh qator sabablar kuchida suitsidal axloqqa birmuncha muhtalo bo'lganlardan biri hisoblanadi.

### **Suitsidlarning shakllanish kontseptsiyasi**

Suitsidal axloqni tushuntiruvchi asosiy kontseptsiyalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: sotsiologik, psixopatologik va ijtimoiy-psixologik. Sotsiologik yondoshuv doirasida suitsidal axloq va ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi aloqa deklaratsiyalanadi. Bunga o'xshash qarashlar asosida E.Dyurkgeymning “anomiya” - jamiyatning qadriyatli- me'yoriy tizimidagi buzilish haqidagi ta'lim yotadi. Dyurkgeym ta'kidlaydiki, jamiyatda o'z-o'zini o'ldirish miqdori dunyo (qadriyatlar axloqiy me'yorlar) ni individual ko rishni belgilovchi ijtimoiy hayotning alohida faktlari kabi “jamoaviy tasavvurlar” aniqlaydi. Masalan, jamoaviy aloqa, jamiyatning jipslashganligi bu ma'noda o'z-o'zini o'ldirishni to'xtatadi. qachonki jamiyatning jipsligi zaiflashsa, shaxs ijtimoiy qayotdan chekinadi va umumiy farovonlikka o'zining shaxsiy maqsadlarini qo'yishga intiladi, bu esa hayotdan ketish qaroriga sabab bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini o'ldirishga, qisman siyosiy vaziyat, shu jumladan, urushlar ham ta'sir ko'rsatadi. 1866 yili Avstriya va Italiya ortasida urush kechganida har ikki davlatda o'z-o'zini o'ldirish miqdori 14 foizga pasaygan. Xuddi shun tendentsiya Ikkinchi Jaqon urushida ham kuzatilgan. Aksincha, tinch vaqtda armiya o'z-o'zini o'ldirish uchun farovon ijtimoiy muhit hisoblanadi, ehtimol, o'z manfaatidan kechish va javobgarsiz atmosferasi kuchidadir. Barcha Yevropa davlatlari uchun o'z-o'zini o'ldirishga moyillik harbiylarda shu yoshdagi fuqarolarga qaraganda ahamiyatli tarzda jadaldir.

Ma'lumki, iqtisodiy krizislar o'z-o'zini o'ldirishga moyillikni kuchaytirish imkoniyatiga ega. Davlatlarning iqtisodiy holati va o'z-o'zini o'ldirish foizi o'rtasidagi nisbat umumiy qonun hisoblanadi. Masalan, bankrot bo'lish sonining to'satdan ko'tarilishi, odatda, o'z-o'zini o'ldirish sonining o'sishiga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotchilar o'z-o'zini o'ldirish ijtimoiy ko'rinish kabi jamiyatning

diniy ongini rivojlanishida muhim omil sifatida ajratadilar. E'tiqod, ayniqsa, islom, suitsidal axloq ehtimolini ahamiyatli tarzda pasaytiradi. Diniy etikada oz-ozini o'ldirish og'ir gunoh sifatida baholanadi, shuning uchun e'tiqodli odamning suitsidal axloqiga ma'naviy ta'qiq qoyadi. Xristian davlatlarida bugungi kunda oz-ozini o'ldirishga jamoatchilikning liberallashtirilgan munosabati kuzatilmoqda. Yanada ko'proq evtanaziya imkoniyati - shifokor yordamida qayotdan ixtiyoriy ketish jiddiy muhokama qilinmoqda. 2002 yili Gollandiyada (insoniyat tarixida birinchi bor) evtanaziyani boshqaruvchi qonun qabul qilingan. Oilaviy ta'sir muhim bo'lib qoladi. Oila tarixida o'z-o'zini o'ldirishning mavjudligi suitsid yuzaga kelishining xavfini oshiradi. Bundan tashqari, ota- onalarning shaxsiy xususiyatlari, masalan, ruhiy azoblanganlik suitsidal dinamika omili bo'lib chiqishi mumkin. Boshqa, psixopatologik yondoshuv suitsidni o'tkir yoki surunkali psixik buzilish sifatida ko'rib chiqadi. O'z-o'zini o'ldirishni alohida nozologik birlik - suitsidomaniyaga ajratishga urinish bo'ldi, biroq muvaffaqiyatli chiqmadi. Suitsidal axloqqa birmuncha o'xshash nuqtai nazarni chegaradagi holat kabi qarash ifodalaydi. A.Ye.Lichko yozadi: "O'smirlarda suitsidal axloq - bu asosan cheklangan chegara yonidagi psixiatriya muammosi, ya'ni xarakter aktsentuatsiyasi fonida reaktiv psixopatik va nopsixotik holatlarni o'rganish sohasidir". Muallifning kuzatishi bo'yicha, faqat 5 foizgina suitsid va urinish psixozga tushadi, aqni vaqtda psixopatiyaga 20-30 foizi kiradi, qolganlari esa o'smir krizisidir. Umuman olganda, statistik jihatdan suitsidal axloq va aniq psixik buzilish o'rtasidagi yetarlicha aloqa aniqlanmagan. Shu bilan birga, bi'zi bir patologik holat va buzilishlar uchun suitsidal axloq yuqori, masalan, o'tkir psixotik holatlar va ruhiy azoblanish holati uchun. Ruhiy azoblanish holati suitsid bilan aloqada birmuncha tez yodga olinadi, bu esa uni izchil ko'rib chiqish zaruriyatini belgilaydi. Tashhisiy ma'noda "ruhiy azoblanish holati" atamasi turlicha etiologiya va klinik ko'rinishlar bilan nozologik birlikning keng spektrida ishtirok etuvchi bo'lsaiv buzilishni bildiradi. Ruhiy azoblanish holati sub'yektiv jihatdan tushkun kayfiyat, ruhiy ezilgan, umidsizlik, zaiflik, aybdorlik sifatida boshdan kechiriladi. Kasalliklarning xalqaro tasnifini 10-ko'rib chiqishda F32 rubrikasida ruhiy

azoblanish holatini tashhis qilish uchun yetakchi sifatida somatik sindrom aytiladi. Aniq odamda ikki haftadan kam bo'lmagan muddat ichida uning uch yoki undan ortiq belgilari namoyon bo'ladi:

- odatda yoqimli bo'lgan faoliyatidan qoniqish yoki qiziqishlarning pasayishi;
- me'yorda uni chaqiruvchi faoliyat (qodisa)ga reaksiyaning yo'qligi;
- ertalablari odatdagi vaqtdan ikki (yoki undan ortiq) soat avval uyg'onish;
- tashqaridan aniq ko'rinib turgan psixomotorli tormozlanish yoki qattiq hayajon;
- ishtahaning sezilari pasayishi (ko'tarilishi);
- Og'irlikning pasayishi;
- libidoning sezilarli pasayishi;
- energiyaning susayishi;
- yuqori toliqish.

Somatikka qo'shimcha ravishda quyidagi psixologik belgilar aytiladi: o'z-o'zini past baholash; o'z-o'zini sababsiz muhokama qilish tuyg'usi; aybdorlikning haddan tashqari va noteng tuyg'usi; o'lim haqida takrorlanuvchi xayollar, suitsidal axloq; qat'iyatsizlik. Odamga jiddiy xavotir keltiradigan boshqa tez-tez uchraydigan simptom ba'zida shunchalik aniq ko'rinib, hatto organik dementsiya kabi qabul qilish mumkin bo'lgan yaqqollikning yoki tafakkur samaradorligining buzilishi hisoblanadi. Ruhiy azoblanish holati, shunday qilib, sub'yektiv yomon kayfiyatdan tashqari, aniq ko'rinib turgan somatik ko'rinish, o'z-o'zini past baholash, tafakkurning buzilishiga ega. Suitsidal axloqning psixik buzilish (ayniqsa, bo'lsaiv buzilishlar) bilan aloqasiga birday bo'lmasa-da o'rin bo'lishiga qaramay, hozirgi vaqtda ko'pchilik mualliflar suitsidal harakatni psixik kasalligi bo'lgan odamlar bir qatorda sog'lom shaxslar ham sodir etishlari mumkin. Birinchi holatda gap ko'pincha tibbiy aralashuvchi talab qiluvchi patologiyaning ko'rinishlari qaqida borishi lozim. Ikkinchi holatda esa butunlay sog'lom odamning psixik jarohat yetkazuvchi vaziyatga javoban tezda ijtimoiy-psixologik

yordam ko'rsatishni taqozo qiluvchi og'ishgan axloqi haqida so'zlash mumkin. Ijtimoiy-psixologik kontsepsiyalar suitsidal axloqni ijtimoiy-psixologik yoki individual omillar bilan tushuntiradi. Dastavval, o'z-o'zini o'ldirish hayot mazmunining yo'qolishi bilan bog'lanadi. V.Franklning ko'rsatishicha, bu bilan bog'liq ekzistentsial xavotir umidsizlik, bo'shliq va ma'nosizlik tuyg'usi, aybdorlik va muhokamalardan qo'rqish oldidan dahshat kabi boshdan kechiriladi. A.G.Ambrumova va boshqa qator tadqiqotchilar suitsidal axloqni shaxsning mikroijtimoiy nizolar sharoitida ijtimoiy-psixologik moslashmaganligi oqibati sifatida baholaydilar. Ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik organizm va muhitning nomuvofiqligi kabi turli daraja va turli shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Muallif limitatsiyalangan (nopatologik) va transformatsiyalangan (patologik) moslashmaganlikni farqlaydi. Bu shakllarning har biri partsial (qisman) va total (butunumum) bo'lishi mumkin. Ekstryemal vaziyat sharoitlarida shaxs o'zining moslashuvchan taktikasini birday qaytadan tuzadi. Individlardan birmuncha mahkamlari plastiklik va zaxira hisobiga moslashuvning avvalgi umumiy darajasini saqlab qoladi. Odamlarning boshqa guruhi darajaning vaqtinchalik pasayishi bilan xarakterlanadi, biroq bunda moslashuvning asosiy yo'nalishi sinmaydi. Bu holatda moslashmaganlik miqdoriy xarakterni oladi, u limitatsiyalangan va moslashuv jarayonining sifatli muqarrarlik chegarasidan chiqmaydi, ya'ni moslashmaganlik kasallikka olib kelmaydi, moslashuvning patologik shaklini tuqdirmaydi. qachonki ekstryemal yuklama individual muammolar (masalan, nyevroz) bilan uyg'unlashgan hollardagina buzilish ehtimoli ahamiyatli tarzda o'sadi. Bunday holatda ijtimoiy- psixologik moslashmaganlik o'z ortidan moslashuvchi jarayonning sifatli transformatsiyasi, moslashuvning patologik shakli namoyon bo'lishini ergashtirib keladi. Bu variant, A.G. Ambrumovanning fikricha, moslashish jarayonining jadalligi va plastikligini umumiy pasayishida qadriyatli-orientatsion va kommunikativ faoliyatni birmuncha ko'tarilishga muhtalo bo'lgan chegarali buzilishlar uchun xarakterlidir. Psixotik buzilish o'zida patologik reaksiya qilishning yangi sifat darajasiga o'tish bilan global moslashmaganlikni aks ettiradi. Ob'ektiv sabablar va

sub'yektiv kechinmalar bir biriga mos tushmasligi mumkin. Moslashmaganlik - suitsidning faqat ehtimoliy shartlaridan biridir. Suitsidga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik moslashmaganlikni dinamikada ko'rib chiqib, muallif ikki fazani ajratadi: predispozitsion i suitsidal. Predispozitsiya (moslashmaganlikning mavjudligi) suitsidal axloqning to'g'ridan-to'g'ri determinanti bo'lib xizmat qilmaydi. . Uning suitsidal fazaga o'tishida shaxs tomonidan boshdan kechirilgan nizolar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nizolar shaxslararo va shaxslar ichidagi xarakterni olishi mumkin. U holda ham, bu holatda ham u ikki yoki bir necha turli yo'nalishli tendensiyalardan tashkil topadi, bittasi asosiy, inson uchun ushbu daqiqada dolzarb ehtiyojdan, boshqasi esa - uni qondirishga to'sqinlikdan iborat. Nizolarni yechish u sodir bo'lgan muhit va zaxiradagi moslashuv mexanizmlari tizimining ahamiyatiga bog'liq. Shaxsning moslashmaganlik ostonasidan o'tuvchi nizolar krizisli hisoblanadi. Shunday qilib, predispozitsion moslashmaganlik va nizoli vaziyatni o'zgartirishga qodir real usullarning imkonsizligi sharoitida suitsid o'zi boshqa hamma harakatlarni almashtiradigan yagona reaksiyasi, har qanday faoliyatdan o'zini chetlatish usuli sifatida bo'lib chiqadi.

E.Shneydman suitsidni psixologik ehtiyojlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taklif qiladi. Uning nazariyasiga muvofiq suitsidal axloq ikki tayanch lahzani aniqlaydi:

- qolgan boshqa hamma narsadan kuchli bo'lgan qalb og'rig'i;
- frustratsiya holati yoki shaxsning birmuncha ahamiyatli ehtiyojiga noto'g'ri ma'no berish.

Ijtimoiy-psixologik yondoshuvlar doirasida shaxsiy xususiyatlar va suitsidal axloq o'rtasidagi aloqani o'rganuvchi ishlar ham keng taqdim etilgan. Deviatziya tipi, masalan, zo'ravonlik yoki o'z-o'zini destruksiyalash tipi shaxsning xususiyati bilan aniqlanishi haqidagi fikr tarqalgan. A. Ye.Lichko o'smir xarakterining aktsentuatsiyasi tipi va suitsidal axloq o'rtasidagi aloqani ta'kidlaydi. Xullas, suitsidal namoyishlar 50 foiz hollarda asabiy, noturg'un, gipertim tiplar bilan, suiqaqd esa sensitiv (63 foiz), sikloid (25 foiz) tiplar bilan uyg'unlashadi. Ye.I.Lichko shizoidlarning ota past suitsidal faolligini ta'kidlaydi.

V.T.Kondratyenko, aksincha, shizoid, psixastenik, sensitiv, qozg'aluvchan va epileptoid tiplar foydasiga ma'lumotlar keltiradi. Mualliflar bir fikrda qo'shilishadilar, o'smirlarning astenik, gipertim, noturg'un tiplari suiqasd va suitsidga moyil emasdir. N.V.Konanchuk, V.K.Myagyer suitsident uchun uchta asosiy xislatni ajratdilar: ehtiyojlarning yuqori zo'riqishi; Yuqori ahamiyatli munosabatlarda hissiy yaqinlikka ko'tarinki ehtiyoj; past frustratsiyali tolerantlik va to'lovlarga zaif qobiliyat. Turli mualliflardan olinagan ma'lumotlarni yig'ib, suitsidentning qandaydir umumlashgan psixologik portretini tasavvur qilish mumkin. Uning uchun o'z-o'zini past baholashdek, o'z-o'zini amalga oshirishga yuqori ehtiyoj xarakterlidir. Bu og'riqni yengishga past qobiliyatli sensitiv, empatik inson. Uni baland xavotirlilik va pessimizm, o'z-o'zini ayblash tendentsiyasi va toraygan (dixotomik) fikrlashga moyilligi farqlaydi. Iroda kuchining qiyinchiligi va muammoning yechimidan ketish tendentsiyasi ham ta'kidlanadi. Keltirilgan portret ushbu qismning ikkinchi bo'limida yoritilgan antiijtimoiy shaxs tavsifnomasiga tog'ridan-tog'ri qarama-qarshidir.

Suitsidal axloq xarakteri va determinatsiyani yorug'likka olib chiquvchi nazariyalar sharqi ushbu ko'rinishning murakkabligi, polietiologikligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, shaxs suitsidal axloqining bir necha xatar omillarini ajratish mumkin:

- suitsidning avvalgi urinishlari (ushbu odamning); suitsidning oilaviy tarixi;
- krizisli vaziyat (tuzalmaydigan kasallik, yaqin kishisining o'limi, ishsizlik va moliyaviy muammolar, ajrashish);
- oilaviy omil (ota-onalarning ruhiy azoblanish holati, bolalar jarohati, surunkali janjallar, uyg'unlashmagan tarbiya);
- hissiy buzilishlar (dastavval ruhiy azoblanish holati);
- psixik kasalliklar (piyonistalik, giyohvandlik, shizofreniya);
- ijtimoiy modellashtirish (OAV dagi suitsid namoyishi, ularning adabiy asarlardagi surati - "Verter samarasi").

Bundan tashqari, xatarning quyidagi guruhlari ajratiladi: yoshlar, keksa odamlar, jinsiy kamchilik, harbiy xizmatchilar, urush va urush nizolari veteranlari, shifokorlar va ba'zi bir boshqa kasb vakillari.

### **Suitsidal motivatsiya**

Tashqi va ichki sharoit suitsidal axloqning paydo bo'lishini osonlashtiradi, biroq uni oldindan aniqlamaydi. Suitsidni “chiqarib yuboruvchi” haqiqiy sabablar ichki motiv hisoblanadi. Ko'pincha suitsidal motivatsiya krizisli vaziyatga hissiy sado shakliga ega. Shaxs boshiga yoqiladigan tipik hodisa yaqin odamni yo'qotish, ajrashish yoki firoq hisoblanadi. Ish yoki sog'liqni yo'qotish, jinoiy jazo xavfi yoki fosh bo'lish ham suitsidal axloqning pay do bo'lishiga yordamlashadi. Ba'zida o'xshash reaksiyalar yirik muvaffaqiyatlar ketidan keladi - xizmat bo'yicha ko'tarilish, mas'uliyatning keskin oshishi, orzu qilingan maqsadga erishish va h.k.

Turli vaziyatlarda suitsidal axloqning [6] turli motivlari ta'sir ko'rsatishi mumkin: e'tiroz; o'ch; chaqiruv (e'tibor, yordam); qochish (jazo, azobdan); o'z-o'zini jazolash; rad etish (mavjudlikdan).

Masalan, o'smirlarning suitsidal urinishlarida quyidagi tilakni ajratish mumkin. Bu “Menga e'tibor qiling, men sizning yordamingizga juda muhtojman” deguvchi distress signali bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'smir boshqalarni manipulyatsiya qilishga urinishi mumkin, masalan, qizlar do'stlarini o'zlariga qaytarish uchun katta dozadagi tabletkani qabul qilishlari mumkin. Boshqa variant - boshqalarni jazolashga intilish, ehtimol, ota-onalariga “Men o'lsam, afsuslanasizlar” deyish uchundir. Yuqori kuchli uyat yoki aybdorlik tuyg'usiga reaksiya, o'ta og'riqli vaziyat bilan to'qnashishdan qochishga intilish; LSD va boshqa giyohvand moddalarning ta'siri - bularning hammasi motivatsiyalovchi omillarga misoldir.

Stressli vaziyatlar mustahkam-shaxsiy bolganiday, vaziyatli xarakterni oluvchi individual bo'yalgan yuqori qadriyatli kechinmalar (individual mazmunlar) ni dolzarblashtiradi. A.G.Ambrumova suitsidal axloqli katta odamlarda nopatologik reaksiyaning olti tipini ajratib krsatadi:

- hissiy disbalans (salbiy bo'lsalarning mavjudligi);

- pessimizm (hammasi yomon, vaziyat chiqishga ega emas, kelgusida hech qanday yaxshilik yo'q);
- salbiy balans (ratsional yuqori tanqidiy “qayotiy yakunni chiqarish”);
- dyemobilizatsiya (yolqizlik va rad etilganlik tuyqusi tufayli aloqalar va faoliyatdan voz kyechish);
- oppozitsiya (atrofdagilar adryesiga ayblov bilan ko'pincha namoyishkorona auto tajovuzkorlikka o'tuvchi tajovuzkor nuqtai nazar);
- tartib-intizomni buzish (aniq ko'rinib turgan somatovegetativ buzilish bilan xavotir holati).

Ko'pincha suitsid bilan ishqiy mayl o'rtasida zich aloqa ta'kidlanadi. Bu holda o'lim sevuvchi odam uchun alohida mazmunga ega - sevgan odami bilan o'limdan keyin birlashish yoki hayotligida u behuda umid qilgan muqabbatga erishish imkoniyati. Ehtirosli sevishda suitsidal axloq o'zi ustidan yo'qotilgan nazoratni tiklash, chidab bo'lmas zo'riqishni olib tashlashga urinish hisoblanadi.

Seyr suitsidal harakatlar ortida turgan tuyg'ularni tahlil qilib, o'z-o'zini o'ldirishning to'rtta asosiy sabablarini ajratdi:- izolatsiya (chuvstvo, chto tyebya nikto nye ponimayet, toboy nikto nye interesuyetsya);

- zaiflik (o'z hayotingni nazorat qilolmasliging, hamma narsa senga bog'liq emasligi hissiyoti);
- umidsizlik (qachonki kelajak hech qanday yaxshi narsadan darak bermaydi);
- shaxsiy ahamiyatsizlik tuyg'usi (o'z qimmatining haqoratlangan tuyg'usi, o'z-o'zini past baholash, vakolatsizlik kechinmasi, o'zidan uyalish).

Psixoanalitik an'ana suitsidal axloqning chuqur mexanizmlari - uning ongsiz motivlarini tushunishga yaqinlashish imkonini beradi. Allaqachon ta'kidlanganki, axloqning deklarasiyalangan motivlari ko'pincha uning asl sabablariga mos kelmaydi. Psixoanalitik tadqiqotlar suitsidallikning ongli va ongsiz determinantlarni chegaralash imkonini beradi.

Psixotahlilda dastlab K.Abraxam (1912) va Z.Freydning (1916) suitsidal axloqni ob'yektni yo'qotish oqibatida tajovuzni o'z shaxsiga qarshi yo'naltirish



natijasi sifatida tushuntiruvchi gipotezasi qabul qilingan. 3.Freyd “qayg’u va melanxoliya» nomli ishida Menning jarohatlangan (yo'qotilgan) ob'yektni introetsirlovchi qismiga tajovuz orqali o'z-o'zini o'ldirish dinamikasini ochib beradi. Shunday qilib, Men “yomon” ichki ob'yektlarning ta'zirini beradi. Ushbu nazariya bitta muhim yangilikdan iborat - suitsidal axloq dinamikasida yaqin odamning yetakchi rolini tan olish. Ruhiiy azoblanish holatiga beriluvchan odam ob'yektni yo'qotishga (mahrum bo'lish, ixlosi qaytish, buzilish) boshida nafrat bilan reaksiya qiladi. Biroq ob'yektning o' ta ahamiyatligi kuchida u bo'lsadan himoyalanihga majbur. himoya yo'qotilgan ob'yektni singdirish haqidagi fantaziyali oral kechinmalarga tajovuz orqali amalga oshiriladi. Endi ob'yekt sub'yekt shaxsi bilan bir xillik sharofati evaziga qutqarildi. Ob'yekt o'z shaxsining qismiga aylandi. Yo'qotilgan ob'yektga dastlab yo'naltirilgan nafrat endi o'z shaxsiga qarshi qaratiladi. Og'ir ruhiy azoblanish holati (Freyd bo'yicha melanxoliya) rivojlanadi, oqibatda suitsid boshlanadi. Z.Freyd ta'kidlaydiki, melanxolik mexanizm bo'yicha suitsidal axloqning rivojlanishi faqat ikki sharoitda mumkin:

- 1) agar oral pallasi qayd qilingan bo'lsa;
- 2) agar ob'yektli munosabatlarda ambivalentlik mavjud bo'lsa.

Z.Freyd o'zining hiyla keyingi ishlarida (1920 yildan 1923 yilgacha) o'z-o'zini o'ldirishni o'limga tug'ma maylning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqadi. Suitsidal axloq - parchalash impulslari o'z-o'zini saqlash impulsidan ahamiyatli tarzda ustunlik qilgan hollardagina o'ringa ega. Urush vaqtida o'z-o'zini o'ldirishning kamayganligi, qotillikning yuqori darajasi bo'lgan davlatlarda, masalan, Lotin Amerikasida ular darajasining pasayganligi kabi faktlar o'z-o'zini o'ldirishga tubdan o'zgartirilgan qotillik sifatida qarash foydasiga gapiradi. Bu g'oyalarni rivojlantirib, Menningyer (1938) har bir suitsidal harakatda uchta tendentsiyani aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi:

- o'ldirish istagi (tajovuzdan tashqariga yo'naltirilgan derivat);
- o'ldirilgan bo'lish istagi (birinchi istak bilan bog'liq vijdon ta'nasi oqibati);

- o'lish istagi - jonsiz bo'lish (toza ko'rinishda o'limga yasama qiziqish)

Bunda “jonsiz bo'lish istagi” o'limning real bo'lmagan oqibatlarini emas, muhofazalanganlik, xotirjamlik, tinchlik haqidagi ongsiz fantaziyani ko'zda tutadi. Uchta tendentsiya qasos, autotajovuz, ketish, “vaqtincha o'lish”, o'z-o'zini jazolash, jinsiy istaklarni ramziy bajarish va h.k. motivlarda ko'rinadi. Modomiki, o'limga mayldan tashqari hayotga (jinsiy mayl va o'z-o'zini saqlashga mayldan tarkib topgan ) mayl ham bor, demak suitsidal harakat destruktiv bilan bir qatorda konstruktiv motivlardan iborat. Bunday bo'lishi mumkin: yordam haqida chaqiruv, xavfdan qochish, pauza yoki ketish istagi. Shunday qilib, har bir suitsidal harakatda bir vaqtning o'zida tajovuzkorlik- autotajovuz, chaqiruv-qochishning qarama-qarshi maqsadlari namoyon bo'ladi. Ringyel (1953) har qanday suitsidal harakatga uch komponentdan tashkil topgan ilgari bo'lgan sindrom muhim xulosaga keldi. Bular:

- tajovuz inversiyasi (o'zga murojaat);
- suitsidal fantaziyalar;
- torayish [26, 94-b.].

Xafagarchilik, ko'ngil sovushi va omadsizlik bilan chaqirilgan torayish rivojlanishning (avvalgi bosqichga qisman qaytish) regressiv tendentsiyasidir. Natijada rivojlanishning ichki va tashqi imkoniyatlari cheklanadi, shaxslararo munosabatlar redutsiyalanadi, ob'yektiv anglash buzi ko'rsatiladi. Muallif regressiya asosida bolalikdagi “himoyalanganlik” kechinmasi bilan og'ir asabiylashish yotadi deb hisoblaydi. O'ziga yo'naltirilgan internalizatsiyalangan ob'yekt yoki tajovuzni o'ldirish suitsidal dinamikaning yagona varianti emas. Xendin (1963) uchta Yevropa davlati aholisining suitsidlari motivatsiyasidagi farqlarni tadqiq etishga urinishga kirishdi. U ta'kidlaydiki, hayot darajasi o'xshash bo'lgan bir-biriga yaqin joylashgan davlatlar - Daniya, Shvetsiya va Norvegiya - o'z-o'zini o'ldirish darajasi bo'yicha ahamiyatli tarzda bir-biridan farq qiladi (100 ming aqoliga nisbatan - 22; 22; 7). U bu tafovutni madaniyatda deb tushuntiradi. Daniyaliklar - passiv, firoqqa ta'sirchan, tajovuzni bostirish va boshqalarda aybdorlik hissini uyg'otishga moyildirlar. Shvedlar esa yutuqqa, mustaqillik va o'z

tajovuzini qat'iy nazorat qilishga orientir olgan, nisbatan bolalarni barvaqt onasidan uzoqlashtiradilar. Norveglar - ular ham mustaqillikni raqbatlantiradilar, biroq hissiyotlarini erkinroq namoyish qiladilar, muvaffaqiyat va omadsizlikda o'z-o'zini jazolashga kamroq orientir qiladilar. Milliy xarakterdagi tafovut suitsidning motivatsiyasida farqlar bilan uyg'unlashadi. Daniyaliklar uchun tobelik va yo'qotish; shvedlar uchun - omad frustratsiyasi motivlari, norveglar uchun - tajovuzkor (antiijtimoiy) axloq tufayli aybdorlik tuyg'usi bilan bog'liq suitsid xarakterlidir. Shu bilan bog'liq ravishda Xendin buyuklik va qudratlilikka talab bo'lib chiqish tuyg'usini suitsidal dinamikaning muhim omillari sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, qudratli nartsissik tuyg'usi, uning yordamida vaziyatni yaxshiroq nazorat qilish, unga ta'sir korsatish uchun o'z-o'zini o'ldirishga itarishi mumkin. Ruhiiy azoblanish holati va suitsidal axloqning boshqa belgilari o'z-o'zini baholashni boshqarishning buzilishi hisoblanadi. Bunday nartsissik zaiflikning rivojlanishi uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- olti oyligida onadan erta ayrilish va u bilan birga boruvchi anaklitik ruhiy azoblanish holati (R. Shpits);

- 16-24 oyligida, ya'ni ilk yoshida ona tomonidan hissiy qabul qilish va tushunishning yo'qligi (M. Mallyer).

Bu, o'z navbatida, ambivalentlikka, ota-onalarning tajovuzkor majburlashiga, ruhiy azoblanish bo'lsaiga olib keladi. Bolada o'z-o'zini baholashga qodir ichki psixologik tuzilmalar shakllanmaydi. Shubhasiz, suitsidal axloq shakllanishining ongsiz mexanizmlaridan yana biri o'ta nartsissik ehtiyojdir. Ma'lumki, nartsissizm buyuklik tuyg'usi va o'zining qadriligiga tashqaridan tasdiq olish zaruriyati bilan bog'liq. Nartsissik dinamikaning boshqa tomoni uyat, xasad, bo'shliq va to'laqonli emaslik hisoblanadi. Omadsizlik, janjal, stresslar bilan bog'liq notinch vaziyatlar ob'yektiv ravishda ushbu bo'lsalarni suitsidal axloqning paydo bo'lishi va ularga chidab bo'lmas darajagacha kuchaytirishi mumkin. Nartsissizm nazariyasiga muvofiq suitsidal axloq uyg'unlashgan dastlabki holatga regressiya hisobiga nartsissik krizis to'lovi hisoblanadi. Bu modeldan ham og'ishgan axloqning boshqa shakllarini tushuntirish uchun foydalanish mumkin

(tobelik, uydan ketish, daydilik). Shunday qilib, psixoanalitik kontsepsiya shaxsning yaqin odamlari bilan erta munosabatiga o'z ildizi bilan ketuvchi suitsidal axloqning chuqurlashgan motivatsiyalarini tushunishga yordamlashadi. Shaxsning keyingi axloqi da oilaning ahamiyatini qayta baholash qiyin.

Boshqa tomondan, shaxsning suitsidal axloqiatrofdagilar uchun og'ir sinov hisoblanadi. hammutelik bilan o'xshash bo'lgan fenomen haqida gapirish mumkin. Suitsidentni yaqin odamlarining hissiy kechinmalari qismi qisqa muddatli, boshqalari uzoq yillar, ba'zilar - butun hayotda davom etadi. Oilaning har bir a'zosi buning uchun ma'lum bir psixologik narx to'laydi. K.Lukas va G. Segen buni kelishuv deb ataydilar. Yaqin odamining olimiga javob sifatida istalmagan axloqning quyidagi modeli kuzatiladi:

- sodir bo'lgan hodisani suitsidentning shaxsiy ixtiyori sifatida qabul qilish o'rniga o'zini o'zi o'ldirgan odamning o'limi uchun javobgar bo'lishi mumkin bo'lgan insonlarni izlash;

- yashashda davom etish o'rniga uzoq yillar traur qabul qilish;
- aybdorlik va o'z-o'zini azoblash kechinmasi;
- somatizatsiya – tuyg'ularni yuzaga chiqarish o'rniga kasallikka ketish;
- o'z-o'zini cheklash - hayot quvonchlaridan ketish;
- o'z tuyqularini tan olish va uni ifodalash o'rniga ishga, jinsiy aloqalarga, addiktsiyaga qochib borish;

- Nihoyat, yangi suitsid - “syen o'lding, dyemak myen ham o'laman”.

Shunday qilib, suitsidyentga yaqin bo'lgan odamlar kuchli qayqu, aybdorlik va qazab tuyqulari bilan to'ladilar, ulardan muqofazalagancha o'zlarini autodyestruktiv tuta boshlaydilar. Muhokama qilinayotgan mavzuga xulosa qilib, suitsidal axloqning murakkab majmuaviy xaraktyeriga yana bir e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Aniq shaxs bilan ishlash uchun yetakchi sifatida psixologik tahlilni ajratib, biz, shubhasiz, ijtimoiy, huquqiy, tarixiy, kulturologik, tibbiy, etik kabi muammolarning boshqa muqim aspyektlarini ham inobatga olishimiz zarur.

## Nazorat savollari va topshiriqlar

1. O'z-o'zini o'ldirish birmuncha jiddiy jamoatchilik muammolaridan biri hisoblanishini isbotlang.
2. “Suitsid”, “suitsidal urinish”, “suitsidal axloq” tushunchalarini ochib bering.
3. Suitsidal axloq tuzilmasiga nimalar kiradi
4. Suitsidal axloqning yosh xususiyatlari qanday
5. Suitsidal axloq psixologik nazariyalar bilan qanday tushuntirilad

## 9-Mavzu: Shaxs og`ishgan axloqning preventsiyasi va intervensiyasi

### Reja:

1. Og`shgan xulqning preventsiyasi va intervensiyasi.
2. Shaxs og`ishgan xulqiga ijtimoiy psixologik ta`sir.
3. Shaxs og`ishgan xulqining psixologik intervensiyasi.
4. Og`ishgan xulqning ijtimoiy psixologik aralashuv strategiyalari.

**Tayanch so`z vaiboralar:** *prevensiyasi, intervensiyasi, psixoprofilaktik assertivlik, psixoanalitik, kognitiv-axloqiy.*

Shaxsning og`ishgan xulqi turlicha ijtimoiy institutlar tomonidan boshqariladi. Jamoatchilik ta'siri huquqiy qonunlar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy ko`mak va psixologik yordam xarakterini olishi mumkin. Axloqiy buzilish murakkab xakteri kuchida ularni ogohlantirish va bartaraf etish yaxshi uyushtirilgan ijtimoiy ta'sirlar tizimini talab qiladi. Psixologik yordam ko'rib chiqilayotgan tizim bosqichlaridan biri sifatida unda boshlovchi rol o'ynaydi va aniq ko'rinib turgan gumanistik yo'nalganligi bilan farqlanadi. Bu fakt psixologik ishning maxfiylik, ixtiyoriylik va shaxsiy manfaatdorlik, inson tomonidan o'z hayoti uchun mas'uliyatni qabul qilish, o'zaro ishonch, qo'llab-quvvatlash, shaxs va individuallikni hurmatlash kabi tamoyillarida o'z aksini topdi.

Psixologik yordam ikkita yetakchi yo'nalishga ega.

- Psixologik **preventsiya** (ogohlantirish, psixoprofilaktikasi)
- Psixologik **interventsiya** (bartaraf etish, korrektsiya, rehabilitatsiyasi).

Psixotashhis, qoidadagiday, ishning mustaqil yo'nalishi hisoblanmaydi va psixologik yordamning maqsadi bo'lmasligi zarur. Bu faoliyatning yordamchi turi, muhim, biroq majburiy emas, qoidadagiday, hal qiluvchi oraliq amaliy vazifa. Psixologik yordamning ikki asosiy turini batafsil ko'rib chiqamiz. Og'ishgan axloq profilaktikasi ijtimoiy uyushganlikning turli darajalarida umumiy va maxsus tadbirlar tizimini ko'zda tutadi: umumdavlat, huquqiy, jamoatchilik, iqtisodiy, tibbiy-sanitar, pedagogik, ijtimoiy-psixologik. Muvaffaqiyatli profilaktik ishning shartlari uning majmuaviyligi, ketma-ketligi, differentsialligi, o'z vaqtidaligidir. Oxirgi shart faol shakllanayotgan shaxs, masalan, o'smirlar bilan ishlashda, ayniqsa, muhim. Shuning uchun kelgusida og'ishgan axloqning psixologik preventsiyasi ko'pincha aynan o'smir yoshidagilar misolida ko'rib chiqiladi.

BSST (Butun jahon soqliqni saqlash tashkiloti) birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikani ajratishni taklif qiladi. Birlamchi profilaktika muayyan ko'rinishni chaqiruvchi noxush omillarni bartaraf etishga, shuningdek, shaxsning bu omillar ta'siriga chidamliligini ko'tarishga yo'naltirilgan. Birlamchi profilaktika o'smirlar o'rtasida keng olib borilishi mumkin. Ikkilamchi profilaktikaning vazifasi - asabiy-psixik buzilishlarni erta aniqlash va rehabilitatsiya qilish hamda "xatar guruhidagi"lar bilan, masalan, hozirgi vaqtda bu namoyish etilmagan bo'lmasa-da, og'ishgan axloqqa aniq ko'rinib turgan moyilligi bo'lgan o'smirlar bilan ishlash. Uchlamchi profilaktika axloq buzilishi bilan birga boradigan asabiy-psixik buzilishlarni davolashdek maxsus vazifalarni hal qiladi. Uchlamchi profilaktika shakllangan og'ishgan axloqli shaxslarda retsidivni ogohlantirishga yo'naltirilgan. Psixoprofilaktik ish barcha uch bosqichning tadbirlar majmuasiga kirishi mumkin. hisoblanadiki, u muammoning paydo bo'lishidagi ilk bosqichlarda og'ishgan axloqni chaqiruvchi shart va sabablar ta'siri shaklida birmuncha samaralidir. Psixoprofilaktik ishlarning turlicha shakllari mavjud. Birinchi shakl - ijtimoiy

muhitni tashkil etish. Uning asosida deviatsiyaning shakllanishida atrofdagi muhitning determinatsiyalanuvchi ta'siri haqidagi tasavvurlar yotadi. Ijtimoiy omillarga ta'sir ko'rsatib shaxsning istalmagan axloqi oldini olish mumkin. Ta'sir butun jamiyatga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, masalan, og'ishgan axloqqa munosabat bo'yicha jamoatchilikning salbiy fikrini yaratish orqali. Ish ob'yekti, shuningdek, oila, ijtimoiy guruh (maktab, sinf) yoki aniq shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu model doirasida tobe axloq profilaktikasi o'smirlarda dastavval sog'lom turmush tarzi va sergaklikka ko'rsatmani shakllantirish bo'yicha ijtimoiy reklamadan iborat. Ommaviy axborot vositalari siyosati alohida ahamiyatga ega. Maxsus dasturlar, yoshlar suyuklilarining chiqishlari, maxsus tanlangan kinofilmlar - bularning barchasi hozirgi vaqtda kuzatilayotganga qaraganda boshqa sifatli darajaga ega.

Yoshlar submadaniyati bilan ishlash "Yoshlar giyohvandlikka qarshi" harakati yoki ommaviy rok-guruhlarining chiqishlari bilan shu nomdagi aksiya shaklida tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan va muloqot qiladigan joylarda ular bilan ishlash muhimdir. Masalan, diskotekalarda niqobdagi sirli odamlar paydo bo'lishi mumkin. Oqshom yakunida yoshlar ulardan giyohvand moddalardan yaqin odamlarini yo'qotish bilan bog'liq kechinmalar va tragik taqdirlar haqida bilib olishlari mumkin. O'smirlar bilan ishlash, shuningdek, ko'chada tashkil etilishi mumkin. qator davlatlarda tegishli ishlarni olib borish uchun o'smirlar sardorini tayyorlash mavjud.

Shuningdek, ushbu yondoshuv doirasida istalmagan axloq bilan qo'shilmaydigan sharoit va ko'maklashuvchi "zona"larni yaratishga urinish qo'llanilmoqda. Modelning asosiy kamchiligi ijtimoiy omillar va og'ishgan axloq o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikning yo'qligi hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu yondoshuv yetarlicha samarador bo'lib ko'rinadi. Psixoprofilaktik ishning ikkilamchi shakli - xabardor qilishdir. Bu biz uchun birmuncha odatiy psixoprofilaktik ishni olib borishning ma'ruza, suhbat, adabiyotlar yoki video- va telefilmlarni tarqatish shaklidagi ko'rinishi. Yondoshuv mohiyati konstruktiv qarorlar qabul qilishga uning layoqatini ko'tarish maqsadida shaxsning kognitiv

jarayonlarida ta'sir ko'rsatishga urinishdir. Buning uchun, odatda, statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, masalan, giyohvand moddalarning salomatlik va shaxsga halokatli ta'siri haqidagi axborotlardan keng foydalaniladi. Ko'pincha axborot qo'rqituvchi xarakterga ega. Bunda giyohvand moddalarni iste'mol qilishning salbiy oqibatlarini sanab o'tiladi yoki og'ishganlarning dramatik taqdiri, ularning shaxsiy degradatsiyasi yoritib beriladi. Usul haqiqatan bilimni kuchaytiradi, biroq axloqni o'zgartirishga yomon ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zidan xabardor qilish devyatsiya darajasini pasaytirmaydi. Ba'zi hollarda, aksincha, devyatsiya bilan erta tanishuv unga qiziqishni kuchaytiradi. Cho'chitish ham axloqning ushbu turini motivatsiyalovchi kognitiv- hissiy dissonansni uyg'otishi mumkin. Qator hollarda axborot o'z vaqtida berilmaydi: o'ta kech yoki o'ta erta. Masalan, o'smirlar bilan ishlash tajribasining ko'rsatishicha, giyohvand moddalarga tobe bo'luvchi axloqni ogohlantirish bo'yicha suhbatlar 14 yoshdan kech bo'lmaganda olib borilishi lozim. Ular giyohvand moddalar va ular keltirib chiqaruvchi kuchli ta'sirni batafsil yoritishdan iborat bo'lmasligi darkor. Bunday suhbatlar og'ishgan axloq va undan saqlanish usullarining oqibatlarini muhokama qilishga, faol shaxsiy nuqtai nazarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Ushbu yondoshuvning istiqbolli rivojlanishiga cho'chituvchi axborotlarning ustunlik qilishidan, shuningdek, jins, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomasi bo'yicha axborotlarni differentsiyalashdan voz kechish yordamlashishi mumkin. Psixoprofilaktik ishning uchinchi shakli - ijtimoiy-muhim malakalarga faol ijtimoiy o'rgatishdir. Ushbu model ko'pincha guruhli treninglar shaklida amalga oshiriladi. hozirgi vaqtda quyidagi shakllar tarqalgan. Salbiy ijtimoiy ta'sirga rezistentlik (mahkamlik) treningi. Trening davomida og'ishgan axloqqa korsatmalar o'zgaradi, reklamali strategiyani tanib olish malakasi shakllanadi, tendoshlari bosim o'tkazganida "yoq" deya olish layoqati rivojlanadi, ota-onalar va boshqa kattalarning (masalan, ichkilik iste'mol qiluvchi) salbiy ta'sir ehtimoli haqida axborot beriladi va h.k.

Assertivlik yoki bo'lsaiv-qadriyatli ta'lim treningi. Og'ishgan axloq bevosita hissiy buzilish bilan bog'liq degan tasavvurga asoslangan. O'smirlarni ushbu



muammolaridan oldindan xabar berish uchun hissiyotlarni tanish, ularni maqbul obrazda ifodalash va stressni mahsuldor uddalashga o'rgatiladi. Guruhli psixologik ish davomida qaror qabul qilish malakasi shakllanadi, o'z-o'zini baholash ko'tariladi, o'z-o'zini aniqlash va ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni rag'batlantiriladi. Hayotiy malakalarni shakllantirish treningi. Hayotiy malakalar tushunchasi ostida shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy ko'nikmalari tushuniladi. Dastavval, bu muloqot qilish, do' stona aloqalarni saqlash va shaxslararo munosabatlardagi nizolar konstruktiv hal qilish malakasidir. Shuningdek, bu o'z zimmasiga mas'uliyatni o'z bilish, maqsad qo'yish, o'z nuqtai nazarini va manfaatlarini himoyalash qobiliyati hamdir. Nihoyat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zi va atrofdagi vaziyatni o'zgartirishga ishonchli axloq malakasi hisoblanadi. O'smirlar bilan ishlashda ushbu model birmuncha istiqbollilardan birini aks ettiradi. To'rtinchi shakl - alternativ og'ishgan axloq faoliyatini tashkil etish. Ishning bu shakli og'ishgan axloqning o'rinbosar samarasi haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq. Masalan, addiksiya shaxsiy dinamika - o'z-o'zini baholashni oshirish yoki referent muhit integratsiyasida muhim rol o'ynashi mumkin. Taxmin qilinadiki, odamlar kayfiyatni yaxshilovchi psixofaol moddalardan uning o'rniga nimadir yaxshirog'ini olmagunlaricha foydalanadilar. Faollikning alternativ shakllari sifatida quyidagilar tan olindi: bilim (sayohat), o'zini sinash (toqqa sayohat, xatarli sport), ahamiyatli muloqot, sevgi, ijodkorlik, faoliyat (shu jumladan, professional, diniy-ma'naviy, homiylik). Bu shakl shakllangan og'ishgan axloq holatida yordam ko'rsatishning deyarli barcha dasturlarida amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevimli va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga - sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak. Agar o'smir yoshida ijobiy ehtiyojlar shakllanmagan bo'lsa, shaxs salbiy ehtiyoj va bilimlarga nisbatan zaif bo'lib qoladi. Beshinchi shakl - sog'lom turmush tarzini tashkil etish. U salomatlik uchun shaxsiy javobgarlik, atrofdagi dunyo va o'z organizmi bilan uyg'unlik haqidagi

tasavvurlardan kelib chiqadi. Odamning maqbul holatga erishish va muhitning noxush omillariga muvaffaqiyatli qarshi tura olish ko'nikmasi, ayniqsa, qimmatli hisoblanadi. Sog'lom turmush usuli sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy yuklama, mehnat va dam olish tartibiga amal qilish, tabiat bilan muloqot, ortiqcha narsalarni istisno qilishni ko'zda tutadi. Bunda usul ekologik tafakkurga asoslangan va ahamiyatli tarzda jamiyat rivojlanishining darajasiga bog'liq.

Oltinchi shakl - shaxsiy resurslarning faollashuvi. O'smirlarning sport bilan faol shug'ullanishi, guruhlardagi muloqot va shaxsiy o'sishdagi ishtiroki, artterapiya - bularning barchasi, o'z navbatida, shaxs faolligi, uning sog'ligi va tashqi salbiy ta'sirga mahkamligini ta'minlovchi shaxsiy resurslarni faollashtiradi.

Yettinchi shakl - og'ishgan axloqning salbiy oqibatlarini minimallashtirish. Ishning ushbu shaklidan shakllanib bo'lgan og'ishgan axloq hollarida foydalaniladi. U retsdiv yoki uning salbiy oqibatlarini profilaktika qilishga yo'naltirilgan. Masalan, giyohvandlikka tobe bo'lib qolgan o'smirlar o'z vaqtida tibbiy yordam, shuningdek, shunga o'xshash kasalliklar va ularni davolash bo'yicha zaruriy bilimlarni olishlari mumkin.

Psixoprofilaktik ishning xilma-xil ko'rinishlarida o'xshash shakllar va usullardan foydalanish mumkin. Ishni tashkil etish usuli bo'yicha psixoprofilaktikaning quyidagi shakllarini ajratish mumkin: individual, oilaviy, guruhli ish. Og'ishgan axloqni oldini olish maqsadida turlicha ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi. Psixoprofilaktik ishning yetakchi usullari orasida: xabardor qilish, guruhli munozaralar, trening mashqlari, rolli o'yinlar, samarador ijtimoiy axloqni modellashtirish, psixoterapevtik uslublar bor.

Foydalanilgan usullarga bog'liq ravishda psixoprofilaktik ish trening, ta'lim dasturlari (masalan, maktabdagi maxsus kurslar), psixologik maslahatlar, krizis yordami (ishonch telefonlari), shuningdek, chegara holati va asabiy-psixichk buzilish psixoterapiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Og'ishgan axloqning o ziga xosligiga muvofiq ravishda psixoprofilaktika ishlarining quyidagi tamoyillarini ajratish mumkin:

- majmuaviylik (oilalar va shaxs, ijtimoiy borliqning turli darajasiga ta'sirni

uyushtirish);

- manzillilik (yosh, jinsiy va ijtimoiy tavsifnomalarni hisobga olish);
- ommaviylik (ishning guruhli shakli birlamchiligi);
- axborotning ijobiyligi;
- salbiy oqibatlarni eng kam darajaga tushirish;
- ishtirokchilarning shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyati;
- shaxsning eng yuqori darajadagi faolligi;
- kelajakka intiluvchanlik (axloq oqibatlarini baholash, ijodiy qadriyatlar

va maqsadlarni dolzarblashtirish, og'ishgan axloqsiz kelajakni rejalashirish).

### **Shaxs og'ishgan xulqining psixologik interventsiyasi**

Shaxs og'ishgan xulqining interventsiyasi ijtimoiy-psixologik ta'sirning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. Psixologik interventsiya - bu ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirish uchun shaxsiy borliqqa psixologik aralashuv. Shaxs og'ishgan axloqi interventsiyasi bo'shashish yoki uning axloqidagi ijtimoiy moslashuvga to'sqinlik qiluvchi shakllarni bartaraf etishdan iborat. Psixologik interventsianing farqli xususiyatlari umuman olganda shaxsning o'zi tomonidan o'zgarishga bo'lgan istak, uning psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyorligi hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning og'ishgan xulqi holatida tashabbus va rozilik bola manfaatlarining qonuniy vakillaridan chiqishi darkor. Shaxs og'ishgan xulqi bilan ishlashda asosiy qiyinchilik, qoidadagiday, ijtimoiy-psixologik yordamning birinchi bosqichida odam o'z axloqining aniq ko'rinib turgan salbiy oqibatlariga qaramay o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishidan iborat. Bunday hollarda aralashuv uchun asos devyatsiya yetkazgan zarar darajasi yoki shaxsning ijtimoiy moslashmaganligi darajasi bo'lishi mumkin. Masalan, giyohvand moddalarga tobe insonning yordam uchun murojaatiga sabab ko'pincha yoxud sog'ligi bilan jiddiy muammo, yoxud uning "ijtimoiy jarlik" vaziyatiga erishishi bo'lishi mumkin. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar bilan birga yuradigan kasalliklar yaxshi ma'lum - gepatit, OIV-infeksiya, psixik buzilishlar. Ijtimoiy degradatsiya,

o'z navbatida, kriminalizatsiyada, mehnatga layoqatning yo'qolishida, yakkalanishda, turar-joy va oilani yo'qotishda ifodalanadi.

Shunday qilib, og'ishgan axloqda psixologik aralashuvning yetakchi vazifalari quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

ijtimoiy moslashuv yoki sog'ayishga motivatsiyaning shakllanishi; -

shaxsiy o'zgarishlarni rag'batlantirish;

og'ishgan xulq aniq shaklining korreksiyasi;

shaxsiy o'zgarishlar yoki sog'ayish uchun yoqimli ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratish. Ishning samaradorligi istalmagan axloq (masalan, giyohvand moddalarni iste'mol qilish holati) ni kamaytirishning ob'yektiv belgilari bo'yicha bo'lganiday, sub'yektiv o'zgarishlar (masalan, sog'lom turmush tarzini kechirishga istakning kuchayishi) bo'yicha ham baholanadi. Ijobiy o'zgarishlarning birmuncha muhim mezonlaridan biri shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasini ko'tarish bo'lib chiqadi.

Og'ishgan xulqning psixologik intervensiyasi holatida psixologik ta'sirning ko'pincha psixoprofilaktik ishdagi barcha ma'lum usullaridan foydalaniladi. Psixologik intervensiyaning yetakchi usullari psixoterapiya, psixologik maslaht berish, psixologik trening, organizatsiya terapevtik yoki sanogenli muhitlar hisoblanadi. Shaxs bilan psixologik ish olib borishning birmuncha ommaviy shakli psixoterapiya bilan uyg'unlikda maslahat berish hisoblanadi. Og'ishgan axloq holatida yordamning ajratilgan ikki shakli o'rtasidagi chegaralarni farqlash amaliy jihatdan juda qiyin. "Maslahat berish" atamasi sog'lom odamlar bilan ishlash uchun anchagina maqbul. Axloqiy devyatsiyaning murakkab xarakteri, uning og'riqli buzilishga o'tishga moyilligini inobatga olib, kelgusida psixoterapiya yoki maslahat berish haqida gapirganda biz aynan ularning munosib birikmasini nazarda tutamiz. Shaxsning yagona nazariyasi yo'qligida maslahat berish (psixoterapiya) ning turlicha kontsepsiya va shakllari mavjud. Uchta yetakchi yo'nalish birmuncha rivojlanish va tan olishni oldi: psixoanalitik, kognitiv-axloqiy, gumanistik. Bu tarixiy modellar hayotga yuzlab modifikatsiyani berdi,

buning oqibatida turlicha tasniflar paydo bo'ldi. Interventsiya maqsadiga bog'liq qolda psixoterapiyaning uch turi ajratiladi:

- qo'llab-quvvatlovchi psixoterapiya - mavjud himoya kuchi va ancha yangi samarali axloq usullarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;
- qayta o'rganuvchi psixoterapiya - axloqni o'zgartirishga intilish;
- shaxsiy-rekonstruktiv - intrapsixik janjallarni anglash orqali ichki shaxsiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan.

Klinik amaliyotda psixoterapiya usullarini simptom-markazlashgan, shaxsiy-markazlashgan va ijtimoiy markazlashganga bo'lish qabul qilingan. Psixoterapiya turlicha shakllarda amalga oshirilishi mumkin, masalan: guruhli, oilaviy yoki individual, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli, muammolarni yechish yoki shaxsiy o'zgarishlarga mo'ljallangan direktiv yoki nodirektiv. Amaliyotda ko'pincha kombinatsiyalangan usullardan foydalaniladi. Bundan tashqari, asosiy psixoterapevtik usullarning ko'plab modifikatsiyasi mavjud. Masalan, B. D. Karvasarskiy taqriri ostidagi Psixoterapevtik entsiklopediyada yuzga yaqin psixoterapevtik usullar yoritilgan, ularning real miqdori esa yanada ko'proq. Ko'pgina mualliflar ayni vaqtda mutaxassis shaxsining ahamiyatiga diqqatni tortgan holda psixoterapiyaning taxminan teng ta'sir qiluvchi xilma-xil turlarini ta'kidlaydi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishda komplekslilik tamoyilini ochib bering.
2. Og'ishgan xulq psixoprofilaktikasining maqsadlari, tamoyillari va shakllari qanday
3. Psixoprofilaktikaning asosiy kontseptual modelini sanab bering.
4. Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intervensiyasi nima?

## **10-Mavzu: Shaxs og‘ishgan xulqining psixologik korreksiyasi.**

### **Reja:**

1. Ijobiy sabablarni rag‘batlantirish.
2. Xissiy xolatni korreksiyalash usuli.
3. O‘z-ozini boshqarish usullari.
4. Kognitiv va istalmagan axloqni so‘ndirish usuli.

**Tayanch so‘z va iboralar:** O‘z-ozini boshqarish, Kognitiv, Xissiy xolat, korreksiya,

### **Ijobiy sabablarni rag‘batlantirish.**

**Psixologik korreksiya va diagnostika** - pedagogik jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (o‘quv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). O‘quvchilarning ogzaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o‘quv faoliyatidagi salbiy o‘zgarishlarni, o‘quvchilarda o‘quv, mehnat malaka va ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini, ta‘lim olishga nisbatan moyilliklari korreksiya va diagnostika qilinadi. Dam olish sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya kabi soxalarda qo‘llaniladigan metodikalar va ko‘rsatkichlardan foydalanishni taqazo qiladi. O‘quvchilarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televidenie, gazetalar va xokazo) ta‘sirini, o‘quvchilarning burch va xuquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgandir.

**Ijtimoiy korreksion psixologiya va psixodiagnostika-** sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, o‘quvchilar, pedagoglar, ota-onalar guruxlarini, o‘quvchilarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televidenie, gazetalar va xokazo) ta‘sirini, o‘quvchilarning burch va xuquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgandir.

**Pedagogik korreksiya va diagnostika** - Korreksion psixologiyaning eng yaxshi rivojlangan va muxim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unga o‘quvchilarning

aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, o'z-o'zini baxolashi, psixologik "ximoya usullari"ni, o'quvchi o'zining psixik xolatlarini, ularning xarakterining asosiy sifatlarini va boshka individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgandir.

**Korreksion psixologiyaning asosiy tamoyillari.** Albatta, xar qanday fan soxasi o'ziga xos ob'ektga va predmetga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o'rganish metodlariga, o'z tamoyillariga egadir. Psixologik korreksiyada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar xozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmokda.. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, Korreksion psixologiyaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin:

**Tekshiruv metodini aniqlash.** Diagnostika qiluvchi xususiyat aniqlangandan so'ng, shunday faoliyat turlarini tanlash lozimki, bular tekshirilayotgan xususiyat haqida ma'lumotlar berish imkonini bersin.

**Metodni taxlil qilish.** Diagnostik metodlarni adekvat ishlab chiqish uchun eksperiment o'tkazish sharoitlarini va uning natijalari taxlilini maksimal darajada standartlashtirish lozim bo'ladi. Eksperiment shartlarini standartlashtirishga quyidagilar kiradi: Eksperimentni o'tkazish, asosan instruktsiya, masalan, testlashtirish jarayonini tasviri.Ma'lumotlarni qayd qilish, ya'ni eksperiment davomida eksperimentning borishi va natijalarini protokollashtirish va qayd qilish.Ma'lumotlarni tahlil qilish, masalan, verbal ma'lumotlarni klassifikatsiyalash yoki o'lchov natijalarini solishtirish. Ma'lumotlarni sintez qilish, ma'lumki qayd qilingan dastlabki ma'lumotlarda faqat noaniq psixodiagnostik axborotlarni olish mumkin. Psixometrik jarayonlar yordamida ularni birlashtirish, guruhlashtirish, lozimki ular yordamida psixodiagnostik nuqtai nazarga ko'ra ularni interpretatsiya qilish mumkin bo'lsin.

**Ma'lumotlarni interpretatsiyasi.** Metod asosida yotuvchi nazariy kontseptsiya asosida psixodiagnostik ma'lumotlarni taxlil qilish yotadi. Metodning sifatlilik kriteriylarini aniqlash. Diagnostik ma'lumotlarning ishonchliligi va sifati ma'lum darajada tekshiruv metodi sifatiga bog'liq buladi. Ular mos keluvchi

texnik tekshiruv yordamida avvalo korreksion statik metodlar yordamida aniqlanadi. Metodlarning bir muncha asosiy kriteriyalari quyidagilar xisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, bunday tajovuzkorlik, gipperfaollik va ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchilik alomatlari yaqqol ko'rinib to'rgan bolalar kattaroq yoshga yetganlarida hayotda bunday muammolari bo'lmagan bolalarga nisbatan besh marta ko'prok jinoyatchi yoki ichkilikboz bo'lib etishganlar.

Shaxsni ijtimoiylashtirish umumiy jarayonining bir qismi uni huquqiy ijtimoiylashtirish bo'lib, uning mohiyati shaxs tomonidan huquqiy qadriyatlarining o'zlashtirilishi, ularni o'z hayoti va axloqining me'yorlariga, shaxsiy sifatlariga aylantirishidan iborat. O'z huquqini tanish - yuridik ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda inson axloqini tartibga soluvchi yuridik bilimlar, huquq va uni qo'llash amaliyotiga bo'lgan baholovchi munosabatlar, huquqiy yo'l-yuriqlar va qimmatli yo'nalishlar shaklidagi huquqiy borliqni aks ettiruvchi jamiyat, gurux va individual ong doirasidir. Huquqiy axloqning har qanday harakatida albatta, unda ishtirok etayotgan shaxsning huquqiy ongi namoyon bo'ladi. Buning aniq bir huquq me'yorini bilishi yoki bilmasligi, davlat xokimiyati, qonun, huquqni muxofaza qiluvchi organlar nufuzi- ning turli darajasi, amaldagi huquqiy taqiqlar va ularni buzganlik uchun huquqiy sanksiyalarning mavjudligi va unga nisbatan shaxsning salbiy munosabati bilan tavsiflanishi mumkin. Og'uvchi axloqqa ega bo'lgan kishilarning katta kismi umumin- soniy qadriyatlar va axloq me'yorlari haqida tasavvurlarni eslab koladi, lekin bir qator sabablarga ko'ra o'z xulqidagi bu me'yorlarga tayana olmaydi yoki turli motivatsiyalangan himoya mexanizmlari bilan o'zining jamoatchilikka zid og'ishlarini oqlashga harakat qiladi. Ruxiy himoya mexanizmlari - sub'ekt uchun og'riqli, chidab bo'lmaydigan tashvishlarga qarshi himoya usuli bo'lib, uning borliqni, «Men» (obraz)ini yoki tashqi dunyoni buzib ko'rsatish kabilarning natijasidir. Shunday qilib, og'uvchi axloq o'zini namoyon qilishning keng shakllariga ega. Og'ishgan axloq namoyon bo'lishi xususiyatlarining differentsiatsiyasini o'tkazish uchun zamonaviy psixologiyaning quyidagi qoidalariga tayanish zarur.



1. Garchi psixopatologik buzilishlar mavjud bo'lgan barcha sub'ektlarning axloqi og'ishgan deb hisoblansada, og'ishgan axloqning har qanday turi orqasida ham psixopatologiya yashirinib yotavermaydi.

2. Ruxiyat buzilishlari, ya'ni kognitiv, xis-xayajonli va boshqaruvchi jarayon, jarayonlar borishidagi buzilishlar albatta, shaxsning nuqsonini belgilab bermaydi.

3. Buzilishlarning bir qancha ko'rinishlari shakllanishida organik omillarning roli dezadaptiv ta'sirlanishlarga o'rganish imkoniyatini inkor etmaydi.

Bu holda, dezadaptatsiyaning turli shakllarini ko'rib chiqi- layotgan holatning darajasi uz harakterlovchi belgilari bo'yicha yaqin bo'lgan ma'lum guruxlar ko'rinishida tasavvur etamiz.

Birinchi guruxni shaxsning delinkvent axloqi (lot. delinquens - jinoiy xulq, qilmish) vakillari guruxi tashqil etadi. Unga yukorida qayd etib utilgan toifadagi jinoyatchilar, shuningdek foxishalar va ma'lum yashash joyiga ega bulmagan daydilar ham kiradi.

### **Xissiy xolatni korrektsiyalash usuli**

#### **A.Asingerning agressiyani diognostika qilish metodikasi.**

A.Asingerning ushbu testi shaxsning o'z hamkasblari bilan munosabatda qanchalik darajada to'g'riligini (ochiqligini) va ularning u bilan muloqot qilishlarini osonligini aniqlashda yordam beradi.

1. Yarashish yo'llarini qidirishga moyilmisiz?

Har doim. Javoblarning xosligini aniqlash uchun hamkasabalar orasida bir-birini baholovchi suhbat o'tkazish mumkin.

Bu esa ularning o'z-o'zlarini baholashlari qanchalik to'g'riligini aniqlashda yordam beradi.

Javobni tagiga chizing.

- 1) Siz ishxonangizda navbatdagi nizodan so'ng
- 2) Gohida.

- 3) Hech qachon.
2. Siz o'zingizni mushkul vaziyatda qanday tutasiz?
  - 1) Ich-ichingizdan g'azablanasiz.
  - 2) Xotirjamligingizni saqlaysiz.
  - 3) O'zingizni tuta olmaysiz
  - 4) Dadilligingizni yo'qotmaysiz.
3. Hamkasblaringiz sizni qanday odam deb hisoblashadi?
  - 1) Kekkaygan xasadchi.
  - 2) Samimiy.
  - 3) Xotirjam va xasadchi emas.
4. Agar sizga masul lavozim taklif qilinsa, siz qanday munosabat bildirasiz?
  - 1) Uni bir muncha xavotirlanish bilan qabul qilasiz.
  - 2) Ikkilanmasdan rozi bo'lasiz.
  - 3) Undan o'zingizni xotirjamligingiz uchun voz kechasiz.
5. Agar hamkasblaringizdan birontasi ruhsatsiz sizni stolingizdan qog'oz olsa o'zingizni qanday sezasiz.
  - 1) Unga kimligingizni ko'rsatib qo'yasiz.
  - 2) Qaytarishga majbur qilasiz.
  - 3) Unga yana biror narsa kerak emasligini so'raysiz.
6. Agar eringiz (xotiningiz) ishdan odatdagidan kech qolsa qanday so'zlar bilan kutib olasiz.
  - 1) Nima seni shunchalik ushlab qoldi.
  - 2) Kechgacha qayerda edi.
  - 3) Men xavotir ola boshlayotgan edim.
7. Siz o'zingizni mashina boshqarayotganda qanday tutasiz?
  - 1) Sizni "Quvib kelayotgan" mashinani quvib o'tishga harakat qilasiz
  - 2) Sizni qancha mashina quvib o'tsa ham sizga baribir.
  - 3) SHunaqangi tezlikda ketasizki, sizga hech kim yetolmaydi.
8. Sizni hayotga qarashingiz qanday deb hisoblaysiz?
  - 1) Uyg'unlashgan

2) Yengiltak

3) Juda ham qattiq (og'ir)

9. Agar isharingiz yurishmayotgan bo'lsa nima qilasiz?

1) Aybni birovga ag'darishga harakat qilasiz.

2) Ko'nikasiz.

3) Kelgusida ehtiyotkorroq bo'lasiz

10. Siz zamonaviy yoshlarning orasida axloqsizlik haqidagi feʼlʼetonga qanday munosabat bildirasiz?

1) "Bunday vaqti chog'likni taqiqlash kerak"

2) Ularga uyushgan va madaniy tarzda dam olishi uchun imkoniyat yaratish lozim.

3) Nimaga endi biz ular bilan shunchalar ovoramiz.

11. Agar siz egallamoqchi bo'lgan lavozim boshqa birovga nasib qilsa, nimani his qilasiz

1) Nimaga bu uchun shuncha asabiylashaman.

2) CHamasi, xo'jayinga uning ko'rinishi yoqimliroq bo'lsa kerak.

3) Balki, men buni keyingi safar uddasidan chiqarman.

12. Qo'rqinchli film ko'rayotganda qanday holatda bo'lasiz?

1) Qo'rqasiz

2) Zerikasiz

3) CHin dildan zavqlanasiz

13. Agar siz yo'ldagi tiqilinch tufayli muhim majlisga kechikayotgan bo'lsangiz...

1) Majlis vaqtida asabiylashasiz

2) Hamkorlaringizga iltifotko'rsatishga harakat qilasiz

3) Ranjiysiz

14. O'zingizni sportdagi yutuqlaringizga qanday qaraysiz?

1) Albatta yutishga harakat qilasiz

2) O'zingizni yana yosh his qilishingiz lazzatini qadrlaysiz

3) Agar omad kelmasa, judayam jahlingiz chiqadi.

15. Agar sizga restoranda yomon xizmat qilishsa nima qilasiz?

1) Janjaldan qochib, chidaysiz

2) Ofitsintni chaqirasiz va tanbeh berasiz

3) restoran direktoriga arz qilasiz.

16. Agar bolangizni maktabda hafa qilishsa, o'zingizni qanday tutasiz?

1) O'qituvchi bilan gaplashasiz.

2) "Voyaga yetmagan jinoyatchining" ota-onasi bilan janjallashasiz

3) Bolangizga javob qaytarishni maslahat berasiz.

17. Sizningcha, siz qanday odamsiz?

1) O'rtacha

2) O'ziga ishongan

3) Uddaburon

18. Sizni hodimingiz idora eshigida sizga urilib ketsa va kechirim so'ray boshlasa, siz nima deb javob berasiz?

1) "Uzr, bu meni aybim"

2) "Hechqisi yo'q"

3) "E'tiborliroq bo'lsangiz bo'lmaydimi"

19. Yoshlar orasidagi bezorilik haqidagi maqolaga siz qanday munosabat bildirasiz?

1) "Qachon axir, jiddiy choralar ko'riladi"

2) "Jismoniy jazo choralarini kiritish kerak"

3) "Hammasini yoshlarga ag'darish to'g'ri emas, tarbiyachilar ham aybdor"

20. Tasavvur qiling sizda boshqatdan tug'ilish imkoni tug'ildi, lekin hayvon bo'lib, qaysi hayvonni ma'qul ko'rasiz?

1) SHer yoki leopard

2) Uy mushugi

3) Ayiq.

## **Natijalar tahlili.**

36-44 ochko. Siz o'rtacha darajada tajavvuzkorsiz, lekin hayotda muvofaqiyatli qadam tashlayapsiz. Sizda samimiy izzatlablik va ishonch bor.

45 va undan ortiq. Siz ortiq darajada tajavvuzkorsiz va ko'pincha boshqalarga nisbatan betayin va judayam shavqatsizsiz, siz o'zingizni metodlaringizga ishongan holda rahbarlikka ko'tarilishga umid qilasiz, bunda oila a'zolaringiz va atrofingizdagilar manfaatlarini qurbon qilasiz.

35 va undan past. Siz haddan ziyod tinchliksevarsiz, bu esa sizda o'zingizning kuchingizga va imkoniyatlaringizga ishonch yetarli emasligini anglatadi. Bu albatta sizni har doim egilishingizni bildirmaydi. Baribir ham sizga ko'proq qat'iylik bo'lishi halaqit bermaydi.

Agar siz 7 ta va undan ko'p savollarga 3 balldan va 7 tadan kam savollarga 1 tadan ball to'plagan bo'lsangiz, unda sizning tajavvuzkorona portlashlaringiz yaratuvchanlikdan ko'ra buzg'unchilik harakteriga ega.

Siz o'ylab ko'rilmagan ishlarga va ayovsiz munozaralarga moyilsiz. Siz odamlarga mensimaslik bilan qaraysiz va o'z xulqingiz bilan janjalli murossasizlik holatlariga undaysiz, vaholanki ularni oldini olishingiz mumkin.

Agar siz 7 ta va ko'proq savollarga bir ochkodan va 7 tadan kam savollarga 3 ochkodan olsangiz, unda siz haddan ziyod odamovisiz. Bu degani sizda tajavvuzkorlik, shoshilishlik begona emas, lekin siz uni judayam bostira olasiz.

## **Avtoportret testi.**

Mualliflar: Ye.S. Romanova, S.F.Potemkina. proektiv metodikalardan biri. Katta maktab o'quvchilarining shaxsini diagnostika qilish uchun qo'llanishi mumkin. Avtoportret – insonning o'zi chizgan qiyofasi. Bu metodikaning ikki xil interpretatsiyasidan biri mualliflar, ikkinchisi R.Berns (AKSH) tomonidan taklif qilingan.

### **Interpretatsiya № 1**

«Avtoportret» testi R.Berns (AKSH, Insonlararo munosabatlarni rivojlantirish instituti, Sietl) tomonidan qo'llanganda, u kishilarga o'zining yakka xoldagi yoki oila a'zolari bilan birga, xamkasblarning orasida tasvirlashni iltimos qilgan. R.Berns shunday yozadi: «Siz uyga kelib ukirib-ukirib yiglashingiz mumkin, ammo ishxonada bunday qilmaysiz. Bu xolatingiz siz chizgan portretida o'z aksini topadi». Uning fikricha, avtoportretidagi belgilar quyidagicha aniqlanishi mumkin.

- Bosh. Katta bosh rasmi odatda katta intellektual (aqliy) da'vogarlikni yoki o'z ntelektidan norozilikni bildiradi. Kichik bosh rasmi odatda intellektual yoki ijtimoiy noadekvatik xissini aks ettiradi

- Ko'zlar. Rasmdagi katta ko'zlar odatda gumonsirashni aks ettiradi shuningdek ular xavotirlanishni va ijtimoiy fikrga nisbatan o'ta sezuvchanlikni bildiradi. Ko'zdagi uzun kipriklar-noz karashmani, o'zini ko'z-ko'z qilishni bildiradi. Kichkina yoki yopiq ko'zlar o'ziga butunlay berilganlik va introversiyaga bo'lgan intilishni ko'rsatadi.

- Og'iz Og'izning aloxida ajratib kursatilmaganligi extimoli bulgan: nutqy qiyinchiliklarni va oddiy (sodda) ogzakii tendentsiyalarni bildiradi. Rasmda og'izning yo'qligi yo depressiyani (ogir ruxiy siqilish) yoki muloqotdagi sustkashlikni ifodalaydi. Masxarabozning og'zi majburiy iltfot belgis i.

-Tishlar. Tajovuzkorlik (agressivlik).

- quloqlar va burun. Katta quloqlar tanqidga nisbatan sezgirlikni, kichik quloqlar esa xech qanday tanqidni qabul qilmaslikka intilishni bildiradi. Burunga nisbatan aktsent qilish seksual maylni mavjudligini bildiradi. Burun kataklarining aloxida ko'rsatilishi agressiyaga moyillik borligidan dalolat beradi.

- Qo'llar. Qo'llar shaxsning atrof olam bilan bog'liqligining belgisidir. Tortinchoq qo'llar qattiq mas'uliyatli, odamovi shaxs tug'risida dalolat beradi. SHalviragan xolda tashlab qo'yilgan qo'llar samarasizlikni bildiradi. Murt, nimjon qo'llar jismoniy yoki psixologik nimjonlikni, vasiylikka bo'lgan extiyojni, bog'liqlikni bildiradi. Uzun - baquvvat qo'llar izzat-nafslilik (nafsoniyati kuchlilik)ni va tashqi olam xodisalariga kuchli kirishuvchanlikni bildiradi. Juda kalta qo'llar yoki qo'llarning yo'qligi noadekvatlik xissini bildiradi. qo'l orqaga qilingan, yoki chuntakda bulsa, bu ayibdorlik xissi, o'sgan qo'l siqilgani agressiya. Qo'lda barmoqlar beshdan ko'p bulsa, tajovuzkorlik, jizzakilik. Barmoqlar mushtga siqilgan bo'lsa - g'arshilik jalayon.

- Oyoqlar. Uzun oyoqlar mustaqillikka bo'lgan extiyojni anglatadi. Oyoqsiz rasm turg'unlikning yuqligi. suyanchiqning va asosning yuqligi, jur'atsizlik

- Gavda xolati. Agar odam ensasi ko'rinadigan qilib chizilgan bo'lsa, bu odamovilikning namoyon bo'lishi. Agar bosh yon tomondan kurinishda chizilgan bo'lsa ijtimoiy atrof muxit tufayli paydo bulgan xavfsirashdan dalolat. Agar stulning chekkasida o'tirgan odam rasmi chizilgan bo'lsa - sharoitdan chiqish yo'lin topish xoxishi, yakkalanib qolishdan qo'rqish. Yugurib borayotgan odam- kimdandir yashirinish xoxishini bildiradi.

Ko'rsatkichlar va ularning taxlili.

Rasmning qog'ozdagi xolati. Agar rasm vertikal qo'yilgan varaqning o'rta chizig'i joylashgan bo'lsa – bu norma xisoblanadi. Oq yoki sarg'ishroq qog'oz va o'ta yumshoqlikdagi qalamdan foydalanish kerak: oq, silliq qog'oz, ruchka yoki flomaster ishlatmaslik kerak.

Rasm varag'ning yuqorigi chekkasiga yaqin joylashgan bo'lsa qanchalik yaqin bulsa shunchalik yaqqolroq o'z-o'zini yuqori baxolash, uzining jamiyatda

egallagan xolatidan o'z atrofdagilarning tan olishining yetarli emasligidan norozilik, o'zini tasdiqlashga bo'lgan tendensiya sifatida baxolanadi.

Rasmning pastki qismidagi xolati – teskari tendensiya, o'ziga ishonchsizlik, o'z-o'ziga past baxo, tushkunlik, jura'atsizlik, o'zining jamiyatdagi xolatiga, o'zining tan olinishiga qiziqmaslik, o'z-o'zini tasdiqlashga bulgan tendensiyaning yo'qligi.

Shakl (figura)ning markaziy qismi: bosh yoki uning o'rnini bosuvchi bo'lak.

Bosh o'ngga qaragan – faoliyatiga xarakatchanlikka bulgan tur'un tendensiya deyarli nima o'ylanilgan, rejalashtirilgan bo'lsa barchasi amalga oshiriladi, yoki juda bo'lmasa, amalga oshirilib boshlanadi (xatto oxiriga yetkazilmasa-da). Sinaluvchi o'z tendensiyalarini amalga oshirishga faol kirishadi.

Bosh chapga qaragan – refleksiyaga (o'z tug'risida o'ylashga), fikrlashga bo'lgan tendensiya. Bu xarakat odami emas: fikrlarning fakat ozgina qismi amalga oshadi yoki amalga osha boshlaydi. Ko'pincha faol xarakatlardan qurqish yoki jur'atsizlik (Variant: xarakatga bo'lgan tendensiyaning yo'qligi yoki faollikdan qo'rqish – buni qo'shimcha aniqlash zarur).

Boshda sezgi organlariga mos keladigan detallar – quloqlar, og'iz, ko'zlar joylashgan bo'lsa informatsiyalarga bo'lgan qiziquvchanlik, atrofdagilarning o'zi tug'risidagi fikrlarning axamiyatligi. Boshqa kursatkichlar va ularning majmuiga qarab qushimcha ravishda odam ijobiy baxo olish uchun Biron-bir narsa qiladimi yoki atrofdagilarning baxosiga nisbatan uz xatti-xarakatlarini uzgartirmasdan, fakat xissiy javob (xursandchilik, mag'rurlanish, xafa bulish, achinish) beradimi, shuni aniqlanadi. Sal ochilgan og'iz til bilan birgalikda, lekin lablar anik chizilmagan bulsa – bu katta nutqiy faollik (kup gaplik) deb baxolanadi, bunga anik chizilgan lablar xam qushilsa sezgirlik, ba'zida u xam bu xam birgalikda bulishi mumkin. Ochiq og'iz aniq chizilgan til va lablarsiz bulsa, ayniqsa qattiq chizilgan bulsa – xavotirlanish, qurquv, ishonchsizlikning osonlikcha paydo bulishi deb qaraladi. Og'izda tishlar xam bulsa – nutqiy tajovuzkorlik, kupchilik xollarda ximoyaviy tajovuz: a) unga nisbatan salbiy xarakterda bulgan munosabatlarga qarata g'ijinish,



qo'pollik va b) bolalar va o'smirlar uchun aylana shakldagi qattiq chizilgan og'iz rasmi xos qurquv, xavfsirash).

Ko'zlarga aloxida axamiyat beriladi. Bu odamga xos bulgan qurquv kechinmasini simvolidir: bu narsa ko'zning pardasi bilan ta'kidlanadi. Kipriklarning borligi yoki yuqligiga e'tiborini qaratish kerak. Kipriklar – xulq-atvorning jazava – namoyishkorona manevrlari: erkaklar uchun: ko'z qorachig'i bilan kuz pardasi mos ravishda chizilgan bulsa, ayollarga xos xarakter belgilari. Kipriklar – tashki chiroyi va kiyinishi manerasiga boshqalarning e'tibor berishiga qiziqish, ya'ni bu narsaga katta e'tibor berish.

Bosh xajmining gavdasiga mos ravishda kattalashganini odamning uzida va atrofida mavjud bulgan ratsional boshlanish (extimol, eruditsiya)ni baxolashidan dalolat beradi.

Boshda shuningdek, qushimcha detallar xam bulishi mumkin: masalan shox-ximoya, tajovuz. Boshqa belgilar – tirnoqlar, dag'al jun, ignalar bilan birgalikda bulsa Ushbu tajovuzning xarakterini aniqlash kerak, spontan yoki ximoyaviy – javob. Parlar uzini bezashga, uz-uzini oqlashga va namoyishkoronalikkka bulgan tendentsiya. Yol, jun, prichyoskaga uxshagan soch – sezgirlik, uz jinsini ta'kidlash, ba'zida esa, uzining seksual roliga bulgan orientirovka.

Figuraning tayanch qismlari ( oyoqlar, panjalar, ba'zida postament). Bu qismning butun figuraning razmeriga nisbatan va shakl buyicha asosiyliigi kurib chiqiladi:

a) asosiylik uylanilganlik qaror qabul qilishning ratsionalligi xulosalarga fikrlarning shakllanishiga olib boradigan yullar, axamiyatli xolatlarga va muxim informatsiyalarga tayanish;

b) fikrlarning yuzakiligi, xulosalardagi yengiltaklik va fikrlarning asossizligi, ba'zida qaror qabul qilishdagi impulsivlik (ayniqsa oyoqlar yo'q bulsa yoki oyoqlar deyarli yuq bulsa).

Oyoqlarning korpus bilan birlashishi xarakteriga e'tibor berish kerak, birlashishi aniq, puxta yoki palapartish, juda nimjon birlashtirilgagn yoki umuman birlashtirilmagan – bu uz fikrlarni, xulosalarini, qarorlarini nazorat qilish

xarakterini bildiradi. Oyoqlar, panjalar tayanch qismlar barcha elementlarining bir xilligi va bir xil yunalganlik fikrlarning va qaror qabul qilishlarning ustanovkalarining konformliligi (kelishuvchanlik), ularning standartliligi va oddiyliigi. SHakllardagi va bu detallarning xolatidagi rang-baranglik – ustanovka va fikrlarning uziga xosligi, mustakillik va oddiy emaslik, ba’zida xatto ijodiy boshlanish (mos ravishda shaklning odatdagidek emas) yoki boshqacha fikrlash (potologiyaga yaqin).

Shakl (figura)dan yuqoriga kutarilgan qismlar:

Funksional, qisqichlar yoki bezovchi bulishi mumkin: qanotlar, qo’shimcha oyoqlar, qisqichlar, zirx qismlari, parlar, jingalakka uxshagan bantiklar, guli – funksional detallar – inson faoliyati turli soxalarini qamrash energiyasi, uziga ishonch yoki qiziquvchanlik, imkoni boricha kuproq atrofdagilarning ishlarida ishtirok etish xoxishi, quyosh ostida uz joyini egallash, uz faoliyatiga berilganlik. Bezovchi detallar – namoyishkoronalik, atrofdagilarning e’tiborini uziga qaratishga intilish (masalan, to yoki uning mavjud bulmagan ramzini tovus parlari bilan bezatilgan sultonla aks ettirish).

Dumlar. Uz xarakatlariga, qarorlariga, xulosalariga nutqiy maxsulotlariga bulgan munosabatini aks ettiradi – bunda dum (qogozda) unnga yoki chapga burilganligiga e’tibor berilishi kerak. Dumlar unnga burilgan – uz xarakatlari va xulq – atvoriga munosabat. CHapga burilgan bulsa – uz fikrlariga, qarorlariga boy berilgan imkoniyatlariga, uzining jur’atsizligiga munosabat. Bu munosabatning ijobiy yoki salbiy tusdaligi dumning yuqoriga yunalganligida (ishonch bilan, norozilik, uzining xakligiga ishonmaslik, qilingan, aytilgan narsadan afsuslanish va xakozolar) aks etadi. Dumning bir nechta qismlaridan, ba’zida takrorlanuvchi zvenolardan tashkil topganligiga, tushib turganligiga, uzunligiga va ba’zida shoxlab ketganligiga e’tiborni qaratish kerak.

Shakl (figura) konturlari. Burtib chiqishlar (qalqon, zirx, igna singari) kontur chiziqlarni chizib tashlashlar va buyab qoraytirishlar borligi yoki yuqligiga qarab taxlil qilinadi. Bu – atrofdagilardan ximoya, agar rasm utkir burchalarda chizilgan bulsa – tajovuzkorona ximoya; agar konturlar buyalgan, «iflos kilingan» bulsa –

qurquvli va xavfsirashli ximoya; agar qalqonlar, «Tusiqlar» quyilgan, chiziq ikkilangan bulsa xavfsirovchi, gumonsirovchi ximoya. Bunday ximoyaning yunalganligi fazoviy joylashuvga mos ravishda: figuraning yuqoriga konturi yukori mansabda turuvchi, ta'qiqlash chegaralab quyish imkoniga ega bulgan majburlashni amalga oshira oladigan shaxslarga qarshi, ya'ni yoshi kattalarga, ota-onalarga, uqituvchilarga, boshliqlarga, raxbarlarga qarshi; pastki kontur – uz ustidan kulishlaridan, uzini tan olmasliklaridan, uz qo'l ostidagilarning oldida, yoshlar orasida xurmatsizlikdan ximoya, muxokamalardan qurqish, yonidagi konturlar – aniq yunaltirilmagan xavfsirash, turli kurinishdagi va turli sharoitlarda uz-uzini ximoya qilishga tayyorgarlik; agar konturda joylashmagan bulsa, konturni ichida bulsa, xayvon korpuisning uzida bulsa – xudi shunday «ximoya» elementlar. Ungda bulsa – kuproq «real» faoliyat jarayonidagi ximoya, chapda bulsa uz fikrlari e'tiqodi, qarashlarini ximoya qilish.

Umumiy energiya tasvirlangan detallar miqdori baxolanadi – uylab topilgan mavjud bulmagan xayvon tugrisidagi tasavvurni berish uchun zarur bulgan miqdordagi belgilar (gavda, yuosh, qo'l – oyoqlar yoki tana, dum, qanotlar va sh.k); tuldirilgan konturlik, shtrixlarsiz, kushimcha chiziklar va kismlarsiz, oddiygina kontur yoki fakatgina zarurini emas, xatto konstruktsiyani murakkablashtiruvchi qo'shimcha detallarni xam ayamaskan ortiqchasiga tasvirlash mavjud ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Mos ravishda tashkil qiluvchi qismlar va elementlar kup bulsa (zarurlaridan tashqari), energiya shunchalik yuqori buladi. Aksincha bulsa – energiyani tejash, organizmning astenikligi, surunkali somatik kasallikdir. (Xudi shu narsa chiziqning xarakteri orqali – urgimchak tursimon nimjon chiziq, «qalamni qogozga tegizgan xolos», qalamni bosmagan bulsa tasdiqlanadi). CHiziqning aksincha xarakterdaligi – bosib chizilgan bulsa –bu aksincha xarakteristika emas, bu energiya emas, balki xavotirlanish belgisi. Juda qattiq bosib chizilgan (xatto qogozning orqa tomonidan kurinib turadigan) chiziq'larga e'tibor berish kerak – bu kattik xavotirlanish. qaysi bulak, qaysi simvol shunday badarilganligiga (ya'ni xavotirlani nimaga bogliqligiga) e'tibor berish kerak.

CHiziqlar xarakterini baxolash (chiziqlarni takrorlash, e'tiborsizlik, saranjom sarishtalikning yuqligi, rasmning ayrim kismlarining qoraytirilgan, «ifloslanish» vertikal chizig'idan og'ish va boshqalar). Piktogrammani taxlil qilgandagi singari baxolanadi.

Mazkur jixatdan xayvonlar taxlika ostida bulganlar daxshatli va neyral turlarga bulinadi. Bu uz shaxsiga bulgan, uzining «Men»ga bulgan munosabatini bildiradi, uzini axamiyatiga kura aynan uxshatishiga (identifikatsiya kilishga) kura uzining olamdagi, urni tugrisidagi tasavvurini bildiradi. Bu yerda rasm chizilgan xayvon – rasmni chizayotgan odam uzining vakili.

CHizilayotgan xayvonning odamga uxshatilishi xayvonni tika yuradigan kilib turтта oyok urniga ikki oyokka turgizib kuyish, xayvonga odam kiyimlarini (ishton, yubka, bantiklar, kuylak, kamar) kiydirish, xayvon basharasini odamnikiga uxshatish, oyoq va panjalarni qo'lga uxshatish – infantillik, xissiy norasolikdan dalolat beradi, bu xayvonni «Odamlashtirishning» namoyon bulish darajasiga mos ravishda buladi.

Tajovuzkorlik darajasi rasmdagi burchaklarning miqdori, joylanishi va xarakterida aks etadi, bunda burchaklarning tasvirning u yoki bu detali bilan bog'liqligi axamiyatiga ega emas. Bunda tajovusning belgilari namoyon buladigan burchaklar – tumshuqlarning axamiyati shuningdek, jinsiy belgilar – yelin, emchaklar, kukrakka (odam figurasida) aktsent qilishga e'tiborni qaratish kerak. Bu jinsga bulgan munosabat, xatto seks muammosiga qaratilganlikni bildiradi.

Aylana shakli (ayniqsa – xech narsa bilan tuldirilmagan bulsa) yopiqlik belgisi, maxfiylikka, o'z ichki dunyosining yopiqligiga, atrofdagilarga o'zi tug'risida ma'lumot bermaslikka intilishga, sinovga tortilishni xoxlamaslikka bulgan tendentsiyani bildiradi. Bunday rasmlar odatda taxlil uchun juda kam ma'lumot beradi.

«Xayvon» tanasiga xar xil mexanik qismlar qo'shib quyish – xayvonni postamentga, traktor yoki tank gusenitsalariga, uch oyoqqa qo'yish, boshga charxpalak, vint maxkamlash, kuzlariga elektr chiroqlar qo'yish, xayvon tanasiga va oyoqlariga dasta (sop), klavish va antennalar qo'yish xollariga e'tibor qaratish

kerak. Bu asosan shizofreniya bilan xastalanganlarda va chuqur shizoid tiplarda kuzatiladi.

Ijodiy imkoniyatlar odatda figurada tuplangan elementlar miqdorida aks etadi: «tayyor», mavjud xayvonga detallar yopishtirilsa, masalan, qanotli mushuk, parli baliq vash u kabi mavjud bulmagan xayvon paydo bulsa bu siyqasi chiqqanlik, ijodiy yunalishning yo'qligidir. Originallik esa tayyor qismlardan emas, balki mayda elementlardan figura tuzishda aks etadi.

Nomlanish mazmuniy bulaklarni ratsional birlashtirishda ifodalanishi mumkin (uchar quyon, «begimot», «muxojir» va boshqalar). So'z tashkil etishning boshqa varianti – kitobiy bulishi mumkin. Birinchisi – ratsionallik, orientirovkada va moslanishda konkret yunalish, ikkinchisi – namoyishkoronalik, asosan o'z aqlini, eruditsiyasini, bilimlarini namoyish qilishga yunalganlik. Xech bir mazmunga ega bulmagan yuzaki – tovushlardan iborat so'zlar xam bo'lishi mumkin, bu atrofdagilarga yengiltaklik bilan munosabatda bulish, xavf signalini inobatga ola bilmaslik, tafakkur asosida effektiv kriteriylarning mavjudligi, fikrlarda ratsionallikka qaraganda estetik elementlarning ustunligi.

Xazil – yumoristik nomlar («rinochurka», «puzirend» va boshqa) – atrofdagilarga nisbatan xazil – takaddurlik munosabatini bildiradi. Infantil nomlar odatda takrorlanuvchi elementlarni o'z ichiga oladi («gru-gru», «lyu-lyu», «kus-kus» va boshqa) xayolparastlikka (odatda ximoyalalanuvchi) ishonish uzundan uzoq nomlarda aks etadi («aberosinotikliron», «tulobarnikletalieshiniya va boshqalar).

#### Interpretatsiya № 2

Mazkur interpretatsiya orqali insonning o'zi xaqidagi, o'zining tashki tuzilishi, o'zining shaxsi tug'risidagi tasavvurlarini bilish, individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Estetik tasvir – rassomlik qobiliyatlari bo'lgan badiiy tip.

Sxematik tasvir – ilmiy tip.

Realistik tasvir /o'ta tafsilotlar bilan chizilgan rasm/ - mayda – chuydaga ko'p e'tibor beruvchi tip.

Metamorfik tasvir /odam uzini biron predmet, masalan, choynak, probirka, o'simlik, xayvon, badiiy personaj ko'rinishida ifodalagan rasm/ - fantaziyasi yaxshi rivojlangan, ijodiy qobiliyatlarga ega, albatta, ko'ngilchan, kulguga moyil tip.

Emotsional tasvir /biror emotsional xolatni ifodalovchi rasm/ - juda yuqori emotsional ta'sirlanuvchanlikka ega tip. U odatda o'zining xozirgi emotsional xolatiga teskari xolatni tasvirleydi. Masalan: xafa bo'lsa-da, kulayotgan yuzni chizishi mumkin.

Xarakatdagi tasvir-xarakatchanlikka moyil, odatda sport, raqs bilan shug'ullanuvchi tip.

Orqaning tasviri – belgilangan tartiblarga zid xarakat qiluvchi tip.

«Avtoportret» testidan olingan ma'lumotlarni shuningdek, Rid sxemasi bo'yicha tartibga solish va rasmning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Sanab o'tuvchi rasm bitta avtoportret chizib berish iltimos qilinganiga qaramay bir necha avtoportretlar chizilgan rasm - fikriy ekstrovert.

Organik rasm odamni usimliklar, xayvonlar qurshovida, tabiat quynida tasvirlovchi rasm- fikriy introvert.

Gaptik rasm odamni biror bir xolatda kupincha «tishi og'riyotgan», «boshi og'riyotgan» xolatlarda tasvirlovchi rasm - sensor introvert.

Emfatik rasm odamni biror emotsional muxitda tasvirlovchi rasm - sensor estravert.

Dekorativ rasm portretni turli bezaklar bilan, chiroyli ramkalarda, yorqin ranglar bilan tasvirlovchi rasm - sensor ekstravert.

Imajitar rasm odamni biror bir adabiy qaxramon yoki xayoliy obraz tarzida tasvirlovchi rasm - emotsional introvert.

Ritmik rasm xarakatdagi odamni masalan, yurayotgan, zinadan chopayotgan va x. odamni tasvirlovchi rasm- intuitiv ekstrovert.

Strukturali rasm odamni qanday bo'lsa, shundayligicha, ba'zan fakat yuzi, byustni yoki buy-bastni tasvirlovchi rasm - intuitiv introvert.

Ushbu belgilar buyicha quyidagi jadvaldagiga uxshab, turli rasmlar o'rtasidagi miqdoriy farqlarni aniqlash mumkin.

**Yolg'izlikni o'lchashning modifikatsiyalashtirilgan shkalasi.**

Yo'riqnoma: quyida berilgan xolatlarni qanchalik tez-tez xis etishningizni kursating. Buning uchun «xech qachon», «kamdan-kam», «ba'zida», «tez-tez» javoblaridan biriga to'g'ri keluvchi ballni doira ichiga olib quyding.

	xech kachon	kamdan - kam	ba'zida	tez-tez
*01. Men atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda ekanimni xis etayapman.	1	2	3	4
*02. Men do'stona muloqotga muxtojman	1	2	3	4
*03. Men ʻirorta odamga xam murojaat qila olmayman.	1	2	3	4
*04. Men o'zimni yolg'iz xis etmayapman.	1	2	3	4
*05. Men o'zimni do'stlarim guruxining bir qismi deb xis etaman.	1	2	3	4
*06. Men atrofimdagilarga xos ko'pchilik xususiyatlarga egaman.	1	2	3	4
*07. Endilikda mening uy-xayollarim faqat o'z ichki xisseyotlarim va fikrlarim bilan cheklanib qolmayapman.	1	2	3	4
*08. Xech Kim mening fikrlaringa va gaplaringa qushilmayapti.	1	2	3	4
*09. Men odamlardan tez	1	2	3	4

uzoqlashadigan odamman.				
*10. SHunday odamlar borki, men ularga nisbatan chuqur tuyg'ular xis etaman.	1	2	3	4
*11. Men o'zimni tashlab ketilgandek xis etayapman.	1	2	3	4
*12. Mening ijtimoiy muxit bilan bo'lgan aloqalarim unchalik chuqur emas.	1	2	3	4
*13. Xech Kim mening xaqiqatan qanday ekanimni bilmaydi.	1	2	3	4
*14. Men o'zimni boshqalardan ajralib qolganday xis etayapman.	1	2	3	4
*15. Men istagan paytimda do'st orttira olaman.	1	2	3	4
*16. Meni juda yaxshi biladigan odamlar bor.	1	2	3	4
*17. Men boshqalardan uzoqlashib qolganim bois baxtsizman.	1	2	3	4
*18. Odamlar atrofimda, biroq men bilan emas.	1	2	3	4
*19. SHunday odamlar borki, men ular bilan suxbatlasha olaman.	1	2	3	4
*20. SHunday odamlar borki, men ularga murojaat qila olaman.	1	2	3	4



## Natijalarni qayta ishlash va talqin etish.

SHkalaning umumiy balli 20 bandning barchasidan to'plangan ballarni qo'shib chiqish yo'li bilan aniqlanadi. Yulduzcha bilan belgilangan bandlarda ballarni aniqlashdan oldin ularni teskari yo'nalishda o' chiqish kerak. Bunda 1=4, 2=3, 3=2, 4=1 bo'ladi. Yolg'izlikning maksimal kursatkichi 80 ball.

Yolg'izlik xissining quyidagi uch darajasi aniqlangan:

1- daraja – yolg'izlik xissining yuqori darajasi, omillarning kamida bittasi bo'yicha yolg'izlik xissining o'ta kuchayib ketganligi (54-80 ball).

2- daraja – yolg'izlik xissining o'rta darajasi, individ ijtimoiy-psixologik aloqalarining kamligini kompensatsiyalashga va yolg'izlik xissini susaytirishga qodirligi (28-54 ball).

3- daraja yolg'izlik xissining past darajasi, og'ir yolg'izlik xissining yo'qligi (0-28 ball).

Natijalar sifat jixatidan taxlil qilinganda, atrofdagilar bilan psixologik aloqalar darajasiga e'tibor berish kerak. «Yolg'izlik shkalasi»dan kelib chiqib, Ushbu aloqaning uch ulchamini baxolash mumkin:

15.«Yaxshi ko'rishadi» - emotsional komponent (1,4,10,11,7,17)

16.«Tushunishadi» - kognitiv komponent (2,6,9,13,16,19).

17.«qabul qilishadi» - ijtimoiy komponent (3,5,8,12,14,15,18,20).

Xar bir ulchamga mos keluvchi savollar miqdori va ballar yig'indisi teng emasligini xisobga olib, natijalar xolisligini ta'minlash maksadida barcha o'lchamlar uchun o'rtacha arifmetik qiymatni xisoblab topish (ballar yig'indisini savollar – bandlar miqdoriga bo'lish) kerak.

Uchinchi o'lcham bo'yicha ballarning yuqoriligi «tashqi» psixologik aloqalar o'ziga xosligini belgilaydi va tashqi begonalashuvning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi va ikkinchi o'lcham buyicha ballarning yuqoriligi «ichki» psixologik aloqalar uziga xosligini belgilaydi va ichki begonalashuvning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

## O'smir va o'spirinlar uchun yolg'izlik shkalasi bo'yicha

O'rtacha ballar.

Yosh guruxi	Respondentlar miqdori	Yolg'izlik bo'yicha o'rtacha ball
O'smirlar (11-15)	150	8,17
O'spirinlar (16-23)	150	8,35

### Lyusherning ranglar testi

Lyusherning testi sinalayotgan odamning ma'lum bir faoliyati, kayfiyatiga, funksional holat va shaxsning eng barqaror tomonlariga yo'nalishi rang tanlashda ifodalanadi degan taxminda asoslangan.

CHet el psixologlari Lyusher testini kasbga yo'naltirishda, hodimlarni tanlashda, ishlab chiqaruvchi jamoani yig'ganida, etnik va gerontologik tadqiqotlarda, kelin-kuyovlar bir-birlarini tanlashdagi tavsiyalarida va boshqa hollarda ko'p ishlatiladi. Ranglarning ma'nosi ularning psixologik interpretatsiyasida har xil sinalayotganlarning ko'p sonli kontingentini har tomonlama o'rganish davomida tadqiq qilinadi.

Lyusher bo'yicha ranglarni ta'riflash 4 asosiy va 4 qo'shimcha ranglarni o'z ichiga oladi.

### ASOSIY RANGLAR

1. Ko'k-tinchlik, qoniqarli holatni ifodalaydi.
2. Ko'k-yashil-dadillik, qat'iylik gohida qaysarlik hissini ifodalaydi.
3. Sariq-qizil-irodali kuch, agressivlik, jangovarlik, va qo'zg'atuvchanlikni ifodalaydi.
4. Och-sariq-aktivlik, muloqotga intiluvchanlik, ekspansivlik, xushchaqchaqlik hissi.

Asosiy ranglar konfliktning yo'qligida optimal holatda ko'proq birinchi 5 pozitsiyani egallashi zarur.

Qo'shimcha ranglar:

1. siyohrang
2. jigarrang
3. qora rang
4. nolga barobor bo'lgan.

Ular salbiy yo'nalishlarni: xavotir, stress, qo'rquv, xafagarchilik hislarini bildiradi. SHu ranglarning (asosiy ranglar kabi) yuqori darajada pastda ko'rsatilganidek ularning o'zaro joylashishi, pozitsiyalariga bo'lib tashlashi aniqlanadi.

**Psixologi uchun ko'rsatma:** Rangli kartochkalarni aralashtiring va rangli tomonini tepaga qaratib qo'ying. Sinaluvchiga 8 rangdan eng yoqqanini tanlashni taklif qiling. Unga tushuntrish kerakki, u rangni shundayligicha, o'zining kiyimidagi yoqtirgan rangga, ko'zlarining rangiga va boshqalariga o'xshatmasligi kerak. Sinalayotgan 8 rangdan eng yoqimlisini tanlash zarur. Tanlangan kartochkani rangli tomonini pastga qaratilib bir chekkaga olib qo'yishi zarur. Pratsedurani qaytaring. Kartochkalarning nomerlarini qo'yilgan tartibda yozib oling. 2-3 daqiqadan so'ng kartochkalarni rangli tmonini tepaga ko'tarib qo'yib chiqing pratsedurani xuddi shunday qaytaring. SHundan tushunavering: sinalayotgan odam birinchi tanlashdagi tartibni eslamay, o'ngli ravishda oldingi tartibni o'zgartirmasligi kerak. U ranglarni xuddi birinchi martda ranglanganidek tanlashi kerak.

Birinchi tanlashni xoxlayotgan xolatni, ikkinchi haqiqiy xolatni ta'riflaydi. Tadqiqotning maqsadiga qarab sinovning natijalarini izohlash mumkin. Sinovning natijasida sakkiz pozitsiyani xosil qilamiz: birinchi va ikkinchi yaqqol afzal ko'rish (+ + deb belgilanadi).

Uchinchi va to'rtinchi afzal ko'rish (XX belgilanadi).

Beshinchi va oltinchi rangga befarqlik (= = belgilanadi).

Ettinchi va sakkizinchi rangga antipatiya ( - = belgilanadi).

Tadqiqotlarning 36,000 ziyod natijalarning tahlili asosida M.Lyusher tanlangan pozitsiyalarni taxminiy ta'rifini berdi.

Beshinchi pozitsiya maqsadiga yetish vositasilarini aks etadi. (masalan, ko'k rangni tanlash xotirjam ortiqcha zo'r berishsiz harakat qilish niyatini bildiradi)

Ikkinchi pozitsiya sinaluvchining intitlayotgan maqsadini ko'rsatadi.

Uchinchi va to'rtinchi pozitsiyalar rangni afzal qilish sinalayotgan bo'lgan haqiqiy situatsiyani xis etish yoki situatsiyaga qarab harakat qilish tarzini ta'riflaydi.

Beshinchi oltinchi pozitsiyalar rangga bo'lgan befarqlikni unga bo'lgan betaraf munosabatini bildiradi. Ular sinalayotgan o'zining holatini, kayfiyatini va motivlarini bu rangla bilan bog'lamasligini bildirmasligini bildiradi. Biroq bu pozitsiya ma'lum bir vaziyatda rangning rezerv izohlashiga ega bo'lishi mumkin, masalan, ko'k rang (xotirjamlik rangi) shu vaziyatga mos kelmaydigan vaqtinchalik chekkaga olib qo'yiladi.

Ettinchi va sakkizinchi pozitsiya rangga bo'lgan salbiy munosabatni, bu rang aks etadigan ehtiyoji, motivi, kayfiyatini bildirmaydi.

+ + x x = = - -  
3 4 1 0 2 5 6 7

Tanlangan ranglarning yozilishi nomerlarning ro'yhati afzal ko'rish tartibida pozitsiyalarni ko'rsatish orqali amalga oshadi.

Masalan, qizil, sariq, ko'k, kulrang, yashil, siyohrang. Jigarrang va qora ranglar tartibda tanlanganda quyidagicha yoziladi:

+ + x x = = - -  
3 4 1 0 2 5 6 7

(+ +; x x; = =; - -; ) zonalar 4 funktsional guruhni tashkil etadi.

### **Testdan o'tkazish natijalarini izohlash.**

Belgilaganimizdek, tanlanish natijalarini izohlash usullaridan biri asosiy ranglarga baho berishdir. Agar ular beshinchi pozitsiyadan keyingilarni egallasa, demak, ular ta'riflaydigan xossalari, ehtiyojlari qoniqtirilmagan, shunday ekan, xavotir, salbiy holat o'ringa ega.

Asosiy ranglarning o'zaro bo'lgan holati ko'rib chiqiladi. Masalan, NI va 2 (ko'k va sariq) yonma-yon joylashsa ( funktsional guruhni tashkil qilib), ularning asosiy xislati "ichkariga" sub'ektiv yo'nalishi ta'kidlanadi.

2va3 ranglari yonma-yon (yashil va qizil) joylashsa muhtorlik, masalani yechishda mustaqillik va tashabbuskorlikni ko'rsatadi. 3 va 4 (qizil va sariq) ranglarning birgaligi, boshqa yo'nalishlari ta'kidlanadi. 1 va 4 (ko'k va yashil) ranglarning birikmasi sinalayotganlarning muhitga qaramligining tasavvurlarini kuchaytiradi. 1 va 3 ( ko'k va qizil) ranglarning bitta funktsional guruhda birgaligi muhitga qaramlik va sub'ektiv yo'nalishining (ko'k rang) va muxtorlik, "ichiga" yo'nalish (qizil rang)ning g'animat balansi ta'kidlanadi. Yashil va sariq (2va4) ranglarning birikmasi "ichkariga" sub'ektiv yo'nalishi, muxtorlik va qaysarlik "tashqarisiga" yo'nalishiga, muhitga qaramlikka qarama-qarshiligi sifatida ko'riladi.

Lyusherning fikricha, asosiy ranglar quyidagi psixologik ehtiyojlarni ifodalaydi:

1. (Ko'k) qoniqishga, xotirjamlikka, barqaror ijobiy mehribonlikka bo'lgan ehtiyoj.
2. (Yashil) o'zini ta'kitlashga bo'lgan ehtiyoj
3. (Qizil) faolli harakatga va niyatga erishish ehtiyoji.
4. (Sariq) istiqbolga.

### **Nizolashuvchanlik darajasini aniqlash so'rovnomasi**

Mazkur so'rovnoma shaxsga nizolashuvchanlik xususiyati qanchalik xos ekanini aniqlashga xizmat qiladi.

1. Jamoat transportida boshlanib ketgan tortishuvga sizning munosabatingiz qanday bo'ladi?

A) ishtirok etaman; b) qaysi tomonni haq deb bilsam, uning oldini olib, biror narsa deyman, v) faol aralashib, butun zarbani o'zimga olaman.

2. Majlislarda rahbariyatni tanqid qilib chiqasizmi?

A) yo'q; b) yetarli asosga ega bo'lsam, tanqid qilaman; v) har qanday sabab bilan nafaqat rahbariyatni, balki uning oldini olganlarni ham tanqid qilaman.

3. Do'stlaringiz bilan tez – tez tortishib turasizmi?

A) hafa bo'lmaydiganlari bilan tortishaman; b) faqat ayrim jiddiy masalalarda tortishaman; v) tortishuv menga suv va havodek zarur.

4. Yaqinda kelib, navbat boshiga suqilib kirayotgan kishiga munosabatingiz qanday bo'ladi?

A) Ichimdan norozi bo'laman-u, indamayman; b) e'tiroz bildiraman; v) o'zim navbat boshiga turib, odamlarni tartibga chaqiraman.

5. Uyda dasturxonga tuzi past taom tortilganda, reaksiyangiz qanday bo'ladi?

A) arzimagan narsani deb dod –voy solmayman; b) indamay tuzdonni olaman; v) piching qilaman, ovqatlanishdan namoyishkorona bosh tortaman.

6. Ko'chada yoki transportda oyog'ingizni bosib olishsa, reaksiyangiz qanday bo'ladi?

A) aybdor odamga kinoyali qarab qo'yaman; b) ikki og'iz e'tiroz bildiraman; v) bisotimdagi hamma "chiroyli" so'zlarni to'kib sochaman.

7. Yaqinlaringizdan biri sizga yoqmaydigan narsa harid qilganda reaksiyangiz qanday bo'ladi?

A) indamay qo'ya qolaman; b) qisqacha fikr bildirib qo'yaman; v) tanqid qilib tashlayman.

8. Lotoreyada omadingiz chopmasa, bunga qanday munosabatda bo'lasiz?

A) o'zimni xech narsa bo'lmaganday ko'rsataman, ammo ichimda boshqa o'ynamaslikka o'zimga va'da beraman; b) hafaligimni berkitmayman va bir kunmas olamimni olmasam bo'lmaydi deb o'ylab qo'yaman; v) anchagacha kayfiyatim buzuq bo'lib yuraman.

Natijalarni hisoblash.

- Har bir "a" variant – 4 ball
- Har bir "b" variant – 2 ball
- Har bir "v" variant – 0 ball

## Natijalarni talqin etish

22 – 32 ball. Siz tinchliksevar, nizolardan osonlik bilan chiqib ketadigan, uyda ham, ishda ham tortishuvli vaziyatlardan o'zini olib qochadigan odamsiz. SHuning uchun odamlar sizni moslashuvchan inson, deb biladi. Unutmang, vaziyat taqazo qilganda printsiptiallikni namoyon etish ham hurmatga loyiq xususiyat.

12 – 20 ball. Siz nizolashuvchanroq odamsiz, biroq ilojsiz holatlardagina nizoga kirishasiz. Siz vaqti kelganda amalingiz va do'stlaringizni yo'qotib qo'yishdan qo'rqmay o'z fikringizni qattiq turib imoya ilasiz. Bunda obod – ahloq me'yorlaridan chetga chiqmaysiz, odamni haqorat qilmaysiz. SHuning uchun odamlar sizni hurmat qilishadi.

0 – 11 ball. Bahs, munozara, tortishuv – siz nafas oladigan havo. Boshqalarni tanqid qilishni yaxshi ko'rasiz, ammo sizni tanqid qilganlarni tiriklay "eb yuborishga" tayyorsiz. Vazminlikning yetishmasligi va qo'rslik odamlarni sizdan bezdiradi. Do'stlaringiz ko'pmi? Ko'p bo'lishini istasangiz, xarakteringiz ustida ishl

*Metodika manbasi: Ratanova T.A., SHlyaxta N.F. Psixodiagnosticheski metody izucheniya lichnosti: Uchebnoe posobie – Pererabotannoe i dopolnennoe izdanie posobiya: T.A.Ratanova, L.I. Zolotareva, N.F.SHlyaxta «Metody izucheniya i psixodiagnostiki lichnosti» - M.: Moskovskiy psixologo – sotsial'nyy institut : Flinta, 1998. 259 – 260 betlar.*

## **Empatiya qobiliyatini o'rganish metodikasi.**

Mazkur so'rovnoma I.M.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, empatiya qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida qo'llanadi. Empatiya insonning boshqalar kechinmalariga xamdard bo'la olish qobiliyati.

Ko'rsatma: «Xurmatli ishtirokchi, quyida berilgan 36 ta xukmga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring. Buning uchun siz baholashning quyidagi tizimidan foydalanishingiz lozim: 0- bilmayman; 1- yoki, hech qachon; 2- ba'zida; 3- ko'pincha; 4- deyarli doim; 5- ha yoki har doim».

1. Menga mashhur odamlarning hayoti xaqidagi kitoblardan ko'ra sarguzasht kitoblar yoqadi.
2. Ota- onalarning g'amxo'rligi katta yoshdagi bolalarning g'ashiga tegadi.
3. Menga boshqa odam erishgan muvoffaqiyat yoki uchragan muvoffaqiyatsizlikning sabablar xaqida mulohaza yuritish yoqadi.
4. Musiqiy ko'rsatuvlar orasidan men ko'proq «Estrada taronalari» ko'rsatuvini yoqtiraman.
5. Adolatsiz tanqidlar bir necha yillar davom etsa xam, ularga chidash kerak.
6. Kasalga xatto so'z bilan yordam berish mumkin.
7. Begonalar ikki kishi orasidagi nizoga qo'shilmasligi kerak.
8. Keksayganda odam juda injiq bo'lib qoladi.
9. Bolaligimda g'amgin hikoyani tinglaganimda, ko'zim o'z o'zidan yoshlanib ketardi.
10. Ota –onamning asabiylashishi mening ham kayfiyatimga ta'sir etadi.
11. Men tanqidlarga befarqman.
12. Men tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlardan ko'ra portretlarni tomosha qilishni yoqtiraman.
13. Ota- onam noxaq bo'lganda xam, men ularni kechirardim.
14. Agar ot aravani tortmasa, uni xivichlash kerak.
15. Boshqa odamlar hayotidagi fojealar xaqida o'qiganimda bu hodisalar men bilan ro'y berayotganday bo'lib tuyuladi.
16. Ota-onalar o'z fareandlariga nisbatan noxaq munosabatda bo'ladilar.
17. Janjallashayotgan bolalarni yoki kattalarni ko'rsam men ular o'rtasiga tushaman.
18. Men ota-onamning yomon kayfiyatiga e'tibor bermayman.
19. Men boshqa ishlarimni qoldirib, hayvonlar xatti –harakatini kuzataman.
20. Nega ayrim odamlar kinofilm ko'rib va kitob o'qib, ko'z yosh to'kishini tushunmayman.



21. Notanish odamlarning yuz ifodasi va xulq-atvorini kuzatish menga yoqadi.

22. Bolalikda men uyga qarovsiz qolgan kuchuk – mushuklarni olib kelardim.

23. Barcha odamlar biror sababsiz xam bir-biriga qarshi tishini qayrab turadi.

24. Begona odamga qarab, uning kelajagi qanday bo'lishini bilgim keladi.

25. Bolaligimda kichkintoylar hech ketimdan qolishmasdi. Jaroxatlangan hayvonni ko'rsam, unga qandaydir yordam berishga harakat kilaman.

26. Odamni e'tibor bilan tinglashsa, uning dardi yengillashadi.

27. Ko'chada biror qoida buzarligni ko'rsam, guvoxlar qatoriga tushib qolishdan o'zimni chetga tortaman.

28. Kichkinalarga men taklif etgan fikr, ish yoki ko'ngil ocharlign yoqadi.

29. Xayvonlar o'z egalarining kayfiyatini sezadi deganlar, menga mubolag'a qiladi.

30. Muomila vaziyatidan odamning o'zi mustaqil chiqishi kerak.

31. Bola besabab yig'lamaydi. Yoshlar qariyalarning hamma iltimosini va injiqliklarini bajo keltirishi kerak.

32. Nima uchun ayrim sinfdoshlarim ba'zida o'ychan bo'lib qolishlarini bilgim kelardi.

33. Karovsiz hayvonlarni tutish va yo'q kilish kerak.

34. Agar do'stlarim men bilan o'z shaxsiy muommosini muxokama qila boshlasa, gapni boshqa mavzuga burishga harakat qilaman.

Natijalarni qayta ishlash.

1. Natijalar xolisligini aniqlash. Javoblar xolisligini aniqlash uchun muyaan hukumlarga qanday javoblar berilganligini aniqlash lozim;

«Bilmadim»- 2,4,16,18,33.

«Ha yoki har doim»-2,7,11,13,16,18,23.

«Ha yoki har doim»-7va17,10 va 18, 17va31,22va35, 34va36.

«Yo'q yoki hech kachon»-3va36,1va3,17va28.

Eslatma: ma'lum juftlik kirgan ikkala hukum ( masalan, «ha yoki har doim»dagi 7 va 17 yoki «yo'q yoki hech qachon»dagi 3 va 36 raqamli hukumlarga bir hil «ha yoki har doim» yoki «yo'q yoki hech qachon» kabi munosabat bildirilgan bo'lsa, bu munosabat xolis emas.

Noxolis munosabat holatlari 5 teng yoki undan katta- umumiy natijaga ishonchli emas.

Noxolis munosabat holatlari 4 ga teng- umumiy natijaning ishonchli darajasi shubxali.

Noxolis munosabat holatlari 3 ga teng yoki undan kam- umumiy natija ishonchli.

2. Umumiy natijani aniqlash. Yakuniy natijani aniqlash uchun 2,5,8,9,10,12,13,15,16,19,21,22,24,25,26,27,28,29 va 32 raqami ostidagi xukumlarga qo'yilgan baholarning yig'indisini topish kerak.

Eslatma: so'rovnoma 6 ta shaklga ega bo'lib, quyida ushbu shkalalar hamda har bir shkalaga kiruvchi xukmlarning tartib raqami ko'rsatilgan.

№	shkalalar	xukumlar tartib raqami
1.	Ota onaga nisbatan empatiya	10,13,16.
2.	Xayvonlarga nisbatan empatiya	19,22, 25.
3.	Qariyalarga nisbatan empatiya	02,05,08.
4.	Bolalarga nisbatan empatiya	26,29,35.
5.	Badiiy qaxramonlarga nisbatan empatiya.	09,12,15.
6.	Notanish odamlarga nisbatan empatiya	21,24,27.

Natijalarni baholash.

Daraja	shakl buyicha	umumiy
Juda yuqori	15	82-90
Yuqori	13-14	63-81
O'rta	5-12	37-62
Past	2-4	12-36
Juda past	0-1	5-11

## O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish metodikasi

Metodika haqida ma'lumot. Test – so'rovnoma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim oluvchi shaxs ichki motivatsiyasining darajasini o'lchash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ta'lim oluvchilarning barcha guruhlari bilan (12 yoshdan boshlab) – o'z – o'zini tahlil qilishga va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi inson bilan o'tkazilishi mumkin.

Metodika T.D. Dubovitskaya tmonidan tuzilgan bo'lib, uning stimul materiali 20 ta ta'kiddan iborat. Mazkur ta'kidlar bo'yicha tekshiriluvchilar ma'lum fanlarga nisbatan o'z munosabatini bildirib, maxsus javob varaqasi (1 - jadval) ning muayyan ustun va startlarida tegishli belgilarni qo'yadilar: «to'g'ri» - (+ +); «to'g'ri, shekilli» - (+); «noto'g'ri, shekilli» - (+); «noto'ri, shekilli» - (- -); «noto'g'ri» - (- -).

### Javob raqasi

	O'rganilayotgan fanlar			
	Matematika	Psixologiya	...	...
1				
2				
...				

Qanday fanlarning tanlashi eksperimentator ixtiyorida

Ta'kidlar.

1. Ushbu fanni o'rganish orqali o'zim uchun ko'p kerakli narsalarni o'rganib olayapma, o'z qobiliyatlarimni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib turibman.
2. Bu fan menga qiziq va men shu fan yuzasidan imkon qadar kuproq narsa bo'lishni xohlayman.
3. mazkur fanni o'rganishimizda menga menga darsda beriladigan bilimlarning o'zi kifoyadir.
4. Ushbu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlar menga qiziq emas, men ularni o'qituvchi talab qilgani uchungina bajaraman.

5. Bu fanni o'rganishda oldimda paydo bo'luvchi qiyinchiliklar fanga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirib yuboradi.

6. Mazkur fanni o'rganishda darslik va tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishib boraman.

7. Ushbu fanga tegishli murakkab nazariy masalalarni o'rganmasa ham bo'ladi, deb hisoblayman.

8. Bu fanni o'rganishda biror ishning uddasidan chiqolmasa, men muammoning tagiga yetishga harakat qilaman.

9. Mazkur fandan dars o'tilganda negadir umuman o'qishni istamay qolaman.

10. Ushbu fan yuzasidan beriladigan topshiriqlar ustida faqat o'qituvchi nazorat qilib turgandagina ishlayman.

11. Bu fanga taaluqli ma'lumotlarni bo'sh vaqtda (tanaffuzda, uyda) sinfdoshlarim (do'stlarim) bilan muhokama qilish menga qiziq tuyuladi.

12. Mazkur fandan topshirilgan vazifalarni mustaqil bajarishga harakat qilaman, kimdirning maslahat va yordam berib turishini yoqtirmayman.

13. Ushbu fanga tegishli topshiriqlarni boshqalardan kuchirib olishga harakat qilaman yoki kimdandir vazifani o'rnimga qilib berishni iltimos qilaman.

14. Bu fan bo'yicha beriladigan barcha bilimlar kerak deb hisoblayman, shuning uchun bu fandan imkoni boricha ko'proq narsa bilish kerak degan fikrdaman.

15. Mazkur fan bo'yicha qo'yiladigan baho menga bu fandan beriladigan bilimdan muhimroq.

16. Ushbu fandan o'tkaziladigan darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsam, bundan unchalik qattiq xafa bo'lmayman.

17. Bu fan bilan shug'ullanish uchun men bo'sh vaqtimning ham katta qismini unga sarflayman.

18. Mazkur fanni qiyinchilik bilan o'zlashtiraman, shu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlarni o'z – o'zimni majburlab bajaraman.

19. Ushbu fan bo'yicha o'tkaziladigan darsda kasallik yoki boshqa sabab bilan qatnasha olmasam, xafa bo'lishim mumkin.

20. Agar imkoniyatim bo'lganda, men bu fanni dars jadvali (o'quv rejasi) dan olib tashlagan bo'lardim.

Natijalarni qayta ishlash va baholash.

Natijalar quyidagi kalit yordamida qayta ishlanadi:

«to'g'ri», «to'g'ri, shekilli» - 1, 2, 5, 6, 8, 11, 12, 14, 17, 19.

«noto'g'ri», noto'g'ri shekilli» - 3, 4, 7, 9, 10, 13, 15, 16, 18, 20.

Kalitga mos kelgan har bir holat uchun 1 balldan qo'yiladi. Barcha ballar yig'indisi qanchalik katta bo'lsa, tegishli fanni o'rganishda ichki motivatsiya shunchalik baland bo'ladi. Ballar yig'indisi qanchalik kichik bo'lsa, ichki motivatsiya darajasi shunchalik sust bo'ladi. Umumiy natijalarni baholashda quyida keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

0 – 10 ball – tashqi motivatsiya ustun;

11 – 20 ball – ichki motivatsiya ustun.

Ichki motivatsiya darajasini baholash uchun quyidagi me'yoriy ko'rsatkichlarga tayanish mumkin:

0 – 5 ball – ichki motivatsiya past darajada;

6 – 14 ball – ichki motivatsiya o'rta darajada;

15 – 20 ball – ichki motivatsiya yuqori darajada.

Eslatma: ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida birlamchi («xomaki») natijalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Metodika manbasi: Dubovitskaya T.D. K probleme diagnostiki uchebnoy motivatsii. Voprosy psixologii. – 2005. – S 73 – 7

## **SHAXSLARARO MUNOSABATLAR INTERPERSONAL TASHXISINING MODIFIKATSIYALASHTIRILGAN VARIANTI**

**(T.LIRI - SOBCHIK)**

O'smirning ijtimoiy voqelikdagi o'z-o'zini qidirish, shaxsiy xususiyatlarni aniqlash jarayoni ko'p hollarda ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Bolaligi nihoyasiga etgan-u, hali katta bo'lmagan inson -- o'smir uchun o'zining yangi «Meni» obrazini qidirish ancha og'riqli va davomiy kechadi.

Ularga e'tibor bermaslikka urinish o'smirning atrofdagilar bilan munosabatlari buzilishiga olib kelmaydi.

Shaxslararo munosabatlar sohasida vujudga keladigan nizolar o'smirlar tomonidan emotsional affektiv tarzda qabul qilinadi, ular barkamol shaxs kamolotiga to'sqinlik qilib, o'smirning hayotiy faoliyat samarasizligiga sabab bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlar tashxisining (T.Liri-Sobchik) modifikatsiyalashtirilgan varianti shaxslararo va ichki ziddiyatlar strukturasi o'rganish uchun juda qulay. Empirik jihatdan isbotlanganki, o'z-o'zini baholash strukturasi (real «Men» va ideal «Men»)dagi jiddiy o'zaro nomuvofiqlik shaxsning ichki disgarmoniyasidan darak berib, uning nizo uyg'otuvchi xulq-atvoriga sabab bo'ladi. Mazkur metodikaning qimmatini shundaki, u o'z-o'zini baholash tizimidagi nomuvofiqlikni va uning xarakterini aniqlashga qodir bo'lgan yagona o'lchov asbobi ekanidadir.

Xilma-xil psixodiagnostik metodikalar orasida shaxslararo munosabatlarning interpersonal diagnostikasi anketalar va ko'p omilli so'rovnomalarning ijobiy tomonlarini o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar esa motivatsiyalangan buzilishlar va sinaluvchining tadqiqot jarayoniga ustanovkalari ta'siridan xoli emas.

Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi metodi T.Liri (1969) ishlab chiqqan original variantdan asosan boshqa psixodiagnostik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslashda asoslab berilgan talqin bilan farqlanadi. Bundan tashqari, L.N.Sobchik tomonidan sport jamoalaridagi (1972, 1974, L.Sobchik), ishlab chiqarish jamoalari, talabalar jamoalari va boshqa turdagi kichik guruhlardagi (L.Sobchik 1986, M.Maleshina, 1986) shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida sinovdan o'tkazilgan metodikaning verbal materialini moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Ammo metodikani qo'llash amaliyoti so'rovnoma hukmlarining ayrimlari mukammal tuzilmaganligini ko'rsatdi. Bu holat metodikani tahrirlash va moslashtirish Yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga undadi.

Shuningdek, natijalarni qayd etish va hisoblab chiqishning o'zgacharoq qulay va tezkor usuli ishlab chiqildi.

Shaxs atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirning dolzarblashgan jarayonidagi xatti - harakatlarida namoyon bo'lishiga asoslanib Timoti Liri empirik kuzatishlarni shaxslararo o'zaro ta'sirining 8ta umumiy, yoki 16 ta tobora konkretlashtirilgan oktantlari – variatnlari ko'rinishida sistemalashtirgan. Shaxslararo xulq-atvor tiplariga muvofiq jami 128 ta anchagina oddiy tavsif-epitetlardan iborat so'rovnoma ishlab chiqilgan. Sifat tavsifi u yoki bu shaxslararo munosabatlar variantini aks ettiruvchi ustuvor tiplarni aniqlashni ko'zda tutadi. Oktantlarning ifodalanganlik darajasi tegishli ballar va shaxsning ma'lum tavsiflari bilan belgilanadi. Oktantlarning qutbiy tavsiflariga to'xtalib o'tamiz.

Shaxslararo munosabatlarning dastlabki (1, -2, -3, -4 -) to'rtta tipi nokonform tendentsiyalar ustunligi va dezYuktiv (konfliktli) ko'rinishlarga moyillik (3 - 4), fikrlarning ko'proq mustaqilligi va o'z nuqtai nazarini himoyalashda qat'iylik, liderlik va ustuvorlik tendentsiyalari (1 - 2) bilan xarakterlanadi. Qolgan to'rtta (5, -6, -7, -8 -) oktant aksincha kartinani namoyon etadi: konform tendentsiyalar ustunligi, atrofdagilar bilan aloqalarda kongruentlik (7, 8), o'ziga ishonmaslik, atrofdagilar fikriga yon bosish, murosaga moyillik (5,6)ni bildiradi.

Psixogrammada oktantlar berk tuzilma sifatida berilib, uning chegaralarida shaxslararo munosabatlardagi xulq-atvor uslubiga xos xususiyatlar joylashtirilgan. Ana shu shaxslararo munosabatlardagi xulq-atvor tiplariga muvofiq tarzda 128 ta sodda, turli xarakterli xususiyatlarni aks ettiruvchi epitetlar tuzilgan. Metodikaning modifikatsiyalashtirilgan variantida maxsus javob varaqasi mavjud bo'lib, unda 1 dan 128 gacha bo'lgan raqamlar shunday joylashtirilganki, har bir oktant bo'yicha ballarni hisoblash deyarli avtomatlashtiriladi.

So'rovnoma bandlari bo'yicha o'z-o'zini baholar ekan, sinaluvchi tegishli xususiyatni o'zi uchun xos deb bilganida, javob varaqasida unga mos raqamni o'chirib

qo'yishi, mos emas» degan fikrda bo'lsa, raqamga tegmay o'tishi kerak. Bunda quyidagicha yo'riqnoma beriladi: Sizing oldingizda insonga xos turli xususiyatlarni o'zida jamlagan so'rovnoma. Undagi har bir hukmni o'qib, so'ng u sizga, sizning o'zingiz haqingizdagi tasavvurlaringizga mos yoki mos emasligi to'g'risida o'ylab ko'ring. Agar mos deb hisoblasangiz, javob varaqasidagi tegishli raqamni «x» belgi qo'yib o'chiring, mos emas deb hisoblasangiz, javob varaqasida hech qanday belgi qo'ymang. E'tiborli bo'ling!

Sinaluvchi o'zi va o'zining dolzarb «Men» ini baholagach, unga o'z-o'zini baholash strukturasi o'zaro muvofiqlikni aniqlash uchun ideal «Men»ini baholash taklif etiladi. Bunda quyidagi yo'riqnoma beriladi: Endi siz yana o'sha so'rovnomadagi xususiyatlardan foydalanib, ideal «Men»ingizni, ya'ni siz intiladigan, siz talpinadigan, siz o'shanday bo'lishni xohlaydigan «Men»ni baholang. Har bir xususiyat ideal «Men»ingizga xos yoki xos emasligiga muvofiq (bu xususiyat sizning real «Men»ingizga ham xos yoki xos emas bo'lishi mumkin) javob varaqasidagi tegishli raqamni o'chiring yohud o'chirmay qoldiring.

## METODIKA SO'ROVNOMASI

### **SHunday qilib, Siz qanday odamsiz?**

- |  |   |
|--|---|
| 1. Yoqishni biladi.                        | 8. Beparvo (e'tiborsiz) bo'lishi                          |
| 2. Atrofdagilarda taassurot qoldira oladi. | mumkin.   |
| 3. Buyruq berish va ishlatishni biladi.    | 9. Qat'iyatli bo'la oladi.                                |
| 4. O'z gapini o'tkaza oladi.               | 10. Qattiqqo'l, lekin adolatli.                           |
| 5. O'z qadrini biladi.                     | 11. Samimiy bo'la oladi.                                  |
| 6. Mustaqil.                               | 12. Atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi. |
| 7. O'zini o'zi eplay oladi.                | 13. Xasrat qilishni yoqtiradi.                            |
|  | 14. Ko'pincha g'amgin.                                    |
|  | 15. SHubha qilishi mumkin.                                |



16. Ko'pincha xafsalasi pir bo'ladi (ko'ngli qoladi).
17. O'ziga nisbatan tanqidiy qaray oladi.
18. O'zining nohaqligini tan oladi.
19. Bajonidil bo'ysunadi.
20. Ko'ngilchan.
21. Minnatdor.
22. Qoyil qoluvchi va taqlidchilikka moyil.
23. Iltifotli.
24. Manzur bo'lishni xohlaydi, ma`qullashga intiladi.
25. Hamkorlik va yordamga tayyor.
26. Atrofdagilar bilan chiqishib ketishga intiladi.
27. Xayrixoh.
28. E`tiborli va muloyim.
29. Xushmuomala.
30. Ruhlantiruvchi.
31. Yordam so'raganda yordam berishga tayyor.
32. Beg`araz.
33. Maftunkor (mahliyo qila oladi).
34. Atrofdagilar hurmatiga sazovor.
35. Rahbarlik qilish, boshqarish iste`dodiga ega.
36. Javobgarlikni yoqtiradi.
37. O'ziga ishongan.
38. O'ziga ishongan va tirishqoq.
39. Uddaburon, omilkor (Epchil va tadbirkor).
40. Raqobatchi.
41. CHidamli, kerak joyda qattiqligini ko'rsatadi.
42. Qattiq qo'l, biroq beg`araz.
43. Badjahl.
44. Ochiq va bir so'zli (to'g`riso'z).
45. Buyruq berishlarini ko'tara olmaydi.
46. Skeptik, shubha qilaveradi.
47. Unga ta`sir ko'rsatish qiyin.
48. Arazchi.
49. Uyatchan.
50. O'ziga ishonmaydigan.
51. Ko'nuvchan (bo'sh keladigan).
52. Kamtar.
53. Boshqalar yordamidan ko'p foydalanadi.
54. Martabali kishilarni juda hurmat qiladi.
55. Maslahatlarni bajonidil qabul qiladi.
56. Ishonuvchan va boshqalarni xursand qilishga intiladi.
57. Hamisha xushmuomala.
58. Atrofdagilar fikrini qadrlaydi.
59. Muloqotga kirishuvchan.
60. Rahmdil.
61. Xushfe`l, ishonch uyg`otadigan.

62. Mayin va yumshoqko'ngil.
63. Boshqalarga g'amxo'rlik qilishni yoqtiradi.
64. Saxiy.
65. Maslahat berishni yoqtiradi.
66. Salobatli (hukmronlikni yoqtiradi).
67. Kattalik – buyruqbozlik (buyruq berishni yoqtiradi).
68. Hukmron.
69. Maqtanchoq.
70. Takabbur va o'ziga bino qo'ygan.
71. Faqat o'zi haqida o'ylaydi.
72. Ayyor.
73. Boshqalar xatosini kechira olmaydi.
74. Manfaatparast.
75. Sofdil.
76. Ko'pincha g'arazgo'y.
77. Alamzada.
78. Shikoyatchi.
79. Rashkchi.
80. Uzoq kek saqlab yuradi.
81. O'zini-o'zi tanqid qilib qiynashga moyil.
82. Tortinchoq.
83. Tashabbussiz.
84. Beozor.
85. Mute (erksiz), nomustaqil.
86. Bo'ysunishni yoqtiradi.
87. Hal qilishni boshqalarga qo'yib beradi.
88. Noqulay ahvolga tushib qolishi oson.
89. Do'stlari ta'siriga berilishi oson.
90. Har kimga ham ishonaveradi.
91. Odam tanlamay, hammaga yordam beradi.
92. Barchani yoqtiradi.
93. Hamma narsani kechiradi.
94. Haddan tashqari rahmdil.
95. Muruvvatli va kamchiliklarga nisbatan chidamli.
96. Barchaga yordam berishga intiladi.
97. Muvaffaqiyatga intiluvchan.
98. Barchaning qoyil qolishini xohlaydi.
99. Boshqalarni ishga soladi.
100. Zulmkor.
101. Atrofdagilardan o'zini ustun qo'yadi.
102. Shuhratparast.
103. Xudbin.
104. Sovuq, toshbag'ir.
105. Zahar, mazax qiluvchi.
106. Qahri qattiq, shavqatsiz.
107. Tez-tez jahli chiqib turadi.
108. Hissiz, loqayd.
109. Kek saqlovchi.
110. Hamma narsaga qarshi bo'ladi.
111. O'jar.

112. Gumonsiraydigan va shubhalanuvchan.
113. Tortinchoq.
114. Uyatchan.
115. Iltifotli.
116. Bo'shang (landovur).
117. Deyarli hech kimga e'tiroz bildirmaydi.
118. Shilqim.
119. Unga g'amxo'rlik (homiylilik) qilishlarini yoqtiradi.
120. Haddan tashqari ishonuvchan.
121. Barchaga yoqishga (hurmat qilishlariga) intiladi.
122. Hammaning gapiga qo'shiladi.
123. Har doim hamma bilan do'stona munosabatda.
124. Hammani yaxshi ko'radi.
125. Atrofdagilarga o'ta muruvvatli.
126. Barchaning ko'nglini ko'tarishga intiladi.
127. O'ziga zarar etkazsa ham boshqalarga g'amxo'rlik qiladi.
128. Ortiqcha ko'ngilchanligi bilan odamlarni buzadi.

1. Hukmron – liderlik. Me`yorda ifodalangan ballarda (8 gacha) o`ziga ishonch, yaxshi maslahatchi, etakchi va tashkilotchi bo`la olish malakasi, rahbarlik sifatlarini aniqlaydi. YUqori ko`rsatkichlarda tanqidga toqatsizlik, o`z imkoniyatlarini ortiqcha baholash (12 ball), fikrlarning diktaat uslubi, boshqalarga buyruq berishga imperativ ehtiyoj, despotizm qirralarini (12 balldan yuqori) ifoda etadi.

2. Mustaqil – ustuvorlik. Shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidan (8 ball atrofida) o`zboshimcha, nartsistik, atrofdagilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko`pchilik fikridan farqli o`z fikriga egalik tendentsiyasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslubigacha (12-16 ball) ifoda etadi.

3. To`g`ri – tajovuzkor. Ko`rsatkichlar ifodalanganlik darajasiga ko`ra bu oktant samimiylik, erkinlik, to`g`rilik, maqsadga erishish yo`lida qat`iylilik (me`yorlangan ballarda) yoki haddan ziyod qaysarlik, do`stona emaslik, o`zini tuta bilmaslik va jahli tezlikni (yuqori ballar) ifoda etadi.

4. Ishonchsizlik – skeptiklik. Fikrlar va xatti-harakatlar bazasi realistikligi, skeptitsizm va nokonformlik (8 ballgacha) o`ta xafa bo`luvchan va atrofdagilarga ishonchsiz munosabat moduliga, krititsizmga moyillik, atrofdagilar bilan munosabatlardan norozilik va shubhalikka o`tadi.

5. Itoatkor – tortinchoqlik. Shaxslararo munosabatlarning kamtarlik, tortinchoqlik (3-4), o`zgalar mas`uliyatini o`z zimmasiga olish (8ballgacha), 12dan Yuqori ballarda to`la itoatkorlik, oshirilgan aybdorlik tuyg`usi, o`z-o`zini kamsitishni aks ettiradi.

6. Bog`liqlik – bo`ysunuvchanlik. O`rtacha (3-4) ballarda – atrofdagilarning yordami va ishonchiga, ularning e`tiboriga ehtiyoj, yuqori ko`rsatkichlarda - o`ta konformlik, boshqalar fikriga to`la bog`liqlik.

7. Hamkorlik – konventsiallik. Referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do`stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo`lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarning bu uslubi namoyon bo`lishida ortiqcha kompromis xulq atrofdagilarga nisbatan

do'stonligini to'kib – sochishda, o'zini tuta olmaslik, o'zining ko'pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta'kidlashga intilishda ko'zga tashlanadi.


8. Mas'uliyatli – bag'ri kenglik. Atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, mas'uliyat hissi rivojlanganligida namoyon bo'ladi. Yuqori ballar ko'ngli bo'shlik, ustanovkalarining o'ta majburiyligi, ta'kidlangan altruizmni bildiradi.

Olingan ma'lumotlar qayta ishlanadi va psixogramмага kiritiladi, so'ng sinaluvchilarning dolzarb va ideal «Men» iga baholari tahlil qilinadi va taqqoslanadi.

Ko'pincha, me'yoriy holatda dolzarb va ideal «Men» o'rtasida jiddiy tafovutlar kuzatilmaydi. O'rtacha (mojarosiz) tafovut yoki ko'proq, to'la mos kelmaslikni Sobchik o'sish va o'z-o'zini takomillashtirishning zarur sharti deb biladi.

8 balldan yuqori xarakteristikalar mazkur oktant aniqlaydigan xususiyatlarning aktsentuatsiyasidan, 14-16 ball darajasida baholar esa ijtimoiy adaptatsiyadagi qiyinchiliklardan dalolat beradi.

O'z-o'zini baholashning tarkibiy tuzilishini tahlil va talqin etishni osonlashtirish uchun aktual «Men» va ideal «Men» uchun psixogramma tuzish kerak. Buning uchun sinaluvchilar javob varaqasida o'chirilgan raqamlar miqdori har bir oktantga muvofiq psixogramмага kiritiladi. Har bir oktant bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar 0-16 orasida tegishli koordinata chiziqlarida joylashtiriladi. Bu chiziqlar 0,4,8,12,16 kabi bo'limlarda doiralar bilan to'rt qismga ajratilgan. Oktant bo'yicha to'plangan ballga mos darajada yarim egri chiziq o'tkazilib, ajratilgan qism shtrixlanadi. Barcha oktantlar bo'yicha natijalar shu tariqa psixogrammada aks ettirilgach, undan go'yo «elpig'ich»ga o'xshash tasvir hosil bo'ladi. Eng ko'p darajada shtrixlangan oktantlar sinaluvchi uchun xos shaxslararo munosabatlarning etakchi uslubini ifodalaydi.



8 balldan kam ballga ega xususiyatlar har tomonlama rivojlangan shaxslarga asosdir. Muayyan xususiyatlarning 8 balldan ortiq ball to'plashi tegishli oktanta bo'yicha aktsentuatsiya mavjudligini ko'rsatadi. 14-16 ballga teng ko'rsatkichlar ijtimoiy moslashish sohasida muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Barcha oktantlar bo'yicha past ko'rsatkich (0-3 ball) natijalar ishonchsiz, sinaluvchi samimiy javob bermagan bo'lishi mumkinligidan dalolat.

Metodika ko'rsatkichlarini talqin etishda asosiy e'tibor ayrim ko'rsatkichlarning boshqalardan ustunligiga qaratilishi kerak. Ammo ba'zida ichki mazmuni bir-biriga qarama-qarshi oktantlar (masalan 1- va 5- oktantlar)ning usutunlik holati ham uchraydi. Bunday holat o'zini o'ta sevadigan va avtoritar insonlarga xos, 4-8 oktantlarning ustunlik holati guruh tomonidan tan olinish istagi va bostirilgan dushmanlik o'rtasidagi nizodan darak berishi, 3- va 7- oktantlarning parallel ustunligi o'z imkoniyatlarini ko'rsatib qo'yish motivi va affiliatsiya motivi (hamkorlikka intilish) o'rtasida kurash mavjudligini ko'rsatishi, 2- va 6- oktantlarning bir vaqtda ustunligi mustaqillik – bo'ysunmaslik muammosi, ichki qarshilikka qaramay, ayrim paytlarda bo'ysunishga majburlikdan guvohlik berishi mumkin.

Dolzarb «Men» va ideal «Men»ga tegishli natijalar solishtirib talqin etilganda ham xuddi shunday yo'l tutiladi. Amaliyotning ko'rsatishicha, aslida aktual «Men» obrazi ham, ideal «Men» obrazi ham yaxlit «Men»ning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi.

Rivojlanish me'yoridan chetga chiqmagan holatda aktual va ideal «Men» o'rtasida jiddiy tafovut kuzatilmaydi. Kichik farq yoki o'xshashlik shaxsning kelgusi taraqqiyoti uchun zarur shartlardan biridir. O'z-o'zini baholashi past bo'lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlardagi nizolar girdobiga o'ralashib qolgan insonlarda odatda o'zidan qoniqmaslik hissi kuchli bo'ladi.

L.N.Sobchik P.Lirining shaxslararo munosabatlar interpersonal diagnostikasi metodikasi moslashtirish Yuzasidan o'tkazgan ko'p yillik ishlari natijasida oktantlar o'zaro nisbatidan hosil bo'luvchi har xil variantlarning talqinini ishlab chiqdi. Albatta, hayotda uchraydigan barcha variantlarni ta'riflash qiyin.

Ammo umuman gap ikki yo'nalish: ustunlik – tobelik hamda tajovuzkorlik - mehribonlik xususida boradi. Ulardan kelib chiqib, har bir xususiy holat alohida talqin etiladi.

Masalan: agar aktual «Men» obrazida 5- oktant boshqalaridan ko'ra ko'proq ballga ega bo'lsa, ideal «Men» obrazida bu oktant ancha past, 1- oktant aksincha Yuqori ballga egalik qilsa, sinaluvchi shaxslararo munosabatlarda o'zini ortiqcha passiv, tortinchoq va uyatchan, deb hisoblashi hamda bu xususiyatlardan xalos bo'lishni istashini bilish mumkin.

Agar aktual «Men» 4- oktant bo'yicha (ya'ni shubhalanish, gumonsirash, atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlardan norozilik bo'yicha) Yuqori ballga ega bo'lsa-Yu, ideal «Men» uchun 8- oktantning ustunligi xos bo'lsa, talqin etish vaqtida sinaluvchi shaxslararo nizoga tortilganligi va bu vaziyatda o'zini tanqidiy baholashga moyillik, odamlarga mehr-muruvvatli bo'lish bilan idealga o'xshashga intilishini anglatadi. Demak, qarama-qarshi xususiyatli oktantlar (3- va 7-, 2- va 6-) ning o'zaro munosabati ijtimoiy muhitga moslashishga halaqit berayotgan shaxs xususiyatlari qanday yo'llar bilan kompensatsiyalanayotganini namoyish etadi.

Agar aktual «Men» uchun tobe va komform xulq-atvorga xos xususiyatlarni ifodalovchi oktantlar (5,6,7) ustunlik qilsa-Yu, ideal «Men»da mustaqillik va dominantlik oktantlari (1,2) yoki tajovuzkorlik oktanti (3) ustunlik qilsa, sinaluvchi uchun o'zining bo'ysunishga majburligi og'ir kechayotgani, bu uning shaxsiyatiga og'ir botayotgani va barcha kompensator harakatlar o'z ijtimoiy mavqeini oshirishga yo'naltirilganligini bildiradi.

Bordi-yu, nisbat teskari bo'lsa, ya'ni aktual «Men»da mustaqillik, dominantlik va tajovuzkorlik (2,1,4) ustun bo'lsa, idealda sinaluvchi atrofidagilarga yaqinroq va shaxslararo munosabatlarga to'sqinlak qilayotgan xarakter qirralari - qaysarlik(3), tajovuzkorlik (4), o'ziga ishonganlik (1), distantlik (2) dan xoli bo'lishni istasa, sinaluvchining o'zining bevosita spontan xulq-atvori ustidan nazorati kuchliligi, shuningdek o'z shaxsini takomillashtirishga va tarbiyalashga intilayotganligini anglash mumkin. Shaxsning ichki holati tahlili murakkab va serqirra jarayon, biroq shu bilan birga psixolog uchun shaxsning



ichki imkoniyatlari va mavjud muammolarini anglash darajasini hisobga olgan holda korrektsiya metodlarini tanlashda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

**Javob varaqasi**

Familiyasi \_\_\_\_\_ Ismi \_\_\_\_\_ Yoshi \_\_\_ Tashhis sanasi \_\_\_\_\_

Dolzarb «Men»

1	2	3	4	5	6	7	8	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	3	3	3			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	3	3	3			
3																																						
3	3	3	3	3	3	3	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	6	6	6	6	6
3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4							
6	6	6	6	6	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	
5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6							
9	9	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
7	8	9	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
			0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8							

Ideal «Men»

1	2	3	4	5	6	7	8	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	3	3	3	
									0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	3	3	3				
3	3	3	3	3	3	3	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5
3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4								
6	6	6	6	6	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	
5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6								
9	9	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
7	8	9	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
			0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8								

## Kalit

1				2				3				4				5				6				7				8															
1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4
3	3	3	3	3	3	3	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6
3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6
6	6	6	6	6	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9
5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8
9	9	9	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
7	8	9	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2
			0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0

### TUGALLANMAGAN GAPLAR

«Tugallanmagan gaplar» metodi psixodiagnostik maqsadlarda keng qo'llanib kelinmoqda. Uning bir necha xil variantlari amalda qo'llanilib kelinmoqda.

*Qo'llanish maqsadi:* Otaga munosabat, o'ziga munosabat, amalga oshirilmagan imkoniyatlar, qo'l ostidagi kishilarga munosabat, kelajakka munosabat, Yuqori lavozimdagi kishilarga munosabat, qo'rquv va do'stlarga munosabat, o'tmishiga munosabat, qarama-qarshi jinsdagi kishiga munosabat, jinsiy munosabat, oilaga munosabat, hamkasblariga munosabat.

*Metodikaning tuzilish:* Quyida taklif qilinadigan variant asosida tartib bilan gaplarni to'ldiring. Metodikaning tarkibida 60 ta tugallanmagan gaplar keltirilgan bo'lib, ular 13 guruhga ajratilgan.

*Vaqt:* Metodikani (testlashtirishni, natijalarni qayta ishlashdan tashqari) o'tkazish uchun 20 minutdan bir necha soatgacha vaqt sarflash mumkin (sinaluvchining shaxsiga qarab).

*Yo'riqnoma:* Test blankida keltirilgan jummalarni bir yoki bir necha so'zlardan foydalangan holda gapni tugallash kerak.

## TEST BLANKI

1. Mening otam kamdan kam \_\_\_\_\_ o'ylayman.
2. Agar hamma menga qarshi chiqadigan bo'lsa \_\_\_\_\_
3. Men doimo \_\_\_\_\_ xohlardim.
4. Agar men rahbar bo'lsam \_\_\_\_\_
5. Kelajak menga go'yo \_\_\_\_\_ tuyulmoqda.
6. Mening boshlig'im \_\_\_\_\_
7. Yomonligini bilaman ammo \_\_\_\_\_ qo'rq.
8. Haqiqiy do'st \_\_\_\_\_ bo'ladi deb o'ylayman.
9. Men bolalik vaqtlarimda \_\_\_\_\_
10. Men uchun ideal ayol (erkak) \_\_\_\_\_ bo'ladi.
11. Agar ayollarni erkaklar bilan birga ko'rsam \_\_\_\_\_
12. Boshqa oilalar bilan taqqoslaganda mening oilam \_\_\_\_\_
13. Mening uchun eng yaxshisi \_\_\_\_\_
14. Men va mening onam \_\_\_\_\_
15. Men unutmish uchun barchasiga tayyorman \_\_\_\_\_
16. Agar faqat otam xohlagan bo'lsa \_\_\_\_\_
17. Men etarlicha \_\_\_\_\_ qobiliyatga egaman.
18. Agar \_\_\_\_\_ bo'lsa men juda baxtli bo'lar edi
19. Kimdir mening qo'l ostimda ishlaydigan bo'lsa, \_\_\_\_\_
20. O'ylaymanki \_\_\_\_\_
21. Mening maktabdagi o'qituvchilarim \_\_\_\_\_
22. Ko'pchilik o'rtoqlarim mening \_\_\_\_\_ qo'rqishimni bilmaydi.
23. \_\_\_\_\_ odamlarni yoqtirmayman.
24. Institutga qadar men \_\_\_\_\_
25. Ko'pchilik o'spirinlar va qizlar \_\_\_\_\_ deb o'ylayman.
26. Er-xotinlik munosabati menga \_\_\_\_\_  
tuYuladi.

27. Mening oilam menga xuddi \_\_\_\_\_ murojaat qiladi.
28. Men bilan birga ishlaydigan odamlar \_\_\_\_\_
29. Mening onam \_\_\_\_\_
30. Mening eng katta xatoim \_\_\_\_\_
31. Meni hech bo'lmaganda otam \_\_\_\_\_
32. Mening eng yaxshi tomonim \_\_\_\_\_ iborat.
33. Mening hayotdagi eng yashiringan istagim \_\_\_\_\_
34. Menga tobe kishilar \_\_\_\_\_
35. Men \_\_\_\_\_ kun kelsa edi.
36. Menga qachon boshlig'im yaqinlashib kelsa \_\_\_\_\_
37. Menga qo'rqishni bas qilish vaqti kelganda \_\_\_\_\_
38. Hammadan ham \_\_\_\_\_ odamlarni yaxshi ko'raman.
39. Agar men yana yosh bo'lib qolsam edi \_\_\_\_\_
40. Ko'pchilik ayollar (erkaklar) \_\_\_\_\_ deb o'ylayman.
41. Agar menda me'yordagi jinsiy hayot bo'lganida \_\_\_\_\_
42. Ko'pchilik menga tanish oilalar \_\_\_\_\_
43. Men \_\_\_\_\_ odamlar bilan ishlashni yoqtiraman.
44. Ko'pchilik onalar \_\_\_\_\_ hisoblayman.
45. Men yoshlik vaqtimda agar \_\_\_\_\_ o'zimni aybdordek his qilardim.
46. Mening otam \_\_\_\_\_ o'ylayman.
47. Mening omadim chopmay qolganda \_\_\_\_\_
48. Men hayotda ko'proq \_\_\_\_\_ bo'lishini xohlardim.
49. Men qachon \_\_\_\_\_ boshqalarga topshiriq beraman.
50. Keksayib qolganda \_\_\_\_\_
51. Mendan o'zini Yuqori tutadigan do'stlarni tan olaman \_\_\_\_\_

52. Mening hadixsirashlarim hech ham meni o'ziga bo'ysundirolmadi \_\_\_\_\_
53. Menda yo'q bo'lsa do'stlarim \_\_\_\_\_
54. Mening o'tmishdan qolgan eng yaxshi taassurotim \_\_\_\_\_
55. Menga ayollar (erkaklar)ning \_\_\_\_\_ juda yoqmaydi.
56. Mening jinsiy hayotim \_\_\_\_\_
57. Mening bolalik vaqtimda oilam \_\_\_\_\_
58. Men bilan ishlaydigan odamlar \_\_\_\_\_
59. Men o'z onamni yaxshi ko'raman, ammo \_\_\_\_\_
60. Mening uchun eng yomoni \_\_\_\_\_ yuz berishidir.

Har bir guruh gaplari bo'yicha ijobiy, salbiy va befarq tarzdagi munosabat tizimini belgilovchi xulosalar beriladi. Misollar va javoblar variantlarining bahosi:

#### Menga tanish bo'lgan ko'p oilalar

30. Baxtsiz, ahil emas, tarqoq \_\_\_\_\_ - 2
31. Asabiy, unchalik ahil emas \_\_\_\_\_ - 1
32. Hammasi bir xil \_\_\_\_\_ - 0

#### Kelajak men uchun

40. Tashvishli, yomon, tushunib bo'lmaydigandek \_\_\_\_\_ - 2
41. Mavhum \_\_\_\_\_ - 1
42. Noaniq, noma'lum \_\_\_\_\_ - 0

Bu miqdoriy ko'rsatkichlar sinaluvchilarning munosabatlaridagi disgarmoniyani engillashtirishga imkon bersa-da, ammo asosiy natijalarni qo'shimcha gaplar bo'yicha sifat tahlili belgilaydi.

#### Kalit

№	Gaplar guruhi	Topshiriqlar
1	Otaga munosabat	1, 16, 31, 46
2	O'ziga munosabat	2, 17, 32, 47
3	Amalga oshirilmagan imkoniyatlar	3, 18, 33, 48
4	Qo'l ostidagi kishilarga munosabat	4, 19, 34, 49

5	Kelajakka munosabat	5, 20, 35, 50
6	Yuqori lavozimdagi kishilarga munosabat	6, 21, 36, 51
7	Qo'rqish	7, 22, 37, 52
8	Do'stlarga munosabat	8, 23, 38, 53
9	O'tmishiga munosabat	9, 24, 39, 54
10	Qarama-qarshi jinsdagi kishiga munosabat	10, 25, 40, 55
11	Jinsiy munosabat	11, 26, 41, 56
12	Oilaga munosabat	12, 27, 42, 57
13	Hamkasblariga munosabat	13, 28, 43, 58
14	Onaga munosabat	14, 29, 44, 59
15	Aybdorlik hissi	15, 30, 45, 60

### ***SHMISHEK test***

#### **Bu savolnoma yordamida o'smirlarning xarakter aktsentuatsiyasini aniqlash**

Test – savolnoma negizida K. Leongardning shaxs aktsentuatsiyasi kontseptsiyasi yotadi. Shunga asosan aktsentuatsiyalar – bu har bir insonga xos bo'lgan ba'zi bir individual xususiyatlarning «keskinlashgan, o'tkirlashgan» ko'rinishidir. K.Leongard xarakter va temperamentning o'tkirlashgan xususiyatlarini ajratadi. Test 10 shkaladan iborat. Ular ro'yxat shaklida 88 savoldan iborat va javoblarning «Ha» yoki «yo'q» ikki variantidan birini tanlab javob berishini nazarda tutadi. Test o'tkazish uchun standart yo'riqnoma bilan test bukleti, shuningdek, standart javob varaqasi bo'lishi zarur. Javob varaqasiga raqam yoniga sinalayotgan javob variantiga mos tarzda «+» yoki «-» belgilari qo'yadi.

### Kalit bilan savollar ro'yxati.

1. Sen odatda xotirjam, quvnoqmisan? (1).
2. Sen tez xafa bo'lib qolasanmi? (1).
3. Tezda yig`lab yuborishing osonmi? (6).
4. O'z ishingda xato bor-yo'qligini ko'pincha tekshirasanmi?. (4).
5. Sinfdoshlaring singari kuchlimisan? (-2)
6. Xursandchilikdan g`am-andug`ga yoki g`am-andug`dan xursandchilikka oson ko'cha olasanmi? (9).
7. O'yinlarda etakchi bo'lishni yoqtirasanmi? (8)
8. Hech bir sababsiz hammaga jahl qiladigan kunlaring bo'ladimi? (5)
9. Sen jiddiy odammisan? (6)
10. Har doim o'qituvchilar topshirig`ini vijdonan bajarishga intilasanmi? (7)
11. YAngi o'yinlar topa olasanmi? (1)
12. Kimnidir xafa qilgan bo'lsang, tezda unutasanmi? (-7)
13. O'zingni mehribon deb hisoblaysanmi? (6)
14. Pochta qutisiga xat tashlagach, xat pochta qirrasiga tiqilib qoldimikan, deb qo'ling bilan tekshirib ko'rasanmi? (4)
15. Maktabda, to'garakda, sport seksiyasida eng oldinda bo'lishga intilasanmi? (8)
16. Kichkinaligingda momaqaldiraq va itlardan qo'rqarmiding? (2)
17. Seni o'rtoqlaring o'ta intiluvchan va tartibli deb hisoblashadimi? (4)
18. Sening kayfiyating uydagi va maktabdagi ishlarga bog`liq bo'ladimi? (9)
19. Ko'pchilik tanishlaring seni yaxshi ko'radi, deb aytish mumkinmi? (8)
20. Ko'nglingda notinchlik bo'lib turadimi? (5)
21. Odatda biroz g`amgin yurasanmi? (3)
22. Alam cheka turib, o'kirib yig`laysanmi? (10)
23. Uzoq vaqt bir joyda qolish sen uchun qiyinmi? (1)
24. Senga nohaqlik qilishganda o'z huquqing uchun kurashasanmi? (7)
25. Qachonlardir mushuklarni rogakadan mo'ljalga olganmisan (-6)
26. Parda yoki dasturxon qiyshiq turgan bo'lsa, achchig`ing chiqadimi? (4)
27. Bolaligingda bir o'zing uyda yolg`iz qolishdan qo'rqarmiding? (2)

28. Sababsiz xursand yoki g`amgin bo`lib turasanmi? (9)
29. Sinfingda eng yaxshi o`quvchining birimisan? (8)
30. Tez-tez vaqtichog`lik, maynabozchilik qilib turasanmi? (-3)
31. Jahling tez chiqadimi? (5)
32. Ba`zida o`zingni baxtiyor his qilasanmi? (10)
33. Bolalarni xursand qila olasanmi? (1)
34. Biror kishi haqida o`ylayotgan fikringning hammasini yuziga ayta olasanmi? (7)
35. Qondan qo`rqasanmi? (6)
36. Maktab topshirilarini sidqidildan bajarasanmi? (-4)
37. Kingadir nohaqlik qilingan bo`lsa, uning yonini olasanmi? (7)
38. Qorong`i bo`m-bo`sh xonaga kirish sen uchun yoqimsizmi? (2)
39. Tez va noaniq ishdan ko`ra, sekinlik bilan aniq bajariladigan ish senga ma`qulmi? (4)
40. Odamlar bilan tez tanisha olasanmi? (9)
41. Kechalarda sidqidildan so`zga chiqasanmi? (5)
42. Uydan qochib ketgan paytlaring bo`lganmi? (5)
43. Bolalar yoki o`qituvchilar bilan bo`lgan janjaldan keyin maktabga bormaslik darajasigacha xafa bo`lganmisan? (3)
44. Hayot senga og`ir tuYuladimi? (3)
45. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganingda o`z ustingdan kula olasanmi? (1)
46. Agar janjal sening aybingsiz chiqqan bo`lsa, yarashishga intilasanmi? (-7)
47. Hayvonlarni yaxshi ko`rasanmi? (6)
48. Uydan keta turib, biror narsa qolib ketmadimikan, deb tekshirgani qaytib kirasanmi? (4).
49. Senga yoki sening qarindoshlaringga biror narsa bo`lgandek tuyuladimi? (2)
50. Kayfiyating ob-havoga bog`liq bo`ladimi? (9).
51. Savolga javobni bilsang ham sinfdan javob berishga qiynalasanmi? -(-8)
52. Agar biror kishidan jahling chiqsa, yoqalashib ketasanmi (5)
53. Bolalar orasida bo`lish senga yoqadimi? (-3)



54. Biror ishni bajara olmasang, umidsizlikka tushasanmi? (10)
55. Ishlarni, o'yinlarni tashkil qila olasanmi? (1)
56. Agar yo'lda qiyinchilikka duch kelgan bo'lsang ham, maqsad sari astoydil intilasanmi? (7)
57. Kino ko'rayotganingda yoki g'amgin kitob o'qiyotganingda yig'laganmisan? (6).
58. Biror tashvishdan uxlashing qiyin bo'ladimi? (4)
59. O'rtoqlaringga darsda pichirlab aytib turasanmi yoki ko'chirib olishga berasanmi? (-7)
60. Qorong'i ko'chadan yolg'iz yurishga qo'rqasanmi? (2)
61. Har bir narsa joy-joyida bo'lishini kuzatasanmi? (4)
62. Uyquga yaxshi kayfiyat bilan yotib, yomon kayfiyat bilan uyg'onish hollari bo'ladimi? (9)
63. Notanish bolalar davrasida (yangi sinf, lagerda) o'zingni erkin tuta olasanmi? (8)
64. Boshing tez-tez og'rib turadimi? (5)
65. Tez-tez kulib turasanmi? (-3)
66. Agar sen biror kishini hurmat qilmasang, u bilan turganingda uni hurmat qilmasligingni sezdirmaisanmi? (8)
67. Bir kun ichida ko'plab har xil ishlarni qila olasanmi? (7)
68. Tabiatni sevasanmi? (7)
69. Uydan keta turib yoki uxlash uchun yota turib eshik qulflanganligini, chiroq o'chirilganligini tekshirasanmi? (2)
70. Senga tez-tez nohaqlik qilishadimi? (6)
71. O'zingni qanday odam deb hisoblaysan, qo'rqoqmisan? (2)
72. Bayram stoli oldida kayfiyating o'zgaradimi? (9)
73. Dramatik to'garakka qatnashasanmi, sahnaga chiqishni yaxshi ko'rasanmi? (8).
74. Senda besabab ma'yus kayfiyat bo'lib, bunda hech kim bilan gaplashging kelmaydigan holatlaring bo'ladimi? (5)
75. Kelajakni ma'yuslik bilan o'ylagan holatlaring bo'ladimi? (3)

76. Xursandchilikdan g`amginlikka bexosdan o'tib qolish hollari bo'ladimi? (10)
77. Mehmonlar kayfini chog` qila olasanmi? (1)
78. Uzoq muddat xafa bo'lib Yurasanmi? (7)
79. Agar sening do'stlaring bilan falokat Yuz bergan bo'lsa, qattiq tashvishlanasanmi? (6)
80. Xato tufayli daftar varag`ini qayta ko'chirgan bo'larmiding? (4)
81. O'zingni ishonmaydiganlardan hisoblaysanmi? (7)
82. Tez-tez dahshatli tush ko'rasanmi? (2)
83. Derazadan sakrash yoki mashina tagiga o'zingni tashlash hissi bo'lganmi? (4)
84. Atrofdagilarning hammasi vaqtichog`lik qilayotgan bo'lsa, sening vag`ting ham chog` bo'ladimi? (9)
85. Agar senda ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lsa, vaqtinchalik ularni unuta olasanmi, ular haqida doim o'ylamay yura olasanmi? (8)
86. Kutilmaganda o'zingni tutolmasdan qolasanmi va o'zingni odobsizlarcha tuta olasanmi? (4)
87. Odatda kamgap, jim yuradiganlardanmisan? (3)
88. Dramatik tomoshada, rolga shunday kirishib ketib, xatto sahnadagidan boshqacharoq odam ekanligingni unutib qo'yasanmi? (8).

### ***Natijalarni baholash***

Har bir savolga javoblarni belgilab bo'lgandan so'ng, har bir shkalaga tegishli bo'lgan savollarning birlamchi ballari alohida-alohida hisoblab chiqiladi (savol oxirida ushbu savol nechanchi shkalaga tegishli ekanligi ko'rsatiladi. («-» belgisi qo'yilgan raqamlar sizning «yo'q» javobingizga to'g'ri kelsa, 1 ball bilan belgilanadi).

Shkala bo'yicha hosil bo'lgan birlamchi ballar, jadvalda ko'rsatilgan koeffitsientga ko'paytiriladi. Agar hisoblab chiqilganda, ballar 12 balldan oshsa, xarakter aktsentuatsiyasining namoyon bo'lishi ko'rinadi.

S Shkala raqami	Aktsentuatsiya tiplari	Koeffitsient	Birlamchi ballar	Aktsentuatsiya ko'rsat-kichi birlamchi ballar- ning koeffitsientiga ko'paytirilgani
1	Gipertim	3		
2	Xavotirlanuvchi	3		
3	Distim	3		
4	Rasmiy	2		
5	Qo'zg'aluvchan	3		
6	Emotiv	3		
7	Rigid	2		
8	Namoyishkor	2		
9	TSikloid	3		
10	Ekzaltr	6		

Aktsentuallashgan xususiyatlarning o'zaro birgalikdagi kelishi K.Leongard nazariyasiga asoslangan holda maxsus analiz qilinadi. K.Leongardning aktsentuatsiya tiplari insonlarning tevarak-atrofdagilar bilan qanday muloqot qilishlarini aniqlashga xizmat qiladi va o'zgacha (A.E.Lichkoning xarakter aktsentuatsiyasi tiplaridan farqli o'laroq) mustaqil xarakter tiplarini taklif qiladi.

### **1. Gipertim tip**

Bu tipdagi insonlar juda muloqatchan, so'zamol, mimika, pantomimika va jestlarga juda boy bo'ladi. Ular oiladagi va ish joyidagi burchlariga ma'suliyatsizligi tufayli atrofdagilar bilan kelishmovchilikka boradilar. Ushbu tipdagi odamlar boshqalar bilan bo'ladigan kelishmovchiliklarni o'zlari keltirib chiqaradilar, ana shunda atrofdagilar tanbeh berishsa, xafa bo'ladilar. Ularning ijobiy tomonlari harakatchan, biror bir faoliyatga chanqoq, tashabbuskor. Salbiy xususiyatlari: engiltabiat, engil xulq- atvorga moyil, o'ta asabiy, o'z ma'suliyatlariga jiddiy munosabatda bo'lmaydilar.

## **2.Xavotirlanuvchan tip**

Bu tipdagi insonlar muloqotga kirishimsiz, bo'sh, o'ziga ishonmaydigan, ma'Yus kayfiyatda yuruvchilardir. Juda kam holatda atrofdagilar bilan kelishmovchilikka boradilar va unda passiv ishtirok etadilar. Kelishmovchilik holatlarida o'zlariga tayanch va yordam qidiradilar, chunki ular shunga muhtoj bo'ladilar. Ko'pincha ularda do'stlik, o'z-o'zlariga tanqidiy ko'z bilan qarash kabi ijobiy xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadilar. Lekin o'zini-o'zi himoya qila olmaganligi tufayli «itning keyingi oyog'i» bo'lib Yuradi. Bunday odamlar hazil uchun manba bo'lib hisoblanadi.

## **3.Distim tip**

Bu tipdagi insonlar muloqotga tez kirishmaydigan, kamgap, pessimistik kayfiyatning ustunligi bilan xarakterlanadilar. Ular asosan uyda o'tirishni afzal ko'radilar, atrofdagilar bilan kamdan kam holatda kelishmovchilikka boradilar, chegaralangan hayot tarzida yashaydilar. Ular o'zlari bilan do'stlashganlarni juda qadrlaydilar va ularga bo'ysinishga tayyordirlar. Ijobiy xislatlari: jiddiy, pok, vijdonli, o'ta adolatli. Salbiy xislatlari: faol emas, fikrlash qobiliyati sust, kam harakat.

## **4.Rasmiy tip**

Kelishmovchiliklarga juda kam holatlarda kirishadi, faol qatnashmaydi. Atrofdagilarga formal talablar qo'yib, xizmatda o'zini byurokrat sifatida tutadi. SHu bilan birga sardorlikni boshqalarga osonlikcha topshiradi. Ba'zida o'ta saranjomlikni da'vo qilish bilan boshqalarning g'ashiga tegadi. Ijobiy xislatlari: pok vijdonli, saramjon, jiddiy, sinchkov, ishga umid bilan qarovchi. Salbiy xislatlari: serjahl, qog'ozboz, ezma, nasihatgo'y, o'ta rasmiyatchi.

## **5. Qo'zg'aluvchan tip**

Bu tipdagi odamlar muloqotga kirishimsiz, ularda muloqotning verbal va noverbal turlari sust rivojlangan. Ko'pincha ular qovog'i soliq Yuradilar, surbetlik, janjalkashlik xususiyatlariga moyildirlar, bunga o'zlari shunday muhit yaratadilar. Jamoadagi insonlar bilan chiqisha olmaydilar, oilada hukmronlar. Emotsional turg'un holatlarda ko'pincha vijdonli, saranjom, hayvonlarni va bolalarni

sevuvchidirlar. Shuningdek, emotsional qo'zg'aluvchan holatlarda serjahl, jizzaki, o'z xulq-atvorini boshqara olmaydigan xususiyatlarga egadirlar.

### **6. Emotiv (o'ta hissiyotli) tip**

Bu tipdagi insonlar «yarim gapi»dan ularni tushunib oladigan, ular bilan yaxshi munosabatlar o'rnatadigan, tanlangan, tor doiradagi odamlar bilan muloqotda bo'lishni xush ko'ruvchilardir. Kelishmovchiliklarga kamdan-kam sababchi bo'ladilar va bunda passiv ishtirok etadilar. Ichlarida kek saqlaydilar. Ijobiy xususiyatlari – mehribon, hamdard, o'zgalarning muvaffaqiyatlariga sherik, o'z burchlariga o'ta sodiq. Salbiy tomonlari – o'ta hissiyotli, yig'loqi.

### **7. Rigid (o'zgarmas) tip**

Ushbu tip xususiyatlariga xos odamlar muloqotga o'rtacha kirishimli, nasihatgo'y, ko'pincha kam gapiradilar. Kelishmovchiliklarda ular tashabbuskor bo'lib faol qatnashishga harakat qiladilar. Bu insonlar o'zlariga talabchan. Ayniqsa, ijtimoiy adolatni chuqur his etadigan, shu bilan birga ko'ngli nozik, arazchi, shubha bilan qarovchi, qasoskordirlar. Ba`zida o'zlariga juda ishonuvchan, haqiqatgo'y, rashkchi hamdirlar, qo'l ostidagi insonlarga va yaqinlarga o'ta talabchandir.

### **8. Namoyishkor tip**

Bu tipdagi insonlar boshqalar bilan osonlikcha muloqotga kirishib ketish, sardorlikka intilish, lavozim va maqtovlarga chanqoqlik xususiyatlari bilan tez kirishib keta olish xususiyatini namoyish qila oladi, shu bilan birga ikkiYuzlamachilikka moyil. Bu tipdagi insonlar o'ziga o'ta ishonuvchanliklari va o'zlarini katta tutishlari bilan kelishmovchiliklar keltirib chiqaradilar, lekin bunda faol himoya qila oladilar. Suhbatdosh uchun muloqotda yoqimli xususiyatlari: turli vaziyatlardan chiqib ketishlik, artistlik, boshqalarni o'ziga jalb qila olishlik. O'zidan itaruvchi sifatlari: egoistlik, laganbardorlik, maqtanchoqlik, ishyoqmaslik.

### **9. TSikloid tip**

Bu tipdagi insonlarning kayfiyatlari tez-tez o'zgarib turishi natijasida, atrofdagilarga bo'lgan munosabati ham o'zgaruvchandir. Ular shu paytda o'zlarini gipertimlarga o'xshab tutadilar. Ko'tarinki kayfiyatda bo'lganlarida muloqotga

kirishuvchan, tushkunlik kayfiyatda muloqotga kirishmaydigan, indamas xususiyatlarga egadirlar. Shunday kayfiyatda distim tipdagilarga o'xshab ketadilar.

### **10. Ekzaltr tiplar**

Bu tipdagi insonlar muloqotga o'ta kirishimli, sergap, ko'ngilchan. Ko'pincha bunday odamlar bahslashadilar, lekin baxsni ochiqdan-ochiq kelishmovchiliklarga olib bormaydilar. Kelishmovchilik vaziyatlarda ham passiv, ham aktiv bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga ular do'stlari va yaqinlariga g'amxo'r, mehribon va ularga bog'lanib qolganlar.

#### **8.4. Shaxs psixodiagnostikasida ob'ektiv va situatsion testlardan foydalanish muammolari**

Shaxs psixodiagnostikasida foydalaniladigan metodlarni uch nuqtai nazardan qarab chiqish mumkin.

1. "Ob'ektiv nuqtai" nazar – diagnostika faoliyatni bajarishning usullari(xususiyatlari) va muvaffaqiyati (natijaliligi) asosida amalga oshiriladi.

2. "Sub'ektiv" nuqtai nazar – diagnostika o'zi haqida beriladigan ma'lumotlar, shaxs o'zining xususiyatlari, u yoki bu vaziyatdagi xulq-atvorini tavsiflash asosida amalga oshiriladi.

3. "Proektiv" nuqtai nazar - diagnostika tashqi neytral, shaxsga taalluqli bo'lmagan ma'lum ma'noda noma'lumligi tufayli proektsiya ob'ekti bo'lgan material bilan o'zaro ta'sir xususiyatlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Inson individualligi ko'rinishlarini diagnostika qilishdagi obektiv nuqtai nazar ikki xil metodikalarning hosil bo'lishiga olib keldi. Bular shaxs testlari va intellekt testlaridir. Ulardan birinchisi insonning intellektual bo'lmagan xususiyatlarini aniqlashga mo'ljallangan. Ikkinchisi esa uning intellektual darajasini aniqlashga qaratilgan. Shaxs testlarini harakat testlari (maqsadga yo'nalgan shaxs testlari) va vaziyatli testlarga ajratish mumkin. Intellektual rivojlanish darajasini diagnostika qilish ko'pgina intellekt testlari yordamida amalga oshiriladi. Ob'ektiv nuqtai nazar doirasida yana ikki gruruh testlarni ajratish mumkin: Bular maxsus qobiliyatlar testlari va yutuqqa erishish testlari. Sub'ektiv nuqtai nazarda ko'proq

so'rovnomalar o'tkaziladi, proektiv nuqtai nazar shaxsni o'rganishning proektiv metodikalari yordamida amalga oshiriladi.

### **R.Kettell testining bolalar varianti**

Bu metodika bog'cha bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus mo'ljallangan bo'lib, Kettellning kattalar uchun mo'ljallangan 16-omilli shaxsni o'rganish testining moslashtirilgan variantidir.

**Testning tuzilishi.** Test bola shaxsining asosiy xususiyatlarini ifodalovchi shkalani o'z ichiga oladi. Har bir xususiyatning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Masalan, aqliy rivojlanganlik – aqliy rivojlanmaganlik. Shkalaning eng minimal va eng maksimal nuqtalari oralig'i 10 ballni tashkil etadi. O'rtachasi esa 5,5 ball. Quyida 11 ta shaxs xususiyatlari tavsifi berilgan. Metodika bo'yicha shaxs xususiyatlarining 3 xil rivojlanish darajasi bor: quyi (1-3 ball), o'rtacha (4-7 ball), yuqori (8-10 ball). Har turli shaxs xususiyatlarining rivojlanishini aniqlashda ikki oxirgi qutb hisobga olinadi va quyi miqdori qabul qilingan shkala bo'yicha ularga mos miqdoriy baholar va qisqacha ta'riflar beriladi.

### **I. Ekstroversiya**

Bu shkala bo'yicha yuqori ball 8-10 ball bo'lib, bolaga – ochiq ko'ngil, ko'ngilchan, kirishuvchan, hamma narsada qatnashuvchan na odamlarga e'tiborli deb ta'rif beriladi. Bu shkala bo'yicha past ballar 1 dan 3 gacha. Bunday bolalar esa kamgap, «ichimdagini top», birovga ishonmaydigan, atrofdagilarga beparvo bolalardir. Mazkur shkala bo'yicha Yuqori ball to'plagan bola ijobiy his-tuyg'ularga ega, quvnoq, kirishimli, tez til topishadigan, deb tavsiflanadi. Xuddi shu shkala bo'yicha past balli bola birovga ishonmaydigan, arazchi, ichki his-tuyg'ularini yashira olmaydigan va atrofdagilar bilan til topisha olmaydigan, deb hisoblanadi. Ular ko'pincha qaysar va xudbindirlar.

### **II. O'z-o'ziga ishonch**

Bu shkala bo'yicha yuqori ball (8–10 ball) to'plagan bola past xavotirlikka ega. Bu shkala bo'yicha past balli (1–3 ball) bola o'ziga ishonadi va tez xafa bo'ladi, arazlaydi. Bunday shaxs xususiyatining pastligi aniqlangan bolalar o'z

muvaffaqiyatsizliklariga qattiq e'tibor beradi, boshqalarga nisbatan o'zini kam qobiliyatli, kuchsiz deb hisoblaydi, o'z his-tuyg'ularini yomon nazorat qiladi, yangi muhit va turmush sharoitlariga moslashishi qiyin kechadi. Bu shkala bo'yicha yuqori natijaga ega bo'lganlar – yaxshi ijtimoiy moslashuvchan bolalardir.

### **III. Hissiy barqarorlik**

Bu shkala bo'yicha yuqori ball (8–10 ball) to'plagan bola – chidamli, sabr-toqatli, tez qo'zg'aluvchan va ta'sirchandır. Past balli bolalar esa (1–3 ball) ko'pincha xotirjam, bosiq, kam kuzatuvchan va flegmatiklardir. Kuchli ta'sirlanadigan bolalarning diqqat-e'tibori bir joyda turmaydi, tez harakat qilib turadi. Bu sifat bo'yicha past baholanganlar esa bosiqlik va muvozanatlilik bilan ajralib turadilar.

### **IV. Mustaqillik**

Bu shkala bo'yicha Yuqori natijaga ega bola (8–10 ball)–mustaqil, hech kimga tobe bo'lmaydigan, o'z aytganida turadigan, atrofdagilardan ustun bo'lishga harakat qiladigan bolalardir. Past ko'rsatkichli bola esa (1–3 ball)–ko'proq tavakkal qiladi va loqayddir.

### **V. Fahm-farosat**

Bu ko'rsatkich bo'yicha Yuqori natija egalari (8–10 ball)–jiddiy, ehtiyotkor, aqlli-zakovatli, turli xulosa chiqara oladigan bolalardir. Past ko'rsatkichlilar (1–3 ball) esa – tavakkal qiluvchilar, loqaydlar. Ular mas'uliyatsiz, avantyurist, o'ziga yuqori baho beruvchilardir. Yuqori ball to'plagan bolalar esa o'zlarini yaxshi tutishadi, xavf-xatardan yiroq Yurishga harakat qilishadi.

### **VI. Vijdonlilik**

Bu shkala bo'yicha yuqori baholi (8–10 ball) bolalar – vijdonli, samimiy, buyurilgan ishni vaqtida bajaradigan, ma'suliyatlidirlar. Past ko'rsatkich egalari esa —vijdonsiz, ma'suliyatsiz bolalardir. Shaxsning bu xususiyati insonlarning Yurish-turish qoidalari normalarini bola qanday qabul qilayotganini aks ettiradi. Odatda bu shkala bo'yicha past ko'rsatkichga ega bo'lganlar ishonch qozona olmaydigan, o'qituvchi va ota-onalar bilan tez-tez urishib turadigan bolalar



hisoblanadi. Yuqori ballilar esa tartib-intizomli, ma'suliyatni chuqur his qiluvchilardir.

### **VII. Dadillik**

8–10 ball yuqori ko'rsatkich – jasur, qat'iyatli, tez qarorga keladiganlarga xos, 1–3 balli past ko'rsatkich egalari – uyatchan, o'z ish va harakatlarida ikkilanadiganlardir.

### **VIII. Uddaburonlik**

Bu shkala bo'yicha yuqori ballilar (8–10 ball) – xayolparast, uquvsiz, «haqiqatdan yiroqda» Yuruvchilardir.

Bu shkala bo'yicha past ballilar (1–3 ball) – aksincha, realist, uddaburon, o'ziga ishonadiganlardir. Bunday bola ko'pincha o'zini mustaqil tutadi, birovdan yordam kutmaydi, aksincha, Yuqori ballilar esa ishonuvchan, laqma, birovlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj, muhit ta'sirlariga beriluvchandir.

### **IX. Optimizm**

Yuqori baholi (8–10 ball) bola ko'pincha past kayfiyatda yuradi, qalb xotirjamligidan tez chiqadi.

Past baholi (1–3 ball) bola esa, odatda, xotirjam va tushkunlikka kam beriladi.

### **X. O'z-o'zini nazorat**

Yuqori balli (8–10 ball) bolalar o'z xulq-atvorini yaxshi nazorat qiladi, ijtimoiy jihatdan moslashuvchandir.

Shaxsning bu xususiyati bo'yicha past ballar (1–3 ball) o'z xulq-atvorini idora qila olmaslikdan dalolat beradi.

### **XI. Xotirjamlik**

Bu shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichli (8–10 ball) bola yuqori darajadagi asab tarangligi bilan ajralib turadi.

Past balli bola esa (1–3 ball), odatda, xotirjam va kam qo'zg'aluvchandir. Kettel testining bolalar varianti savolnomasi 110 savoldan iborat bo'lib, ular bolaning boshqa odamlar bilan munosabati va hayotining turli tomonlariga aloqadordir. Unda bevosita va bilvosita savollar bor, bu savollar sinaluvchining shaxsiyatiga, boshqa sifatlariga ham tegishli. Har bir test savoliga ikkitadan javob

berilgan, ularning bittasini tanlash kerak bo‘ladi. Savolnoma 55 savoldan iborat bo‘lib, 2 qismga bo‘lingan. Undagi barcha 11 ta shkala 10 tadan fikr(har birida 5 tadan)ni o‘z ichiga olgan va har bir javob 1 ball bilan baholanadi. Har bir shkala bo‘yicha olingan ballar yig‘indisi jadval yordamida 10 ballik baho shkalasiga o‘tkaziladi. 1 va 10 ballar amaliyotda kam uchraydi, chunki ular favqulodda uchraydigan xususiyatdir. Bu metodika bo‘yicha psixologik tashxisni yakka va guruh holatida o‘tkazish mumkin. Guruhda psixologik tashxis o‘tkazish uchun har bir bolaga alohida savollar ro‘yxati beriladi. Ular o‘g‘il bola va qiz bolalar uchun alohida bo‘ladi. Javoblar uchun ham blankalar tarqatiladi. Dastlab sinaluvchilarga quyidagi ko‘rsatma beriladi. “Hurmatli bolalar!. Biz bu metodika yordamida Sizing xarakteringizni o‘rganamiz, shuning uchun bir qator savollarga javob bershingizni so‘raymiz. Ular oldingizda turibdi yoki Sizga o‘qib eshittiriladi. Bu savollarga «to‘g‘ri» va «noto‘g‘ri» javoblar yo‘q, ular ahamiyati jihatidan bir xil. Har biringiz o‘zingizga ko‘proq mos keladigan javobni tanlashingiz kerak. Hamma savollar ikki qismdan iborat bo‘lib, ular bir-biridan yoki so‘zi bilan ajralib turadi. Savol bilan tanishib, o‘zingizga ko‘proq mos keladigan javobni tanlashingiz kerak. So‘rov varaqasida har bir nomer ro‘parasida 2 ta kvadrat bor. Siz javobingizning o‘ng yoki chap tomonda joylashganligi bo‘yicha mos keladigan kvadratga plyus ishorasini qo‘ying. Agar savolga mos javobingiz bo‘lmasa, o‘ylab, ikki javobdan o‘zingizga yaqinrog‘ini tanlang. Savolni tashlab ketish berilgan 2 ta javobdan birini tanlamaslikka ruxsat etilmaydi”.

#### **Kettel shaxs so‘rovnomasining o‘g‘il bolalar varianti savollari**

1.	Sen uy vazifasini tez bajarasan.	yoki	Sen uy vazifasini uzoq bajarasan.
2.	Agar senga hazil qilishsa jahling chiqadi.	yoki	Agar senga hazil qilishsa sen ham hazil bilan kulasan.
3.	Sen deyarli hamma narsani o‘zing to‘g‘ri hal qilishingga ishonasan.	yoki	Ba‘zi topshiriqlarni o‘zing bajara olasan.
4.	Sen ko‘p xato qilasan.	yoki	Hech qachon xato qilmaysan.
5.	Sening do‘stlaring ko‘p.	yoki	Do‘stlaring unchalik ko‘p emas.

6.	Boshqa bolalar sendan ko'ra ko'proq ishlarni bajara oladilar.	yoki	Sen boshqa bolalar qancha ishni bajara olsa, shuncha ishni bajara olasan.
7.	Sen odamlar ismini yaxshi eslab qolasan.	yoki	Odamlar ismini esdan chiqarib qo'yasan.
8.	Sen ko'p o'qiysan.	yoki	Bolalar senga ko'ra ko'proq o'qishadi.
9.	Sen bajarmoqchi bo'lgan vazifani o'qituvchi boshqa bolaga bersa xafa bo'lasan.	yoki	Sen bajarmoqchi bo'lgan vazifani o'qituvchi boshqa bolaga bersa, buni tez esdan chiqarasan.
10.	Taklif etgan g'oyalaring, o'ylagan narsalaringning hammasini to'g'ri deb hisoblaysan.	yoki	O'ylagan narsalaringning hammasi yaxshi ekanligiga ishonching komil emas.
11.	Sen odatda kam gapirasan.	yoki	Sen odatda ko'p gapirasan.
12.	Agar onang sendan xafa bo'lsa, bu uning xatosi hisoblanadi.	yoki	Agar onang sendan xafa bo'lsa, sen biror narsada xato qildim, deb o'ylaysan.
13.	Senga kutubxonada kitoblar bilan ishlash yoqadi.	yoki	Senga uzoq masofalarga suzish bo'yicha kapitan bo'lish yoqadi.
14.	Sen kechqurun uzoq vaqt jim o'tira olasan.	yoki	Kechqurun uzoq vaqt jim o'tira olmaysan.
15.			
16.	Agar bolalar sen yaxshi bilgan joy haqida suhbatlashayotgan bo'lsa, darrov suhbatga qo'shilib gapira boshlaysan.	yoki	Agar bolalar sen yaxshi bilgan joy haqida suhbatlashayotgan bo'lsa, darrov suhbatga qo'shila olmay, ularning gapi tugashini kutib turasan.
17.	Sen kosmonavt bo'lishing mumkinmi?	yoki	Sen kosmonavt bo'lish juda qiyin deb o'ylaysan.

18.	Onangning fikricha, sen juda tinib-tinchimas va ta'sirchansan.	yoki	Onang seni muloyim va Yuvosh deydi.
19.	Bolalarning gapini jon deb eshitasan	yoki	Senga eshitish emas, gapirish yoqadi
20.	Bo'sh vaqtingda, yaxshisi, kitob o'qiganing ma'qul.	yoki	Bo'sh vaqtingda, yaxshisi, koptok o'ynaganing ma'qul.
21.	Sen doimo ehtiyotkorlik bilan harakat qilasan.	yoki	Shunday bo'ladiki, Yugurayotib, odamlarni va narsalarni turtib ketasan
22.	Seni jazolashlari mumkinligidan xavotirlanasan.	yoki	Seni jazolashlari bezovta qilmaydi.
23.	Katta bo'lganingda uylar qurish ko'proq yoqadi.	yoki	Katta bo'lsang quruvchi bo'lish ko'proq yoqadi
24.	O'qituvchi darsda senga tez-tez tanbeh beradi.	yoki	O'qituvchi darsda seni o'zini yaxshi tutadi deb hisoblaydi.
25.	Do'stlaring bahslashganda sen ham bahsga qo'shilasan.	yoki	Do'stlaring bahslashganda sen odatda sukut saqlaysan.
26.	Sinfdoshlaring nimagadir kulayotganda ham sen xotirjam dars tayyorlashing mumkin.	yoki	Sen shug'ullanayotganda atrofda sukunat darkor.
27.	Sen «Yangiliklar» ko'rsatuvini tez-tez ko'rib turasan.	yoki	Televizorda «Yangiliklar» ko'rsatuvi boshlansa, zerikib boshqa narsa bilan shug'ullanib ketasan
28.	Seni kattalar xafa qilishadi.	yoki	Seni kattalar yaxshi tushunishadi.
29.	Transport ko'p joyda ko'chani bemalol kesib o'tasan.	yoki	Transport ko'p joyda ko'chani kesib o'tayotganda biroz xavotirlanasan.

30.	Sen bilan ko‘pincha katta ko‘ngilsizliklar bo‘lib turadi.	yoki	Sen bilan ko‘pincha kichik ko‘ngilsizliklar bo‘lib turadi.
31.	Darsda savolga javobni bilsang, qo‘lingni darrov ko‘tarasan	yoki	Darsda savolga javobni bilsang, qo‘lingni ko‘tarmaysan, sendan so‘rashlarini kutib turasan.
32.	Sinfga yangi bola kelsa, u bilan boshqalar qatori tez tanishib olasan.	yoki	Sinfga yangi bola kelsa, sen uni kuzatasan va darrov tanishmaysan.
33.	Sen biror (avtobus, taksi)transport haydovchisi bo‘lishni orzu qilasan.	yoki	Shifokor bo‘lishni orzu qilasan.
34.	O‘ylagan narsang amalga oshmasa xafa bo‘lasan.	yoki	O‘ylagan narsang bo‘lmasa kamdan-kam xafa bo‘lasan.
35.			
36.	Agar sinfdan yozma ish vaqtida yordam so‘rasa o‘rtog‘ingga «o‘zing ech» deb aytasan.	yoki	Agar sinfdan yozma ish vaqtida yordam so‘rasa o‘rtog‘ingga o‘qituvchi ko‘rmasa yordam berasan.
37.	Kattalar o‘zaro gaplashib turishganda senga e‘tibor berishmaydi.	yoki	Kattalar seni ko‘rib o‘zaro suhbatni to‘xtatishadi va senga e‘tibor berishadi.
38.	Agar g‘amgin voqeani eshitsang, ko‘zingda yosh paydo bo‘ladi.	yoki	Agar g‘amgin voqeani eshitsang, u senga ta’sir qilmaydi.
39.	Ko‘p rejalaringni amalga oshirasan.	yoki	Ko‘p rejalaring amalga oshmay qoladi
40.	O‘ynayotganingda onang chaqirsa, darrov kelmay, biroz o‘yinni davom ettirasan.	yoki	O‘ynayotganingda onang chaqirsa, o‘yinni to‘xtatib darhol uning oldiga kelasan.

41.	Sinfda erkin turib nimanidir gapira olasan.	yoki	Agar biror gapni aytish kerak bo'lsa, sen uyalasan.
42.	Uyda yosh bolalar bilan qolish senga yoqadi.	yoki	Uyda yosh bolalar bilan qolish senga yoqmaydi
43.	O'zingni ba'zan yolg'iz va g'amgin his qilasan.	yoki	O'zingni yolg'iz va g'amgin his qilmaysan.
44.	Uy vazifalarini har xil vaqtda bajarasan	yoki	Uy ishlarini doimo bir vaqtda bajarasan.
45.	Sen yaxshi yashayapsan.	yoki	Sen unchalik yaxshi yashamayapsan.
46.	Sen jon deb shahar tashqarisiga sayrga borasan	yoki	Jon deb zamonaviy mashinalar ko'rgazmasiga borasan.
47.	Agar seni urishishsa, tanbeh berishsa, xotirjam turib yaxshi kayfiyatingni buzmayasan.	yoki	Agar seni urishishsa, tanbeh berishsa qattiq xafa bo'lasan.
48.	Senga ko'proq qandolat fabrikasida ishlash yoqadi	yoki	Senga ko'proq uchuvchi bo'lish yoqadi.
49.	Sinfda bolalar to'polon qilishsa sen jim o'tirasan	yoki	Sinfda bolalar to'polon qilishsa, sen ham ular bilan birga bo'lasan.
50.	Agar seni avtobusda turtib yuborishsa, buni jiddiy narsa deb qabul qilmaysan va e'tibor bermaysan.	yoki	Agar seni avtobusda turtib yuborishsa, bundan jahling chiqadi.
51.	Sen bajarishing kerak bo'lmagan ishni qilishga to'g'ri kelgan	yoki	Senda bunday hol bo'lmagan.
52.	Sho'x, chopib yuruvchi do'stlarni yoqtirasan.	yoki	Jiddiy do'stlarni yoqtirasan.
53.	Biror narsaning boshlanishini jim o'tirib kutganingda jahling chiqadi.	yoki	Kutganingda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

54.	Maktabga jon deb borasan.	yoki	Hozir jon deb avtomobilda sayr qilgani borasan.
55.	Ba'zida hammadan xafa bo'lasan.	yoki	Har doim hammadan xursandsan.
56.	Senga, yumshoq, ko'ngilchan o'qituvchi ko'proq yoqadi.	yoki	Senga ko'proq qattiqqo'l o'qituvchi yoqadi.
57.	Senga uyda berilgan hamma ovqatni eysan.	yoki	Senga yoqmagan ovqatni berishsa, norozilik bildirasan.

## 2-QISM

1.	Hamma senga yaxshi munosabatda bo'ladi	yoki	Faqat ba'zilargina senga yaxshi munosabatda bo'ladi
2.	Ertalab o'zingni lanj va uyqusiragan kabi his qilasan	yoki	Ertalab o'zingni tetik va quvnoq his qilasan.
3.	O'z ishingni boshqalarga qaraganda tezroq bajarasan.	yoki	Senga o'z ishingni bajarishing uchun ko'proq vaqt kerak.
4.	Ba'zan o'zingga ishonmaysan.	yoki	Doimo o'zingga ishonasan.
5.	Maktabdoshlaringni ko'rganingda doimo xursand bo'lasan.	yoki	Ba'zan hech kimni ko'rging kelmaydi.
6.	Onang senga sekin harakat qilishingni aytgan.	yoki	Har doim hamma narsani tez bajarasan.
7.	Sen taklif qilgan narsa boshqa bolalarga yoqadi.	yoki	Sen taklif qilgan narsa boshqa bolalarga doim ham yoqavermaydi.
8.	Sen maktabda qanday talab qilishsa, shunday bajarasan.	yoki	Sindoshlaring talab qilingan narsani sendan yaxshiroq bajarishadi.
9.	Boshqalar meni aldamoqchi bo'lishadi, deb o'ylaysan.	yoki	Ular menga do'stona munosabatda bo'lishadi deb o'ylaysan.
10.	Doimo hamma narsani yaxshi bajarasan.	yoki	Ba'zi kunlarda hech narsa ko'ngildagidek bo'lmaydi.
11.	Ba'zan onangga e'tiroz bildirasan.	yoki	Onangdan qo'rqasan.

12	Senga bog' va o'rmonda chang'ida uchish yoqadi.	yoki	Senga tog'da chang'ida uchish yoqadi.
13	O'zingni xushmuomalaman deb hisoblaysan.	yoki	Ba'zan qo'pollik qilasan.
14	Sen bilan biror narsani kelishib olish qiyin deyishadi. (O'z fikringdan qaytmaysan).	yoki	Sen bilan kelishish oson.
15	Bolalar bilan biror buYum (ruchka, qalam) almashganmisan?	yoki	Hech qachon o'rtoqlaring bilan narsa almashmagansan.
16	Ba'zan quloqsiz bo'lishni xohlaganmisan?	yoki	Bunday istak hech qachon paydo bo'lmagan.
17	Onang hamma narsani senga nisbatan yaxshi bajaradi.	yoki	Ba'zi narsalarni onangdan yaxshiroq bajarasan.
18	Agar hayvon bo'lishga to'g'ri kelsa, tez chopar ot bo'larding.	yoki	Sher yoki yo'lbars bo'larding.
19	Senga xushxabar aytishsa biroz quvonasan.	yoki	Senga xushxabar aytishsa suYunganingdan sakraging keladi.
20	Kimdir senga yaxshi munosabatda bo'lmasa, uni kechirasan.	yoki	Kimdir senga yaxshi munosabatda bo'lmasa, sen ham shunday munosabatda bo'lasan.
21	Senga basseynda suzish ko'proq yoqadi.	yoki	Senga ko'proq basseynga sakrash yoqadi
22	O'qituvchi senga e'tiborsiz va daftarda ko'p xato qilishingni aytadi.	yoki	O'qituvchi bu haqda hech qachon gapirmagan.
23	Tortishuvlar bo'lsa o'z fikringni isbotlashga harakat qilasan.	yoki	Tortishuvlarda xotirjam yon berishing mumkin.
24	Urush haqidagi tarixni eshitish yoqadi	yoki	Hayvonlar haqida eshitishni yoqtirasan
25	Sinfga kelgan yangi o'quvchilarga yordam berasan.	yoki	Odatda buni boshqalar qilishadi.
26	Boshdan kechirgan ko'ngilsizliklarni uzoq vaqt eslab Yurasan.	yoki	Ko'ngilsizliklarni tez esdan chiqarasan.
27	O'yinda samolyot haydovchisini bajonidil tavsiflab berasan.	yoki	O'yinda mashhur yozuvchini tavsiflab berasan.



28	Onang koyiganda ma'Yus bo'lib qolasan.	yoki	Onang koyiganda kayfiyating buzilmaydi.
29	Doimo portfelingni tayyorlab qo'yasan.	yoki	Ba'zan portfelingni ertalab yig'ishtirasan.
30	Seni o'qituvchi ko'pinch maqtaydi.	yoki	Seni o'qituvchi ba'zan maqtaydi.
31	O'rgimchakni ushlay olasan.	yoki	O'rgimchakni ushlay olmaysan.
32	Tez-tez xafa bo'lib turasan.	yoki	Ba'zan xafa bo'lasan.
33	Ota-onang «uxla» desa darrov uxlagani ketasan.	yoki	Ota-onang «uxla» desa o'ynashni davom ettirasan.
34	Begona kishi bilan gaplashganingda xijolat bo'lasan.	yoki	Begona kishi bilan gaplashganingda xijolat bo'lmaysan.
35	Rassom bo'lishni orzu qilasan.	yoki	Ovchi bo'lishni orzu qilasan.
36	Sen omadlisan.	yoki	Sen omadsizsan.
37	Agar masala shartini tushunmasang, o'rtog'ingga murojaat qilasan.	yoki	Agar sen masala shartini tushunmasang, o'qituvchingga murojaat qilasan.
38	Kulgili voqea aytib hammani kuldira olasan.	yoki	Hamma kuladigan qilib kulgili voqea aytib berolmaysan.
39	Darsdan so'ng biroz vaqt o'qituvchining yonida bo'lging keladi.	yoki	Darhol koridorga chiqib sayr qilging keladi.
40	Ba'zan hech narsa qilmay o'tirganingda o'zingni yomon his qilasan.	yoki	Sen bilan bunaqasi hech qachon bo'lmagan.
41	Maktabdan keta turib biroz o'ynaysan.	yoki	Darsdan so'ng darhol uyga qaytib kelasan.
42	Senga ota-onalaring doimo quloq solishadi.	yoki	Senga ota-onalaring hech qachon quloq solishmaydi.

43	Uydan chiqa olmasang xafa bo'lasan.	yoki	Bu senga ta'sir qilmaydi.
44	Sen kam qiynalasan.	yoki	Ko'p qiynalasan.
45	Bo'sh vaqtingda jon deb kinoga borasan.	yoki	Bo'sh vaqting bo'lsa hovliga ko'chat ekasan.
46	Onangga maktabdagi voqealar haqida bajonidil gapirib berasan.	yoki	Jon deb sayohat haqida gapirasan.
47	Agar do'sting narsangni so'ramay olsa, bunga e'tibor qilmaysan.	yoki	Agar do'sting narsangni so'ramay olsa, undan xafa bo'lasan.
48	Kutilmagan tovushdan cho'chib ketasan.	yoki	Xotirjam u yoq, bu yoqqa qarab nima bo'lganini aniqlaysan.
49	Bolalar bilan bir-biringizga nimanidir berish ko'proq yoqadi.	yoki	Senga o'rtoqlaring bilan o'ynash yoqadi.
50	Hayajonlanganda qattiq gapirasan.	yoki	Hech qachon suhbatlashayotganda ovozingni baland qilmaysan.
51	Darsga jon deb borasan.	yoki	Jon deb televizorda futbol o'yinini ko'rasan.
52	Radio eshitayotganda televizor ko'rayotganda senga boshqa ovozlar xalaqit beradi.	yoki	Radio eshitayotganda televizor ko'rayotganda senga boshqa ovozlar xalaqit bermaydi
53	Maktabda senga qiyin bo'ladi.	yoki	Maktabda senga qiyin bo'lmaydi.
54	Agar uyda nimadandir jahling chiqsa sekingina xonadan chiqib ketasan.	yoki	Xonadan chiqib ketayotib eshikni qattiq yopasan

## **A.Assingerning agressiyani diagnostika qilish metodikasi**

A.Assingerning ushbu testi shaxsning o'z hamkasblari bilan munosabatda qanchalik darajada to'g'riligini (ochiqligini) va ularning u bilan muloqot qilishlarini osonligini aniqlashda yordam beradi.

Javoblarning xosligini aniqlash uchun hamkasabalar orasida bir-birini baholovchi suhbat o'tkazish mumkin.

Bu esa ularning o'z-o'zlarini baholashlari qanchalik to'g'riligini aniqlashda yordam beradi.

Javobning tagiga chizing.

1. Siz ishxonangizda navbatdagi nizodan so'ng yarashish yo'llarini qidirishga moyilmisiz?
  - 4) Har doim.
  - 5) Gohida.
  - 6) Hech qachon.
2. Siz o'zingizni mushkul vaziyatda qanday tutasiz?
  - 7) Ich-ichingizdan g'azablanasiz.
  - 8) Xotirjamligingizni saqlaysiz.
  - 9) O'zingizni tuta olmaysiz
  - 10) Dadilligingizni yo'qotmaysiz.
3. Hamkasblaringiz sizni qanday odam deb hisoblashadi?
  - 11) Kekkaygan hasadchi.
  - 12) Samimiy.
  - 13) Xotirjam va hasadchi emas.
4. Agar sizga mas'ul lavozim taklif qilinsa, siz qanday munosabat bildirasiz?
  - 14) Uni bir muncha xavotirlanish bilan qabul qilasiz.
  - 15) Ikkilanmasdan rozi bo'lasiz.
  - 16) Undan o'zingizni xotirjamligingiz uchun voz kechasiz.
5. Agar hamkasblaringizdan birontasi ruxsatsiz sizning stolingizdan qog'oz olsa o'zingizni qanday sezasiz.
  - 17) Unga kimligingizni ko'rsatib qo'yasiz.
  - 18) Qaytarishga majbur qilasiz.
  - 19) Unga yana biror narsa kerak emasligini so'raysiz.
6. Agar eringiz (xotiningiz) ishdan odatdagidan kech qolsa qanday so'zlar bilan kutib olasiz.
  - 20) Nima seni shunchalik ushlab qoldi?
  - 21) Kechgacha qaerda eding?
  - 22) Men xavotir ola boshlayotgan edim.
7. Siz o'zingizni mashina boshqarayotganda qanday tutasiz?
  - 4) Sizni "Quvib kelayotgan" mashinani quvib o'tishga harakat qilasiz
  - 5) Sizni qancha mashina quvib o'tsa ham sizga baribir.
  - 6) Shunaqangi tezlikda ketasizki, sizga hech kim etolmaydi.
8. Sizni hayotga qarashingiz qanday deb hisoblaysiz?
  - 1) Uyg'unlashgan

- 2) Engiltak  
 3) Juda ham qattiq (og`ir)
9. Agar isharingiz yurishmayotgan bo`lsa nima qilasiz?  
 1) Aybni birovga ag`darishga harakat qilasiz.  
 2) Ko`nikasiz.  
 3) Kelgusida ehtiyotkorroq bo`lasiz
10. Siz zamonaviy yoshlarning orasida axloqsizlik haqidagi feletonga qanday munosabat bildirasiz?  
 1) "Bunday vaqti chog`likni ta`qiqlash kerak"  
 2) Ularga uyushgan va madaniy tarzda dam olishi uchun imkoniyat yaratish lozim.  
 3) Nimaga endi biz ular bilan shunchalar ovoramiz.
11. Agar siz egallamoqchi bo`lgan lavozim boshqa birovga nasib qilsa, nimani his qilasiz?  
 1) Nimaga bu uchun shuncha asabiylashaman.  
 2) Chamasi, xo`jayinga uning ko`rinishi yoqimliroq bo`lsa kerak.  
 3) Balki, men buni keyingi safar uddasidan chiqarman.
12. Qo`rqinchli film ko`rayotganda qanday holatda bo`lasiz?  
 1) Qo`rqasiz  
 2) Zerikasiz  
 3) Chin dildan zavqlanasiz
13. Agar siz yo`ldagi tiqilinch tufayli muhim majlisga kechikayotgan bo`lsangiz...  
 1) Majlis vaqtida asabiylashasiz  
 2) Hamkorlaringizga iltifot ko`rsatishga harakat qilasiz  
 3) Ranjiysiz
14. O`zingizni sportdagi yutuqlaringizga qanday qaraysiz?  
 1) Albatta yutishga harakat qilasiz  
 2) O`zingizni yana yosh his qilishingiz lazzatini qadrlaysiz  
 3) Agar omad kelmasa, judayam jahlingiz chiqadi.
15. Agar sizga restoranda yomon xizmat qilishsa nima qilasiz?  
 1) Janjaldan qochib, chidaysiz  
 2) Ofitsiantni chaqirasiz va tanbeh berasiz  
 3) restoran direktoriga arz qilasiz.
16. Agar bolangizni maktabda xafa qilishsa, o`zingizni qanday tutasiz?  
 1) O`qituvchi bilan gaplashasiz.  
 2) "Voyaga etmagan jinoyatchining" ota-onasi bilan janjallashasiz  
 3) Bolangizga javob qaytarishni maslahat berasiz.
17. Sizningcha, siz qanday odamsiz?  
 1) O`rtacha  
 2) O`ziga ishongan  
 3) Uddaburon
18. Sizning xodimingiz idora eshigida sizga urilib ketsa va kechirim so`ray boshlasa, siz nima deb javob berasiz?

1) “Uzr, bu meni aybim”

2) “Hechqisi yo’q”

3) “E’tiborliroq bo’lsangiz, bo’lmaydimi?”

19. Yoshlar orasidagi bezorilik haqidagi maqolaga siz qanday munosabat bildirasiz?

1) “Qachon axir, jiddiy choralar ko’riladi”

2) “Jismoniy jazo choralari kiritish kerak”

3) “Hammasini yoshlarga ag`darish to`g`ri emas, tarbiyachilar ham aybdor”

20. Tasavvur qiling sizda boshqatdan tug`ilish imkoni tug`ildi, lekin hayvon bo`lib, qaysi hayvonni ma`qul ko`rasiz?

1) Sher yoki leopard

2) Uy mushugi

3) Ayiq

### **Natijalar tahlili**

36-44 ball. Siz o`rtacha darajada tajavvuzkorsiz, lekin hayotda muvaffaqiyatli qadam tashlayapsiz. Sizda samimiy izzattalablik va ishonch bor.

45 va undan ortiq. Siz ortiq darajada tajavvuzkorsiz va ko`pincha boshqalarga nisbatan betayin va judayam shavqatsizsiz, siz o`zingizni metodlaringizga ishongan holda rahbarlikka ko`tarilishga umid qilasiz, bunda oila a`zolaringiz va atrofingizdagilar manfaatlarini qurbon qilasiz.

35 va undan past. Siz haddan ziyod tinchliksevarsiz, bu esa sizda o`zingizning kuchingizga va imkoniyatlaringizga ishonch etarli emasligini anglatadi. Bu albatta sizni har doim egilishingizni bildirmaydi. Baribir sizga ko`proq qat`iylilik bo`lishi halaqit bermaydi.

Agar siz 7 ta va undan ko`p savollarga 3 balldan va 7 tadan kam savollarga 1 tadan ball to`plagan bo`lsangiz, unda sizning tajavvuzkorona portlashlaringiz yaratuvchanlikdan ko`ra buzg`unchilik xarakteriga ega.

Siz o`ylab ko`rilmagan ishlarga va ayovsiz munozaralarga moyilsiz. Siz odamlarga mensimaslik bilan qaraysiz va o`z xulqingiz bilan janjalli murosasizlik holatlariga undaysiz, vaholanki ularni oldini olishingiz mumkin.

Agar siz 7 ta va ko`proq savollarga bir ochkodan va 7 tadan kam savollarga 3 ochkodan olsangiz, unda siz haddan ziyod odamovisiz. Bu degani sizda tajavvuzkorlik, shoshilishlik begona emas, lekin siz uni judayam bostira olasiz.

### **C.D.Spilberger - Y.L.Xaninning “Xavotirlanish darajasini aniqlash” metodikasi**

Mazkur so`rovnoma C.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, vaziyat bilan bog`liq xavotirlanuvchanlik (VX) hamda shaxs bilan bog`liq xavotirlanuvchanlik (SHX) darajasini aniqlashga xizmat qiladi (so`rovnoma Y.L.Xanin tomonidan modifikatsiya qilingani tufayli ko`pincha «Spilberger – Xanin so`rovnomasi» deb yuritiladi). So`rovnoma 40 ta ta`kid – hukmdan iborat (20 ta ta`kid – hukm VX darajasini, 20 ta ta`kid – hukm SHX darajasini o`lchashga xizmat qiladi).

### Vaziyat bilan bog`liq xavotirlanuvchanlik shkalasi (VX)

Ko`rsatma: Berilgan ta`kid – hukmlarga qanchalik qo`shilishingizni bildiring. Buning uchun har bir ta`kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan birini o`chirib qo`ying.

№	Ta`kid – hukmlar	Javoblar			
		Bunday emas	SHunday shekilli	SHunday	Aynan shunday
1	Men xotirjamman	1	2	3	4
2	Menga hech narsa xavf solmayapti	1	2	3	4
3	Asablarim juda tajang bo`lib turibdi	1	2	3	4
4	Men ich - ichimdan siqilayapman	1	2	3	4
5	Men o`zimni erkin his etayapman	1	2	3	4
6	Men xafaman	1	2	3	4
7	Men ro`y berishi mumkin bo`lgan omadsizliklardan xavotirdaman	1	2	3	4
8	Men ruhiy taskinlik his etayapman.	1	2	3	4
9	Men bezovtaman	1	2	3	4
10	Qoniqish hissi ich-ichimdan meni qamrab olgan	1	2	3	4
11	Men o`zimga ishonayapman	1	2	3	4
12	Men asabiylashayapman	1	2	3	4
13	Men o`zimni qo`yarga joy topa olmayapman	1	2	3	4
14	Men qiziqib ketdim	1	2	3	4
15	Men siqilmayapman, asablarim joyida	1	2	3	4
16	Men xursandman	1	2	3	4
17	Men tashvishdaman	1	2	3	4
18	Halovatim yo`q	1	2	3	4
19	Men quvonayapman	1	2	3	4
20	Yoqimli hislar meni chulg`ab olgan	1	2	3	4

### Shaxs bilan bog`liq xavotirlanuvchanlik shkalasi (SHX)

Ko`rsatma. Berilgan ta`kid – hukmlar haqiqatga qanchalik yaqin ekanini bildiring. Buning uchun har bir ta`kid – hukm qatorida keltirilgan va tegishli javob variantining ustunida berilgan raqamlar (1,2,3,4) dan birini o`chirib qo`ying.

№	Ta`kid – hukmlar	Javoblar			
		Hech qachon	Deyarli hech qachon	Shunday	Aynan shunday
11	Kayfiyatim ko'tarinki bo'lib turadi	11	2	3	4
22	Asablarim tajang bo'lib turadi	11	2	3	4
33	Arzimagan narsadan hafa bo'lib qolaman	11	22	3	4
44	Boshqalar singari omadli bo'lishni istayman	11	22	3	4
55	Ko'ngilsizliklarni uzoq vaqt esimdan chiqara olmayman	11	22	3	4
66	Men kuchimga kuch qo'shilganini sezaman	11	22	3	4
77	Men bosiq va vazminman	11	22	3	4
88	Men oldimdan chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'ylab bezovtalanaman	11	22	3	4
99	Men arzimagan narsalarni deb qattiq siqilib Yuraman	11	22	3	4
110	Men o'zimni juda baxtiyor his etaman	11	22	3	4
111	Men hamma narsani yuragimga yaqin olaman	11	22	3	4
112	O'z-o'zimga bo'lgan ishonch etishmasligidan qiynalaman	11	22	3	4
113	Men o'zimni himoyasiz his etaman	11	22	3	4
114	Men xatarli vaziyat va narsalardan uzoqroq yurishga harakat qilaman	11	22	3	4
115	Yuragim g'ash bo'lib turadi	11	22	3	4
116	Men xursand bo'lib turaman	11	22	3	4
117	Har xil mayda-chuydalar meni chalg'itadi va bezovta qiladi	11	22	3	4
118	O'zimni omadsiz insondek his etaman.	11	22	3	4
119	Men o'zimni qo'lga ola bilaman	11	22	3	4
220	Ish va yumushlarim haqida o'ylaganimda halovatim yo'qoladi	11	22	3	4

## Glossariy.

**Aktiv** - ATM ma'muriyati bilan oshkora hamkorlik qiluvchi maxkumlar.

**Anoreksiya** - kuchli vazn yo'qotish bilan kechadigan ovkat yeyishdan uzoq muddat bosh tortish.

**Bezorilik** - fuqarolarga nisbatan zurlik ishlatish yoxud zurlik ishlatish yo'li bilan qo'rqitish, shuningdek o'zganing mulkini nobud qil ish yoki shikast yetkazish tarzida jamiyatdagi yurish-turish qoidalarini ko'pol ravishda buzish.

**Bulimiya** - ovkatni orqasidan ich suruvchi yoki qayt kildiruvchi vosita ichiladigan darajada nazorat qilmasdan yutish.

**Baqlan** - bezorilik uchun kamalgan maxkum.

**Balanda** - JIM oshxonasidagi ovkatning umumiy nomi.

**Banderloglar** - voyaga yetmaganlar orasidagi ierarxik zinapoya- ning kuyi pogonalariga mansub maxkumlar yigindisi.

**Batek** - voyaga yetmaganlar kamerasidagi voyaga yetgan maxkum.

**Bespredel** - qonunni buzishning sunggi darajasi.

**Blatnoy** - jinoiy muhitda xurmatga ega bo'lgan qonundagi o'g'rilarga yaqin bo'lgan jinoyatchi toifalaridan biri.

**Gomeostatik** variantida muvofiqlik postulati muhit bilan o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, ruxiy zo'riqish darajasini pasaytirish, muvozanat o'rnatish shaklidagi talablar kabi namoyon bo'ladi.

**Gedonik** variantida kishining harakatlari ikki birlamchi affekt: qoniqish va azob orqali aniqlanadi; axloqning namoyon bo'lishi esa qoniqishni maksimalashtirish va azobni kamaytirish sifatida izohlanadi.

**Pragmatik** variant maqbullashtirish tamoyilidan foyda- lanadi, bunda diqqat markaziga axloqning tor amaliy jihati: foyda, naf yoki muvaffaqiyat qo'yiladi.

Haqorat - o'zga shaxsning sha'ni va qadr-qimmatni beadab shaklda ifodalangan harakat orqali kamsitish.

**Psixoz** - shaxsning harakatlari buzilishida namoyon buluv- chi, uning dunyoqarashi, motivatsiyasi va xulqini o'zgartiruvchi o'tkir og'riqli (irratsional) ruxiy buzilish. Shaxsning ijtimoiy moslashuvga layoqatsizligi, uning muomalaga



layoqati izdan chiq- qanligi, og'riqni sezish hissi yo'qligi, voqelik bilan muloqotni yo'qotganligi bilan tavsiflanadi.

**Epilepsiya** (tutqanoq) - ongning talvasali, ta'sirchan, vegetativ va boshqa tutqanoqlari, qisqa muddatli yoki davomli xurujlarida ifodalanadigan ruxiy-asab faoliyatining paroksiz- mal buzilishlar.

**SHizofreniya** - parchalanish, moslashmaslik, fikrlar, muomala va xayajonning bo'linishi, ruxiy funktsiyalarning bo'lak-bo'lak bo'lib ketishi, voqelikdan chetlashuvi, fantaziyalar paydo bo'lishi va tizimsiz bosinqirash hamda shunga bog'liq ichki dunyoga g'arq bulish bilan kuzatiladigan kasallik.

**Oligofreniya** - tug'ma yoki kichik yoshida irsiy, travmatik yoki zararli ta'sirlar natijasida orttirilgan aqli zaiflik.

**Nevrozlar** - bu turli tizimlar va organlarda funktsiyaning boshqa (ko'pincha ikkilamchi) o'zgarishlari bilan bir qatorda ruxiy-asab faoliyatining ong va ruxiyat doirasini son jihatdan izdan chiqaruvchi funktsional buzilishlar.

**Shaxs xultsining me'yordan chitsishi** - shaxsning beqaror harakteri, o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvur va atrofdagilar bilan munosabatlarning qiyinlashuvi oqibatida yuzaga keladigan buzilishlar.

**Obsessiyalar** - miyaga o'tirib qolgan va kishining irodasiga qarshi yuzaga keladigan fikrlar, shubxalar, qiziqishlar, qo'rquvlar (B rasm)

**Kompulsiyalar** - istak va irodaga zid ravishda yuzaga keladigan, begona bo'lib anglanadigan va kaysarlikda ifodalanishi bilan farq qiladigan ta'sirlar, harakatlar.

**Konversion buzilish** - xech qanday fiziologik sababsiz biron-bir organ yoki biron-bir tana kismi sezuvchanligining yo'qolishi.

**SHikastlanishdan keyingi stress** - insonning qachondir boshidan utkazgan iztirob yoki jaroxatlovchi voqeani doimo yangidan boshidan kechirishga majbur qiluvchi buzilish.

**Ipoxondriya** - o'z sog'ligiga xaddan ziyod e'tibor berish va u bilan bog'liq muammolarni o'ta darajada bo'rttirish.

**SHaxvoni deviatziyalar** - jinsiy mayl yunalishi yoki uni qondirish

usullarining og'riqli buzilishi.

**Psixopatiya** - ruxiyatning me'yordan chetga chiqishi bo'lib, unda shaxsning mutanosib ravishda rivojlanish, sub'ektiv xissiy tajriba va muvozanatdagi xis-xayajonli xulqini namoyon qilish layoqati kamayadi.

**Harakter aktsentuatsiyasi** - me'yorning eng keskin varianti bo'lib, unda harakterning aloxida xislatlari ustunlik qiladi.

**Delinkvent axlots** - ushbu jamiyatda va ayni vaqtda urna-tilgan huquqiy me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati

**Delinkvent shaxs** - keskin og'uvchi axloqqa ega bo'lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi sub'ekt.

**Tobe (addiktiv) axloq** - psixik holatni o'zgartirish maksa-dida qandaydir moddani iste'mol qilish yoki o'ziga xos psihologik yoki jismoniy tobelik bilan bog'liq axloq.

**Tobelik** - lazzat olish yoki moslashish maqsadida kimgadir yoki nimagadir suyanishga umid qilishga bo'lgan intilish.

**Tajovuz** - kimnidir o'ziga buysundirish yoxud ulardan ustunlik qilish maqsadida real axloq yoki fantaziyada namoyon qilinadigan tendentsiya (intilish).

**Tajovuzkor axloq** - bunday murojaatni istamaydigan boshqa tirik mavjudotga zarar yetkazish yoki bosim utkazishga yunaltirilgan axloq.

**Moslashuv** - atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni.

**Muuofazalovchi axloq** - odamlar uning vositasida ijtimoiy munosabatlarda og'riq va frustrakiyadan kochadigan harakat.

**Zoofiliya** (sodomiya) - xayvonlarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy deviatsiya.

**Interventsiya** - ijobiy o'zgarishlar maqsadi bilan, masalan, istalmagan axloqni yengish (axloq korrektsiyasi, shaxs rehabilitatsiyam) bilan ta'sir ko'rsatish.

**Klassik shartlanganlik (shartli yoki respondent refleks)** - bu shartsiz ragbat bilan vaqt va borliqda (organizmning tug'ma reaksiyasini chakiruvchi) shartli reaksiyaga o'rganish (indifferent ragbatga reaksiya).

**Kleptomaniya** - patologik o'g'rilik.

**Konformistik axlots** - individuallikdan maxrum axloq.

**Koping-axlots** - stressni yengmok.

**Koping-resurslar** - aniq shaxsnin stressni muvaffaqiyatli yengishiga yordamlashuvchi ichki va tashqi resurslar yigindisi.

**Koping-strategiyalar** - stressni yengishning individual strategiyalari.

**Libido**- jinsiy mayl, jinsiy yaqinlikka intilish.

**Marginallik** - me'yorning oxirgi chegarasi, shuningdek, chegarali submadaniyatga mansublik.

**Axlotsning motivatsiyalanganligi** - shaxsning yetakchi ehtiyojlari, qadriyatlar va maqsadlari bilan boshqariladigan harakatga ichki tayyorlik.

**Nartsistik axlots** - shaxsiy buyuklik tuyg'usi va o'ziga libido murojaat, shuningdek, o'zining ahamiyatlilikiga tashkaridan tasdiklashlariga yukori ehtiyoj bilan boshqariladigan axloq.

**Nekrofiliya** - murdalarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy devyatsiya.

**Ta'lim** - yuzaga kelgan vaziyat asosida muayyan axloq turlarini saqlash va egallash jarayoni.

**Operant** - uz oqibati bilan belgilangan axloq.

**Operant shartlanganlik** - axloq va o'zini uzi mustaxkamlash sharofati bilan shartli reaksiya (ta'lim) ni ishlab chiqish.

**Operant axlots** - natija paydo qilib, atrof-muhitda operatsiyalanadigan axloq.

**Og'ishgan (og'ishgan) axlots** - birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan, shaxsning uzi yoki jamiyatga real zarar keltiruvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi shaxsning turgun axloqi.

**Pedofiliya** - bolalarga jinsiy qiziqish bilan bog'liq jinsiy devyatsiya.

**Penitentsiar tizim** - qonunbuzarlarni saqlash tizimi, ularning jazoni utash joyi.

**Perversiya** - jinsiy ob'ekt yoki jinsiy qoniqish usullarini tanlashda og'ish bilan bog'liq qayd kilingan kuchli jinsiy axloq.

**Piromaniya** - kuydirishga patologik ishqivozlik.

**Preventsiya** - o'gohlantirish maqsadidagi ta'sir - istalmagan xulq profilaktikasi.

**Axloqning mahsuldorligi** - shaxs axloqida ongli maqsadlarini amalga oshirish darajasi.

**Promistsuitet** - sub'ekt sog'ligi va uning shaxslararo munosabatlar uchun xavf tug'diruvchi tartibsiz jinsiy aloqalar.

**Psixologik himoya** - shaxsning maqsadi va mustaxkamligiga xavf soluvchi har qanday o'zgarishlarni bartaraf qilish yoki kamaytirishning ongsiz mexanizmlari.

Relaksatsiya - bushashish.

**Retrizm** - ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy o'zaro ta'sirdan ketish.

**Sadomazoxizm** - kamsitish yoki sherigiga azob berish orqali jinsiy qoniqishga erishish bilan bog'liq jinsiy addikkiya.

**Ijtimoiy og'ishlar** - ommaviylik, turgunlik va tarkalganlik bilan karakterlanuvchi ijtimoiy me'yorlarning buzilishi, masalan, jinoyatchilik yoki piyonistalik.

**Sotsiopatik shaxs** - atrofdagi odamlarga ishonch tankisligi va dushmanlikni xis qiluvchi, uzok vaqt yaqin munosabatlar o'rnatishga qodir bo'lmagan, o'z maqsadlariga erishish uchun kuch va manipulyatsiyadan faol foydalanuvchi antiijtimoiy shaxs.

**Suitsid** - atayin o'zini hayotdan maxrum qilish.

**Suitsidal axloq** - o'zini hayotdan mahrum qilish haqidagi tasavvurlarga yunaltirilgan anglangan harakat.

**Transvestizm** - perversiya, psihologik qulaylik yoki jinsiy qo'zg'alishga erishish maqsadida tasavvurda yoki haqiqatan ayollar kiyimini kiyib olish bilan bog'liq erkaklarga nisbat beriladigan jinsiy deviatsiya.

**Transseksualizm** - o'z jinsini xirurgik o'zgartirishga intilishda ko'rinuvchi jinsiy mansublikning buzilishi (qarama- qarshi jins bilan o'xshashlik oqibatida).

**Trixotilomaniya** - patologik soch yulish.

**Tolerantlik** - nimagadir chidash berish, bardosh berish, ta'sirga berilmaslik.

**Fanatik axloq** - qandaydir g'oya, qarashlarga ko'r-ko'rona ixlosmandlik shaklida chiquvchi axloq.

**Fetishizm** - shaxs jinsiy qo'zgalish va qoniqish uchun fetish (jonsiz predmet yoki tana kismi) dan foydalanadigan jinsiy devyatsiya.

**Frustratsiya** - extiyojni qondirish imkonsizligi yoki maqsadga erishish yo'lidagi to'siqlar bilan bog'liq psixik holat.

**Endogen** - patogenezi genetik (irsiy) jihatdan shakllangan ichki mexanizmlarga bog'liq bo'lgan buzilishlar.

**Ekzogen** - tashqi moddiy muhit ta'siridan yuzaga keladigan buzilishlar.

Ruxiy buzilishlarning namoyon bo'lish darajasi va chuqurligiga ko'ra patogen dezadaptatsiya: epilepsiya ( tutqanoq)lar, shizofreniya, oligofreniya va xokazo ko'rinishidagi barqaror yoki surunkali shakllarga ega bo'lishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyatlar.

1. Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 1992.
2. Boboyev X.B., A.X.Saidovlar umumiy taxriri ostida. «Uzbekiston Respublikasi Konstitupiyasini o'rganish». «Uzbekistan» nashriyoti Toshkent-2001.
3. Beshcheva S.A. «Slojnbij mir podrostka». Sverxtovsk 1984.
4. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi buyicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik ko'rsatmalar»-
5. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
6. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Qiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
7. David G. Myers "Psychology" Michigan USA Worth Publishers.: 2011
8. Nishanova.Z T.Dutsmuxamedova/ G. Tulyaganova. Pedagogik psixologiya Toshkent O'qituvchi 2012
9. Ibragimov X., U.YUldoshev Pedagogik psixologiya, Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T., 2009 yil.
10. Inomova O. «Oila tarbiyasida milliy xususiyatlarni hisobga olish» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004 y, 5-son, 56-58
11. «Psixologiya.» R.N.Nemov. M. 1991.
12. Psixologiya V.Karimova.Toshkent.2002.
13. L.M.Zyubin «Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar». T: O'qituvchi 1997y.-216b.
14. O.Кернберг "Агрессия при расстройстве личности". М: Независимая фирма "Класс"., 1998г.-368 б.
15. N.G.Kamilova «Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi» T., ТДПУ, 2013
16. G.Kamilova, L.Nigmatulina, N.Atabaeva, L.Inagamova "Talaba yoshlar N orasida addektiv xulq psixoprofilaktikasi" T: КЁИХМК, 2013-95Бб.
17. N.G.Kamilova, L.Nigmatulina, N.Atabaeva, L.Inagamova "Talaba yoshlar orasida suitsidal xulq psixoprofilaktikasi" T: КЁИХМК, 2013-103б.
18. N.G'. Kamilova "Muammoli o'smir". Tashxis,tadqiqot metodlari. T. РБИММ

2006у-103б.

19. Е.Н.Волкова, Т.Н.Балашова, “Защита детей от жестокого обращения”. Питер: 2007.
20. “Агрессия у детей и подростков”. Под ред. Н.М. Платоновой. С-П: 2006г
21. Q.Raximova, A.Abdullaeva “Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasi” FarDU:
22. Гишинский Я. И., Афанасьев В.С. Социология девиантного поведения. — СПб., 1993.
23. Егоров А. Ю., Игумнов С.А. – Расстройства поведения у подростков. – СПб.: Речь, 2005. – 436 с.
- 24.Змановская Е. В. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения): Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2003. — 288 с.
25. Клейберг Ю. А. Психология девиантного поведения. — М., 2001.
26. Кондратенко В. Т. Девиантное поведение у подростков: Социально-психологические и психиатрические аспекты. — Минск, 1988.
27. Менделевич В. Д. Психология девиантного поведения: Учебное пособие. — СПб.: Речь, 2005. — 445 с.

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	.....
<b>Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi kursining predmeti va og`ishgan hulq klasifikatsiyasi.....</b>	.....
<b>Shaxs og`ishgan xulqining mexanizmlari.....</b>	.....
<b>Og`ishgan xulq klasifikatsiyasi.....</b>	.....
<b>Dezadaptatsiya va uning o`smir xuqida namoyon bo`lishi.....</b>	.....
<b>Agressiv xulq.....</b>	.....
<b>Delikvent axloq.....</b>	.....
<b>Tobe axloq.....</b>	.....
<b>Suitvsidal axloq.....</b>	.....
<b>Shaxs og`ishgan axloqining preventsiyasi va interventsiyasi.....</b>	.....
<b>Shaxs og`ishgan xulqning psixologik korreksiyasi.....</b>	.....
<b>Glossariy.....</b>	.....
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	.....



## Содержания

<b>Введение .....</b>	.....
<b>Предметная классификация поведенческой психологии ребенка и классификация поведения .....</b>	.....
<b>Механизмы поведения человека .....</b>	.....
<b>Классическая классификация поведения.....</b>	.....
<b>Дезадаптация и ее проявления в подростковом возрасте .....</b>	.....
<b>Агрессивное поведение .....</b>	.....
<b>Этика деликатности .....</b>	.....
<b>Подчинённая этика .....</b>	.....
<b>Успешная этика .....</b>	.....
<b>Предупреждение и вмешательство в этику личности .....</b>	.....
<b>Психологическая коррекция поведения человека .....</b>	.....
<b>Глоссарий .....</b>	.....
<b>Ссылки .....</b>	.....